

ROALD DAL

**CHARLI VA SHOKOLAD
FABRIKASI**



ENN XOGART

**MAFIN VA UNING
DO'STLARI**



*Cho'lpón nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2015*


UO'K: 821.111:398.21

KBK 82.3(3)

Ch-22



Kimdan _____





Roald DAL

CHARLI VA SHOKOLAD FABRIKASI

Teoga bag‘ishlanadi

**BU KITOBDA BESH NAFAR BOLA BILAN TANISHASIZ.
BULAR:**

AVGUST NODON – ochko‘z bola;

VERUKA SOLT – ota-onasi taltaytirib yuborgan qizcha;

VIOLETTA BYURGARD – tinmay saqich chaynaydigan qizcha;

MAYK TIVI – ertalabdan kechgacha televizor ko‘radigan bola;

CHARLI BAKET – shu qissaning bosh qahramoni.



1. Charli bilan tanishuv

O‘h-ho‘, buncha ko‘p odam! To‘rt nafar juda keksa odam – janob Baketning ota-onasi, Jo buva va Jozefina buvi; Baket xonimning ota-onasi, Jorj buva va Jorjina buvi. Yana janob Baket va Baket xonim ham. Nihoyat Janob Baket va Baket xonimning kichkina o‘g‘li – Charli Baket.

– Salom, salom, yana bir bor salom!

U siz bilan uchrashganidan xursand.

Butun oila – olti katta yoshli kishi (sanab chiqishingiz mumkin) va kichkina Charli – sokin shaharning chekkasidagi yog‘och uyda yashardi. Uy bunday katta oila uchun juda kichkina, hammalarining birga yashashi juda noqulay edi. Xona atigi ikkita, karavot esa bittagina edi. O‘sha karavot ham buvilar, ham buvalarga berilgandi, chunki ular shunchalik qari va zaif ediki, hech qachon karavotdan tushishmasdi. Jo buva va Jozefina buvi karavotning o‘ngdagi yarmini, Jorj buva bilan Jorjina buvi esa chapdagi yarmini egallahsgandi. Janob Baket va Baket xonim hamda kichkintoy Charli Baket qo‘shti xonada polda to‘sak solib yotishardi.

Yoz paytida bu unchalik sezilmasdi, lekin qishda, sovuq yelvizaklar kechasi bilan polda aylanib yurganda, bu dahshatli edi.

Baketlar juda kambag‘al ekanliklari tufayli yangi uy yoki hech bo‘lmasa yana bitta karavot sotib olish haqida gap bo‘lishi ham mumkin emasdi.

Oiladagilardan faqatgina janob Baket tish pastasi fabrika-sida ishlardi. Janob Baket kunbo‘yi tish pastasi tyubiklarini burardi.

Lekin bu ishga juda kam haq to‘lashardi. Janob Baket qanchalik harakat qilmasin, qanchalik tirishmasin, ishlab topilgan pul bunday katta oilaga eng zarur narsalarining yarmini sotib olishga va hatto oziq-ovqatga ham yetmasdi.



Baketlarning daromadi nonushtada faqat non bilan margarin, tushlikda qaynatilgan kartoshka bilan karam, kechki ovqatga esa karam sho‘rvaga yetardi, xolos. Yakshanba kunlari vaziyat salgina yaxshilanardi.

Butun oila yakshanbani ovqat boshqacha bo‘lgani uchun emas, shunchaki hammaning qo‘sishma yeyishga imkoniyati bo‘lgani uchun sabrsizlik bilan kutardi.

To‘g‘ri, Baketlar butunlay och o‘tirishmasdi, lekin hammalarini (ikki buva, ikki buvi, Charlining ota-onasi va kichkintoy Charlining o‘zini) ertalabdan kechgacha oshqozondagi dahshatli bo‘shliq hissi qiynardi.

Hammadan ham Charliga qiyin edi. Garchi janob Baket va Baket xonim o‘z hissalarini ko‘pincha unga berishsa ham, Charlining o‘sayotgan organizmiga bu yetarli emasdi, Charlining karam va karam sho‘rvadan boshqa biron to‘yimliroq va mazaliroq ovqat yegisi kelardi. Ammo hammasidan ham... u shokolad yeyishni xohlardi.

Charli har kuni ertalab maktabga ketayotganda do‘kon peshtaxtalari oldida to‘xtar, burni bilan oynaga yopishib, og‘zining suvi kelib, uyum-uyum shokoladga tikilardi. Boshqa bolalar cho‘ntaklaridan qaymoqli shokolad plitkasini chiqarib, suqlik bilan yeyishini ko‘p ko‘rgan. Buni tomosha qilish Charli uchun haqiqiy azob edi.

Charli Baketga yilda faqat bir marta – o‘zining tug‘ilgan kunida shokolad yeyish nasib qilardi. Butun oila yil bo‘yi pul yig‘ar va baxtli kun kelganda, Charliga kichkina shokolad plitkasini sovg‘a qilishar edi. Har gal sovg‘ani olgach, uni kichkina yog‘och qutiga avaylab solar va go‘yo bu shokolad emas, oltindek ehtiyyotkorlik bilan o‘sha yerda saqlardi.

Charli keyin bir necha kun davomida shokoladchaga tikilib o‘tirar, lekin unga aslo tegmasdi. Bolaning sabri tugay deganda esa, o‘ramning bir chetini plitkaning kichkinagini



bo‘lagi ko‘rinadigan qilib yirtar, keyin shokoladning ajoyib ta’mini og‘zida his qilish uchun ozginagina sindirib olardi. Ertasi kuni Charli yana kichkinagina bo‘lagini tishlab yerdi. Keyin bu hol yana takrorlanardi.

Shu tariqa shokoladdan olingan lazzat bir oydan sal ko‘proqqa cho‘zilardi.

Lekin men hali sizga kichkintoy Charlini – shokolad shinavandasini hammadan ham ko‘proq qiynaydigan narsa haqida aytib bermadim.

Bu do‘kon peshtaxtalaridagi uyum-uyum shokoladlarga tikilishdan ham, boshqa bolalar shundoq ko‘zining oldida qaymoqli shokolad yeishini tomosha qilishdan ham azobliroq holat edi.

Bundan dahshatliroq holatni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shaharda, shundoq Baketlar uyining derazasi ro‘parasida shokolad fabrikasi joylashgandi. Fabrika oddiy emas, dunyodagi eng katta va eng mashhur – VONKA SHOKOLAD FABRIKASI edi.

Uning egasi janob Villi Vonka – buyuk ixtirochi va shokolad qiroli edi.

Ajoyib fabrikani baland devorlar o‘rab turar, ichkariga faqat katta temir darvozalardan kirish mumkin edi. Quvurlardan tutun chiqar, ichkaridan g‘alati g‘uvillagan ovozlar eshitilar, fabrikaning devorlari ortidan esa yarim milya naridan shokoladning o‘tkir hidi anqib turardi.

Charli Baket kuniga ikki marta – mактабга ketayotganda va qaytayotganda shu fabrikaning yonidan o‘tayotib har gal qadamini sekinlashtirib, rohatlanib shokoladning sehrli hididan nafas olardi.

Oh, bu hidni u qanchalik yaxshi ko‘rishini bilsangiz edi!

Uning bu fabrikaga kirib, ichkarisida nimalar borligini bilishni qanchalik xohlashini bilsangiz edi!



2. Janob Villi Vonkaning shokolad fabrikasi

Kechqurunlari sersuv karam sho‘rvani ichgach, Charli, odatda, buvilari va buvalarining xonasiga ularning hikoyalari tinglash va xayrli tun tilash uchun kirardi.

Qariyalarning hammasining yoshi to‘qsondan oshgandi. Ular cho‘pdek ozg‘in, yuzlari dimlangan olmadek burishib ketgandi. Kunbo‘yi karavotda – buvalar sovuq qotmaslik uchun – tungi qalpoqlarda, buvilar – chepchiklarda yotishardi. Ular qiladigan ishlari yo‘qligidan doim mudra-shardi. Lekin eshik ochilib, xonaga Charli kirib, «Xayrli oqshom, Jo buva va Jozefina buvi, Jorj buva va Jorjina buvi» deyishi bilan, qariyalar o‘rinlaridan turib o‘tirib olishar, ajin bosgan yuzlari tabassumdan yorishib, shirin suhbat boshlanardi. Ular bolakayni juda yaxshi ko‘rishardi.

Charli qariyalar hayotidagi yagona quvonch bo‘lib, ular kunbo‘yi shu kechki suhbatlarni sabrsizlik bilan kutishardi. Ko‘pincha Charlining ota-onasi ham xonaga kirib, bo‘sag‘ada to‘xtab qolishar va buvalar hamda buvilarning hikoyalarini eshitishardi. Shu tariqa oila hech bo‘lmasa yarim soatga ochlik va g‘ariblikni unutar, hamma o‘zini baxtli sezardi.

Bir kuni kechqurun, odatdagidek, Charli keksalarni ko‘rgani kirganda:

- Vonkaning shokolad fabrikasi dunyodagi eng katta fabrika ekanligi rostmi? – deb so‘radi.
- Rostmi? – qichqirib yubordi to‘rtovlon. – Albatta, rost! Bilmasmiding? U boshqa har qanday fabrikadan ellik barobar katta.
- Janob Villi Vonka shokoladni hammadan yaxshi tayyorlashi-chi?
- Bolaginam, – dedi Jo buva yostig‘idan sal ko‘tarilib, – janob Villi Vonka – dunyodagi eng yaxshi qandolatchi! Men buni hamma biladi, deb o‘ylagandim.



— Jo buva, men uning mashhurligini, ixtirochi ekanligini bilardim...

— Ixtirochi? — xitob qildi buva. — Nimalar deyapsan! Shokolad ishida u sehrgar! U hamma narsaga qodir! To‘g“rimi, azizlarim?

Ikki buvi va bir buva bosh irg‘ashdi:

— To‘ppa-to‘g“ri, bundan-da to‘g“ri bo‘lishi mumkin emas.

Jo buva esa ajablanib so‘radi:

— Nima, men senga hech qachon janob Villi Vonka va uning fabrikasi haqida gapirib bermaganmidim?

— Hech qachon, — dedi Charli.

— E Xudoyim! Bu qanaqasi bo‘ldi?

— Iltimos, Jo buva, hozir shu haqda aytib bering, — iltimos qildi Charli.

— Albatta aytib beraman. Qulayroq o‘tirib olib, diqqat bilan eshit.

Jo buva oiladagi eng keksa kishi edi. Uning yoshi to‘qson oltidan oshgandi. Ko‘pchilik keksalar singari u ham kasalmand, zaif va kamgap odam edi. Lekin oqshomlari xonaga sevimli nabirasi Charli kirganda, buva uning ko‘z oldida yosharib ketgandek tuyulardi. Charchoqlari qayoqqadir g‘oyib bo‘lardi. U yosh boladek sabrsizlanib, hayajonga tushardi.

— O! Janob Villi Vonka ajoyib odam! — xitob qildi Jo buva. — Masalan, u shokoladning ikki yuzdan ortiq turini o‘ylab topganini, hammasining ichidagi massalig‘i turlicha ekanligini bilasanmi? Dunyodagi bironta qandolat fabrikasi bunday sifatli shokoladlarni chiqarmaydi!

— Mutlaqo rost, — tasdiqladi Jozefina buvi. — U shokoladlarni butun dunyo mamlakatlariga jo‘natadi. To‘g“rimi, Jo buva?

— Ha, ha, azizam. U dunyodagi hamma qirol va prezidentlarni shokolad bilan ta‘minlaydi. Lekin janob Villi Vonka



faqat shokolad tayyorlamaydi. Bundan tashqari, uning bir nechta g‘aroyib ixtirosi bor. U erimaydigan shokoladli muzqaymoqni o‘ylab topganini bilasanmi? Bu shokolad kunbo‘yi quyoshda tursa ham erimaydi!

— Bunday bo‘lishi mumkin emas! — xitob qildi Charli buvasiga ajablanib qarab.

— Albatta, bo‘lishi mumkin emas! Bunga aql bovar qilmaydi. Lekin janob Villi Vonka shunday ishni uddalagan! — hayqirdi Jo buva.

— Xuddi shunday, — tasdiqlashdi qolganlar.

Jo buva gapini davom ettirarkan, Charli bironta so‘zni angolmay qolmasligi uchun shoshmasdan gapirardi:

— Janob Villi Vonka binafsha hidi keladigan zefir, har o‘n soniyada rangini o‘zgartiradigan ajoyib karamellar, yana og‘izda eriydigan mitti konfetlar tayyorlaydi. U hech qachon mazasini yo‘qotmaydigan saqich, katta qilib shishirib, keyin to‘g‘nag‘ich tiqib yesa bo‘ladigan shakarli pufakchalar tayyorlashni biladi. Lekin janob Vonkaning asosiy ixtirosi — ajoyib, mayda moviy xolli qush tuxumchalari.

Bunday tuxumni og‘zingga solsang, u borgan sari kichrayib-kichrayib, oxirida erib ketib, tilning uchida esa mayda pushtirang qushcha rasmi qoladi. — Buva jim qolib, labini yaladi. — Bularni o‘ylashim bilan og‘zimning suvi keladi, — deb qo‘shib qo‘ydi u.

— Meniyam, — tan oldi kichkintoy Charli. — Iltimos, davomini aytинг.

Ular gaplashayotganda, xonaga sekingina janob Baket va Baket xonim kirishdi va eshik oldida turib, buvaning gaplarini eshita boshlashdi.

— Charliga telba hind shahzodasi haqida aytib ber, — iltimos qildi Jozefina buvi, — bu hikoya unga ma’qul kelsa kerak.



- Shahzoda Pondisherini nazarda tutyapsanmi? – kulib yubordi Jo buva.
- G‘irt tentak shahzoda, – qistirdi Jorj buva.
- Lekin juda boy, – aniqlik kiritdi Jorjina buvi.
- U nima qilgan? – so‘radi Charli sabrsizlanib.
- Eshit, – dedi Jo buva. – Hozir aytib beraman.

3. Janob Vonka va hind shahzodasi

– Shahzoda Pondisheri janob Villi Vonkaga xat yozgan, – deb boshladi Jo buva hikoyasini. – U Villi Vonkaga Hindistonga kelishni va uning uchun ulkan shokolad saroyi qurishni taklif qilgan.

- Janob Villi Vonka rozi bo‘lganmi?
- Albatta. O‘h, qanday saroy edi u! Yuzta xona – hammasi oq va qora shokoladdan. G‘ishtlar ham shokoladdan, ularni yopishtirib turgan sement ham shokoladdan, deraza, devor, shiftlar ham shokoladdan, hatto gilam, surat, mebellar ham. Vannaxonadagi krandan suv o‘rniga qaynoq shokolad quyilardi. Ish tugagach, janob Villi Vonka shahzoda Pondisherini saroy uzoq turmasligi haqida ogohlantirib, uni tezroq yeyishni maslahat bergen. «Bo‘lmagan gap! – xitob qilgan shahzoda. – Men o‘z saroyimni yeymanmi! Zinaning hatto kichkinagina bo‘lagini ham tishlamayman, devorni bir martayam yalamayman! Axir men unda yashayman!» Lekin Villi Vonka haq edi, albatta. Ko‘p o‘tmay kun juda isib ketib, saroy erib, cho‘kishni va oz-ozdan yerga oqib tushishni boshlagan edi. Bu paytda mehmonxonada mudrab yotgan telba shahzoda uyg‘onib, katta yopishqoq shokolad ko‘l magida suzayotganini ko‘rib qolgan.

Kichkintoy Charli karavot chetida qimirlamay o‘tirar, buvasidan ko‘z uzmay, dong qotib qolgandi.



- Shularning hammasi rostmi? Yoki ustimdan kulyapsizmi?
 - Mutlaqo rost! – jo‘r ovozda qichqirishdi to‘rtovlon.
 - Albatta, rost! Istagan odamingdan so‘ra.
 - Senga yana bir narsani aytib beraman, – dedi Jo buva. – Bu ham rost. – U Charliga yaqinroq surilib, pichirladi: – Hech kim... hech qachon... u yerdan... chiqmaydi!
 - Qayerdan? – tushunmadi Charli.
 - Hech kim... hech qachon... u yerga... kirmaydi!
 - Qayerga? – so‘radi Charli.
 - Janob Vonkaning fabrikasiga-da!
 - Kim haqida gapiryapsiz, buva?
 - Ishchilar haqida gapiryapman, Charli.
 - Ishchilar haqida?
 - Hamma fabrikalarning o‘z ishchilari bo‘ladi, – tushuntirdi Jo buva. – Ertalablari ular fabrikaga darvozadan kirib, kechqurun chiqishadi. Janob Vonkaning fabrikasidan boshqa hamma joyda shunday. Sen biron marta u yerga biror kishi kirganini yoki u yerdan chiqqanini ko‘rganmisan?
- Charli buvilari va buvilariga, ular esa unga diqqat bilan qarab turishdi. Ularning yuzlari ochiq, tabassumli, biroq shu bilan birga juda jiddiy edi.
- Xo‘s, ko‘rganmisan? – takrorladi Jo buva.
 - Men... men, to‘g‘risi, bilmayman, buva, – Charli hayajondan tutila boshladи. – Lekin fabrika yonidan o‘tganimda darvozalar har doim yopiq bo‘ladi.
 - Xuddi shunday!
 - Lekin u yerda qandaydir odamlar ishlashi kerak-ku...
 - Odamlar emas, Charli, harqalay, oddiy odamlar emas.
 - Unda kim? – qichqirib yubordi Charli.
 - Ha, hamma sir mana shunda-da. Bu Janob Villi Vonkaning yana bir siri.



- Charli, azizim, – o‘g‘lini chaqirdi Baket xonim, – uxlaydigan payting bo‘ldi, bugunga yetar.
- Lekin, oyi, axir men bilib olishim kerak...
- Ertaga, azizim, ertaga...
- Mayli, – dedi Jo buva, – qolganini ertaga bilib olasan.

4. G‘aroyib ishchilar

Ertasi kuni kechqurun Jo buva hikoyasini davom ettirdi.

- Bilasanmi, Charli, – deb boshladi u, – janob Vonkaning fabrikasida yaqindagina minglab odam ishlardi. Bir kuni nima bo‘ldi-yu, sira kutilmaganda janob Villi Vonka ularni bo‘shatib, tarqatib yuborishga majbur bo‘ldi.
- Nimaga? – so‘radi Charli.
- Ayg‘oqchilar tufayli.
- Ayg‘oqchilar?
- Ha. Boshqa shokolad fabrika egalari janob Vonkaga hasad qilib, uning qandolatchilik sirlarini o‘g‘irlash maqsadida fabrikaga ayg‘oqchilarni jo‘nata boshlashdi. Ayg‘oqchilar o‘zini oddiy ishchidek ko‘rsatib, Vonkaning fabrikasiga ishga joylashishardi. Ularning har biri bironta shirinlikning tayyorlanish sirini o‘g‘irlab o‘rganib olar edi.
- Keyin ular avvalgi egalari yoniga qaytib, hammasini ularga aytib berisharmidi? – so‘radi Charli.
- Ehtimol, – dedi Jo buva. – Chunki ko‘p o‘tmay Fikl-gruberning fabrikasi hatto eng jazirama kunda ham erimaydigan muzqaymoq, janob Prodnozning fabrikasi esa – qancha chaynasa ham, hech qachon ta’mini yo‘qotmaydigan saqich chiqara boshladi. Va nihoyat, janob Slugvortning fabrikasi katta qilib shishirib, keyin yutvorsa bo‘ladigan shakarli pufakchalar chiqara boshladi. Janob Villi Vonka esa sochini yulib, «Bu dahshat! Axir men xonavayron bo‘laman-ku!



Hamma yoqda ayg‘oqchilar! Fabrikani yopishimga to‘g‘ri keladi!» – deb baqirdi.

– Lekin u uni yopgani yo‘q-ku! – dedi Charli.

– Yopganda-chi. U hamma ishchilarga ming afsuslar bilan ularni ishdan bo‘shatishga majburligini aytgan. Keyin fabrika darvozalarini qattiq berkitib, ularga qulf solgan. O’shandan so‘ng mahobatli shokolad fabrikasi birdaniga bo‘shab, quvurlardan tutun chiqmay, mashinalar g‘uvillashi eshitilmay qo‘ygan, bironta ham shokolad ishlab chiqarilmagan, janob Villi Vonkaning o‘zi esa g‘oyib bo‘lgan. Oylar o‘tdi, – deb davom etdi Jo buva, – lekin fabrika qulflog‘-ligicha turavergan. Hamma: «Bechora janob Vonka. U biram yaxshi odam edi, shunday ajoyib shirinliklar tayyorlardi. Endi esa hammasi tugadi», derdi. Ammo kunlardan bir kung‘arojib bir voqeа sodir bo‘ldi. Bir kuni erta tongda fabrikaning baland quvurlaridan quyuq oq tutun chiqaboshladи. Shaharning butun aholisi ishini tashlab, nima bo‘lganini ko‘rishga yugurdi. «Nima bo‘lyapti? – deb qichqirishardi odamlar. – Kimdir pechlarni yoqibdimi! Janob Villi Vonka fabrikasi yana ochilyaptimi!»

Odamlar fabrika ochilganini ko‘rish umidida darvoza tomonga chopishar, janob Vonka ularni yana ishga oladi, deb umid qiliishardi. Lekin temir darvozalar avvalgidek mahkam qulflangan, janob Villi Vonka esa hech qayerda yo‘q edi.

«Fabrika ishlayapti-ku! – deb qichqirishardi odamlar. – Yaxshilab qulqoq solinglar, mashinalarning gumburlashini eshitasizlar! Ular yana ishlayapti! Yana shokolad hidi kelyapti!»

Jo buva oldinga egilib, oriq qo‘lini Charlining tizzasiga qo‘ydi-da, sekin gapirdi:

– Lekin eng sirlisi, kichkintoy, fabrika oynalari ortida odamlar emas, sharpalar edi. Odamlar ko‘chadan muzlab



qolgan oynalar ortida kichkina qora sharpalar lip-lip o‘tayot-ganini ko‘rishardi.

- Kimning sharpalari? — so‘radi Charli hovliqib.
- Hamma aynan shuni bilishni istardi-da. «Fabrikada ishchilar juda ko‘pga o‘xshaydi! — qichqirishardi odamlar. — Lekin u yerga hech kim kirmagan! Darvozalar qulflog‘-ku! Aql bovar qilmaydi! U yerdan hech kim chiqmayapti ham!» Fabrika esa, shubhasiz, ishlayotgandi, — deb davom etdi Jo buva. — O‘sandan buyon, mana, o‘n yildirki fabrika hamon ishlamoqda. Buning ustiga, u chiqarayotgan shokolad va konfetlar kunsayin shirinroq va sifatliroq bo‘lib boryapti. Va, albatta, endi, janob Vonka biron yangi g‘aroyib shirinlikni o‘ylab topgach, janob Fiklburger ham, janob Prodnouz ham, janob Slugvort ham, boshqa birov ham ularni tayyorlash usulini bilolmaydi. Sirli tayyorlash usulini o‘g‘irlash uchun biror o‘g‘ri fabrikaga kirolmaydi ham.
- Lekin, buva, fabrikada kimlar ishlayapti? — hayratmuz qichqirib yubordi Charli.
- Buni hech kim bilmaydi, Charli.
- Bu axir axmoqlik-ku! Nahotki shu paytgacha hech kim janob Vonkaning o‘zidan so‘ramagan?
- O‘sandan beri uni hech kim ko‘rmagan-da. U fabrikadan tashqarida ortiq ko‘rinmaydi. Darvozadan chiqadigan birgina narsa — bu shokolad va boshqa shirinliklardir. Ularni devordagi maxsus eshikdan ortishadi. Ular buyurtmachilarning manzillari yozilgan bo‘lib, qadoqlangan qutilarda ularni pochta xizmatidagi yuk mashinalari tashiydi.
- Lekin, buvajon, u yerda hech bo‘lmasa kimdir ishlaydi-ku?
- Bolaginam, — dedi Jo buva, — bu eng katta sirlardan biri. Bizga faqatgina o‘sha odamlarning bo‘yi pastligi ma’lum. Fabrika oynalari ortida ba’zida ko‘rinib qoladigan sezilar-



sezilmas sharpalar (ular ayniqsa tunda, chiroq yonganda yaxshiroq ko‘rinadi) bo‘yi tizzamdan keladigan kichkina odamlarniki...

— Ammo bunday odamlar bo‘lmaydi, — e’tiroz bildirdi Charli.

Xuddi shu paytda xonaga Charlining otasi janob Baket kirdi. U endigina ishdan qaytgandi. Qo‘lida kechki gazeta bo‘lib, uni asabiy silkitardi.

— Yangilikni eshitdinglarmi? — qichqirdi u va gazetadagi katta qilib yozilgan sarlavhani hamma ko‘radigan qilib ko‘rsatdi:

VA NIHOYAT VONKANING FABRIKASI OMADI KELGANLAR UCHUN O‘Z DARVOZALARINI OCHADI!

5. Oltin chiptalar

— Endi fabrikaga kirishga imkoniyat bo‘ladi demoq-chimisan? — hayqirdi Jo buva. — Gazetada nima yozilganini tezroq o‘qi!

— Xo‘p, — dedi janob Baket gazetani ochib. — Eshitinglar:

«KECHKI BYULLETEN»

10 yildan beri hech kim ko‘rmagan qandolat dahosi Janob Villi Vonka bugun bizning gazetaga quyidagi e’lonni jo‘natdi:

«Men, Villi Vonka, besh nafar bolaga (unutmang: faqat besh nafar bolaga, undan ko‘piga emas) bu yil fabrikamga kirishga ruxsat berishga qaror qildim. O‘sha omadi kulganlar mening hamma sir va mo‘jizalarimdan xabardor bo‘lishadi. Sayohat oxirida esa har bir tashrifchi maxsus sovg‘a — butun umrga yetadigan shokolad va shirinliklar egasi bo‘ladi!»



Demak, oltin chiptalarni qidiring! Beshta oltin chipta allaqachon oltin qog'ozda bosilib, beshta oddiy shokolad plitkasi qog'ozi ostiga berkitilgan.

Bu plitkalar istalgan joyda: Vonka shokoladi sotiladigan har qaysi do'konda, har qaysi ko'chada, har qaysi shaharda, har qaysi mamlakatda, dunyoning har qaysi burchagida, har qaysi peshtaxtada bo'lishi mumkin. Fabrikamga kirib, ichidagini ko'rish faqat o'sha omadi kulgan besh nafar oltin chipta egasiga nasib qiladi! Hammangizga omadli chipta sohibi bo'lishni tilayman! (Imzo – Villi Vonka.)

– Bu odam telba bo'lib qolgan shekilli! – to'ng'illadi Jozefina buvi.

– Yoq, u daho! – xitob qildi Jo buva. – U haqiqiy sehrgar! Endi nima bo'lishini bir tasavvur qiling-a! Butun dunyo oltin chiptalarni qidirishni boshlaydimi! Hamma chipta topish umidida Vonka shokoladlarini sotib oladi! U har doimgidan ko'proq shokolad sotadi! Eh, o'sha chiptani biz topganimizda edi!

– Butun umrga yetadigan shokolad va konfetlar ham nasib qilardi – TEKINGA! – qistirdi Jorj buva. – Bir tasavvur qiling-a!

– Bularning hammasi bir yuk mashinasiga sig'sa kerak, – dedi Jorjina buvi.

– Bu haqda o'ylashning o'zidanoq boshim aylanyapti, – pichirladi Jozefina buvi.

– Hechqisi yo'q! – xitob qildi Jo buva. – Charli, shokoladni ochsang-u, ichidan oltin chipta chiqsa, ajoyib bo'lardi-a!

– Albatta, buvajon, lekin bunga imkon juda kam, – dedi Charli ma'yus tortib. – Axir menga bir yilda bittagina plitka nasib qiladi.

– Kim bilsin, azizim, – e'tiroz bildirdi Jorjina buvi, – keyingi haftada tug'ilgan kuning. Boshqalarda qanday bo'lsa, senda ham shunday imkon bor.



- Buning sira iloji yo‘q deb qo‘rqaman, — dedi Jorj buva.
- Chiptalar har kuni shokolad yeydigan bolalarga nasib qiladi, bizning Charli esa bir yilda atigi bittagina plitka oladi. Unda hecham imkon yo‘q.

6. Omadi kulgan ilk ikki nafar bola

Ertasi kuniyoq birinchi oltin chipta topildi. Uning egasi Avgust Nodon bo‘ldi, kechki gazetaning birinchi sahifasida bolaning surati bosildi. Suratda shunaqangi semiz bola tas-virlangandiki, uni kattakon nasos bilan shishirishganga o‘xshardi.

Uning hamma yeri yog‘dan osilib qolgan, yuzi esa xamirdan yasalgan ulkan sharni eslatardi. Shu shardan kichkinagini munchoq ko‘zlar boqardi. Gazetalar Avgust Nodon yashaydigan shahar o‘z qahramonini qutlab, butunlay aqldan ozgani haqida bong urardi.

Hamma derazalarga bayroqlar osib tashlangan, shu kuni bolalar maktabga borishmagan, hattoki mashhur bola sharafiga bayram tantanalari uyuushtirilgan edi.

«Avgustning oltin chiptani topishiga ishonchim komil edi, — debdi onasi muxbirlarga. — U bir kunda shunchalik ko‘p shokolad yerdiki, uning chiptani topmasligi aslo mumkin emasdi. Ovqat — uning xobbisi. Bundan boshqa hech nimaga qiziqmaydi. Lekin bu bo‘s sh vaqtida bezorilik qilib, cho‘zman dan tosh otish, boshqa xunuk ishlar qilishdan yaxshiroq, albatta. Gapim to‘g‘rimi? Men har doim «Agar organizm kuchli ovqatlarga ehtiyoj sezmasa, Avgust bunchalik ko‘p narsa yemasdi», deb aytaman. Unga vitaminlar kerak. Janob Vonkaning g‘aroyib fabrikasiga tashrif buyurish uning uchun katta xursandchilik bo‘ladi. Biz o‘g‘limiz bilan faxrlanamiz!»

- Qanday jirkanch ayol, — dedi Jozefina buvi.
- Bola ham yoqimsiz, — qistirdi Jorjina buvi.



— Endi faqat to‘rtta chipta qoldi, — ma'yus xo‘rsindi Jorj buva. — Qiziq, ular kimlarga nasib qilarkin.

Butun mamlakat, aniqrog‘i, butun dunyo bema’ni chipta poygasiga berilganga o‘xshardi. Odamlar aqldan ozishgan edi. Kap-katta ayollar janob Vonkaning qandolatxonalariga yugurib kelib, birdaniga o‘ntalab shokolad sotib olishar, yaltiroq oltin chiptani topish umidida qog‘ozlarini yirtib, sabrsizlik bilan ichini ko‘rishardi. Bolalar g‘aladonlarini sindirib, cho‘ntaklarini mayda pulga to‘ldirib, do‘konlarga yugurishardi.

Bir shaharda mashhur bir jinoyatchi bankdan bir ming funt sterling o‘g‘irlab, o‘sha kuniyoq hamma pulini janob Vonkaning shokoladiga sarfladi. Politsiya o‘g‘rini hibsga olish uchun yetib kelganda, u polda — shokolad tog“i orasida, o‘rovlarni ochib o‘tirardi.

Olis Rossiyada Sharlotta Russ ismli ayol ikkinchi oltin chiptani topganini e’lon qildi. Lekin bu ham ayyorona nayrang ekan.

Mashhur ingliz olimi professor Faulbodi shokoladni ochmasdan turib, o‘rov ichida oltin chipta bor-yo‘qligini aniqlaydigan mashinan ni ixtiro qildi. Mashinaning mexanik qo‘li bo‘lib, oltin zarrasi bo‘lgan hamma narsani yulqib olardi, ma’lum muddatga muammo hal bo‘lgandek bo‘ldi.

Lekin, afsuski, professor katta do‘konning qandolat bo‘limida uni namoyish qilganda, mexanik qo‘l yaqinda turgan gertsoginyaning og‘zidan oltin plombani sug‘urib olishga urindi. Bu manzara shunchalik xunuk ediki, olomon mashinan ni sindirib tashladi.

Charli Baketning tug“ilgan kuni arafasida gazetalarda kutilmaganda oltin chiptaning ikkinchi egasi topilgani e’lon qilindi. Uning omadi kulgan sohibasi janob Villi Vonkaning fabrikasidan juda uzoqda joylashgan katta shaharda badavlat ota-onas farzandi Veruka Solt ismli qiz bo‘ldi. Janob Baket



olib kelgan kechki gazeta Veruka Soltning kattakon suratini bosibdi. Qiz mehmonxonada baxtiyor ota-onasi o‘rtasida o‘tirar va og‘zi qulog‘iga yetgudek iljayib, boshi uzra oltin chiptani silkitardi.

Verukaning otasi, janob Solt muxbirlarga chipta qanday topilganini batafsil tushuntirdi. «Bilasizlarmi, yigitlar, — dedi u, — qizcham shu chiptalardan birini topishi shartligini aytgandan keyin men shaharga borib, janob Vonkaning qo‘limga tushgan hamma shokoladlarini sotib olishni boshladim. Minglab, yuz minglab plitka sotib olgan bo‘lsam kerak. Keyin shokoladni yuk mashinalariga ortib, mening fabrikamga jo‘natishni buyurdim. Fabrikamda yeryong‘oqlardan har xil narsalar yasaladi, u yerda yuzga yaqin ayol ishlaydi, ular yong‘oqlarni tuzlab, qovurishdan oldin po‘stlog‘idan tozalashadi. O‘sha ayollarga: «Xo‘s, qizlar, shu daqiqadan boshlab yong‘oq po‘stlog‘ini tozalashni to‘xtatib, shokoladlarning o‘rovlarini olasizlar», dedim. Ular ishga kirishishdi. Shu kundan boshlab fabrikamdag‘i har bir ishchi ertalabdan kechgacha faqat shu ish bilan shug‘ullanardi. Uch kun o‘tdi, lekin hech qanday natija yo‘q edi. O‘! Bu dahshat edi! Qizcham kunsayin xafa bo‘lib, har gal uyga kelganimda: «Qani mening oltin chiptam? Oltin chiptani topib beringlar!» deb qichqirardi. Chipta yo‘qligini eshitib soatlab polda yotib olar, oyoqlarini tapillatib, chinqirardi. Men bechora qizchaning qiynalishiga ortiq chidolmay nima bo‘lsa ham uning so‘ragan narsasini topib berishga qasam ichdim. Kutilmaganda... to‘rtinchchi kuni kechqurun ishchilarimdan biri: «Topdim! Oltin chipta!» deb qichqirib yubordi. «Tez bu yoqqa ber», — deb chiptani oldim-da, uyga chopdim. Uni Verukaga berdim. Endi mening qizcham xursand, biz yana baxtlimiz».

— Bu qiz anavi semiz boladan ham o‘tib tushibdi-ku, — dedi Jozefina buvi.



- Uni bir yaxshilab savalash kerak edi, — qo'shimcha qildi Jorjina buvi.
- Menimcha, qizchaning dadasi haqqoniy yo'l tutmagan, to'g'rimi, buva? — dedi Charli.
- Dadasining o'zi uni buzyapti, — deb javob berdi Jo buva. — Bu yaxshilikka olib bormaydi, Charli, shu gapimni eslab qol.
- Endi uxlayqol, azizim, — qo'shildi missis Bakket, — esingdan chiqmasin-a, ertaga tug'ilgan kuning. Sovg'an i ko'rish uchun ertaroq turib olsang kerak?
- Vonka shokoladi! — sevinganidan qichqirib yubordi Charli. — Vonka shokoladi!
- Ha, ha, kichkintoy, ha!
- Undan uchinchi oltin chipta chiqsa zo'r bo'lardi-da! — xitob qildi Charli.
- Shokoladni olganingda uni ochishdan avval bu yoqqa olib kel, — iltimos qildi Jo buva, — buni ko'rish bizga ham qiziq.

7. Charlining tug'ilgan kuni

— Tug'ilgan kuning bilan! — jo'rovozda qichqirishdi buvilar va buvalar ertasi kuni ertalab Charli ularning xonalariiga kirganda.

Charli hayratomuz jilmayib, karavot chetiga o'tirdi. U qo'lida bittagina sovg'asini avaylab ushlab turardi. O'rovga «Vonka hayrati» mo'jizaviy shokoladi» deb yozilgandi.

To'rtta qariya yostiqlaridan ko'tarilib, shokoladga hayajon bilan tikilishardi. Janob Baket bilan Baket xonim xonaga kirib, karavot yoniga turgancha unga tikilib qolishgandi.

Jimlik cho'kdi. Hamma Charlining shokoladni ochishini kutardi. Charli plitkaga qaradi, keyin asta, mehr bilan siladi — jimlikda qog'oz o'rovi shitirlab ketdi.



— Izlaganiningni topolmasang, ko‘pam xafa bo‘lma, — dedi Baket xonim muloyimlik bilan. — Bunday omaddan umid qilish qiyin.

— Onang haq gapiryapti, — dedi janob Baket.

Charli hech nima demadi.

— Axir, — dedi Jozefina buvi, — dunyo bo‘yicha, atigi uchta chipta qoldi.

— Nima bo‘lganda ham, senda shokolad plitkasi borligini unutma, — maslahat berdi Jorjina buvi.

— «Hayrat» shokoladi, — xitob qildi Jorj buva, — janob Vonkaning eng yaxshi shokoladi! U senga yoqadi, degan umiddaman.

— Ha, albatta — pichirladi Charli.

— O‘sha oltin chiptalar haqida o‘ylamaslikka harakat qilib, shokoladdan lazzatlan. Nimaga ochmayapsan? — so‘radi Jo buva.

Baxtli chipta shu kichkinagina plitka qog‘ozi ichidan chiqishiga umid qilish kulgili ekanligini hamma kattalar yaxshi tushunishar, iloji boricha Charlini kutilayotgan muvaffaqiyatsizlikka tayyorlashga urinishardi. Lekin kattalar yana bir narsani — imkoniyat, kichkinagina bo‘lsa ham, imkoniyat borligini tushunishardi. Bu imkoniyat qog‘oz tagida yashiringandi. Shuning uchun buvilar, buvalar va ota-onalari hayajoni, garchi ular o‘zlarini mutlaqo xotirjam ko‘rsatishga urinishsa ham, Charlinikidan kam emasdi.

— Bo‘laqol, ochaqol, — deb maslahat berdi Jo buva, — bo‘lmasa, mактабга kech qolasan.

— Nimaga cho‘zasan! — dedi Jorj buva.

— Tezroq ochaqol, azizim, — iltimos qildi Jorjina buvi. — Hayojondan yuragim gupillab urib ketyapti.

Charli qog‘ozning bir chekkasidan ohista yirta boshladи. Chollar turnalarnikidek ozg‘in bo‘yinlarini cho‘zib, oldinga egilishdi.



Kutilmaganda Charli mavhumlikka ortiq chidolmay qog‘ozni o‘rtasidan tez yirtdi... va undan... och jigarrang shokolad plitkasi tushdi. Oltin chiptadan asar ham yo‘q edi.

— Va nihoyat! — xursand bo‘lib xitob qildi Jo buva. — Aynan biz kutgan narsa.

Charli boshini ko‘tardi. Keksalarning to‘rt juft mehrli ko‘zi unga diqqat bilan qarab turardi. Charli g‘amgin jilmaydi, keyin shokoladni olib, onasiga uzatdi-da:

— Bir bo‘lagini tatib ko‘ring, — dedi. — Keling hammaga bo‘lamiz. Hamma tatib ko‘rishini xohlayman.

— Yo‘q, yo‘q! — e’tiroz bildirdi onasi.

Qolganlar ham bir ovozdan baqirib yuborishdi:

— Yo‘q, yo‘q! Aslo! Buning hammasi seniki!

— Iltimos, — yalina boshladi Charli shokoladni Jo buvasiga uzatib. Lekin shokoladdan hatto tatib ham ko‘rmadi.

— Endi mактабга boradigan payt bo‘ldi, kichkintoy, — eslatdi Baket xonim o‘g‘lining ozg‘in yelkalaridan quchoqlab.

— Bo‘laqol, bo‘lmasa, kech qolasan.

8. Yana ikkita oltin chipta sohibi topildi

O‘sha kuni oqshomda gazetalar nafaqat uchinchi, balki to‘rtinchi oltin chipta sohibi ham topilganini xabar qilishdi.

BUGUN IKKITA OLTIN CHIPTA SOHIBI TOPILDI! — ENDI FAQAT BITTASI QOLDI: deb qichqirardi sarlavhalar.

— Xo‘sh, — dedi Jo buva kechki ovqatdan so‘ng butun oila qariyalarining xonasiga yig‘ilganda, — ularni kim topganini ko‘raylik-chi.

— Uchinchi chipta, — gazetani ko‘ziga juda yaqin olib kelib o‘qiy boshladi janob Baket. Uning ko‘zlari yaxshi ko‘rmas, ko‘zoynak olishga esa puli yo‘q edi. — Uchinchi chipta miss Violetta Byurgardga chiqdi.



Muxbirimiz omadi kelgan yosh xonimdan intervyu olish uchun borganda, Byurgardlar uyida anchagina besaranjomlik hukm surardi – kameralar shiqillar, fotovspishkalar milt-milt qilar, hamma «mashhur» qizga yaqinroq bo‘lishga urinib turtinardi. «Mashhur» qiz esa mehmonxonadagi stulda turib, taksi to‘xtatmoqchidek, oltin chiptasini silkitardi. U juda tez va baland ovozda nimalarnidir gapirar, lekin uning nima deyotganini ilg‘ash qiyin, chunki yosh xonim shu paytda zo‘r berib saqich chaynardi.

«Men har doim tinmay saqich chaynayman! – qichqirardi u zavq bilan. – Lekin janob Vonkaning oltin chiptalar bilan bog‘liq g‘oyasini eshitganidan keyin saqichni tashlab, omadim keladi, degan umidda shokolad yenishga o‘tdim. Tabiiyki, keyin yana saqich chaynashga o‘tdim. Men saqichni juda yaxshi ko‘raman, usiz yasholmayman desam ham bo‘ladi. Kunbo‘yi chaynab, faqat uch mahal ovqatlanganimda tanaffus qilaman. O‘sanda ham saqichni og‘zimdan chiqarib, qulog‘imning orqasiga yopishtirib qo‘yaman. Shunda u yo‘qolib qolmaydi. Ochig‘ini aytsam, mana shu kichkina bo‘lakcha og‘zimda bo‘lmasa, men o‘zimni noqulay sezaman. Oyim saqich chaynash xunuk ko‘rinadi, bu haqiqiy xonimlarga yarashmaydi, deydilar, jag‘larim tinmay qimirlashiga toqat qilolmaydilar. Lekin men ularning fikrlariga qo‘shilmayman, umuman, ular kim bo‘ptilarki, meni tanqid qiladilar! Agar bilsangiz, ularning jag‘lari menikidan ko‘proq qimirlaydi, chunki ular doim menga baqiradilar».

– Violetta, bas endi! – hayqirdi olomon yanchib tashlashidan xavotirlanib, pianinoga chiqib olgan Byurgard xonim xonaning narigi burchagidan.

– Tinchlaning ona, hammasi joyida! – javob berdi qiz. – Hozir esa yana bir yangilik, – deb davom etdi u, – manavi og‘zimdagи saqichni men uch oydan beri chaynayotganimni bilish sizlarga qiziq bo‘lsa kerak. Bu rekord mening eng



yaqin dugonam Korneliya Prinzmetl qo‘ygan rekorddan biroz oshib ketgan. Buni bilgan dugonamning tepa sochi tikka bo‘lgan. Shuning uchun ham endi bu saqich – mening eng qimmatli boyligim. Kechasi uni karavotim chetiga yopishtirib qo‘ysam, ertalab u xuddi yangidek bo‘ladi, to‘g‘ri, avvaliga u biroz qattiqroq bo‘lib turadi, lekin ozgina chaynagandan keyin u yana yumshaydi. Jahon rekordini o‘rnatish uchun chaynashimdan avval, odatda, kunda bir marta saqichni almashtirardim, bu ishni mакtabdan qaytayotganimda, liftda qillardim. Nima uchun liftda deysizmi? Chunki menga saqichni lift tugmasiga yopishtirib qo‘yish yoqardi. Shunda eski saqichim mendan keyin liftga kirib, tugmani bosadigan odamning barmog‘iga yopishib qolardi. Xa-xa! Ular rosa shovqin solishardi! Ayniqsa, qimmatbaho qo‘lqop kiygan ayollar! Voy, aytgancha! Janob Vonkaning fabrikasiga borishim zo‘r bo‘ldi-da! Ishonamanki u menga umrimning oxirigacha yetadigan saqich beradi. Gip-gip! Ura!»

- Yoqimsiz qiz ekan, – dedi Jozefina buvi.
- Jirkanch! – qistirdi Jorjina buvi. – Mana ko‘rasiz, bu qiz shu saqich tufayli albatta biron-bir xunuk voqeaga aralashib qoladi, agar allaqachon aralashib qolmagan bo‘lsa.
- Dada, to‘rtinchi oltin chiptani kim topibdi? – so‘radi Charli.
- Hozir ko‘ramiz, – dedi janob Baket yana gazetaga qarab. – Xo‘sش, mana, topdim. «To‘rtinchi oltin chiptani, – deb o‘qidi u, – Mayk Tivi ismli bola topdi».
- Garov o‘ynayman-ки, yana bitta badaxloq bola, – ming‘illadi Jozefina buvi.
- Gapni bo‘lmay turing, oyi, iltimos, – xitob qildi Baket xonim.
- Muxbirimiz Tivining uyiga borganda, – o‘qishni davom ettirdi janob Baket, – u yerda, oltin chipta topilgan boshqa joylardagidek, ko‘plab qiziquvchan odamlar yig‘ilgandi. Biroq



omadi kulgan bola bo‘layotgan voqealardan juda noroziga o‘xshardi. «Hoy, ahmoqlar, nahotki mening televizor tomosha qilayotganimni ko‘rmayapsizlar? – baqirdi u achchiqlanib. – Menga xalal bermanglar!»

Oltin chiptaning to‘qqiz yoshli egasi kattakon televizor qarshisida o‘tirar va bir daqiqaga ham ekrandan ko‘zini uzmay, bir to‘da jinoyatchilar pulemyotlardan boshqa jinoyatchilar to‘dasini o‘qqa tutayotgani haqidagi filmni tomosha qilardi. Mayk Tivining o‘zi esa kamida yigirmataga yaqin har xil kalibrli o‘yinchoq to‘pponchalarni osib olgandi. Orachora stuldan sakrab turib, o‘q uzib qo‘yardi.

«Jim! – baqirib yubordi u muxbirlardan biri undan intervyu olmoqchi bo‘lganda. – Xalal bermanglar, dedim! Axir bu haqiqiy jangari film-ku! Men bunday filmlarni har kuni ko‘raman! Hammasidan ham jinoyatchilar haqidagi filmlarni yoqtiraman. Ular juda qiziq, ayniqsa, jinoyatchilar, to‘pponchadan o‘q yog‘dirib, bir-birini tayoq bilan kaltaklashni boshlaganlarida! Jin ursin, ularning o‘rnida bo‘lish uchun hamma narsamni bergen bo‘lardim. Mana buni haqiqiy hayot desa bo‘ladi! Men ulg‘ayganimda xuddi ana shular kabi bosqinch bo‘lamан.

– Bas! – gapni kesdi Jozefina buvi. – Men buni boshqa eshitolmayman!

– Men ham, – unga qo‘sildi Jorjina buvi. – Nahotki hozirgi hamma bolalar mana shu bolalarga o‘xshagan bo‘lsa?

– Yo‘q, albatta, – jilmaydi janob Baket. – Ko‘pincha bunday bolalar ham uchrab turadi, lekin hamma ham unday emas.

– Endi faqat bitta chipta qoldi, – xo‘rsindi Jo buva.

– Ha, – to‘ng‘illadi Jozefina buvi. – U yana bunga munosib bo‘lmagan biror jirkanch va beadab bolaga nasib qilsa kerak. Bu narsa ertaga kechki ovqatga karam sho‘rva ichishimizdek aniq.



9. Jo buva tavakkal qiladi

Ertasi kuni maktabdan kelgan Charli qariyalar xonasiga kirganda, faqat Jo buva uyg‘oq, qolgan uch qariya qattiq xurrak otib yotishar edi.

— Jim! Sekin, — pichirladi Jo buva va Charlini imlab yoniga chaqirdi.

Charli oyoq uchida karavotga yaqinlashdi. Buva ayyorona jilmayib, bir qo‘li bilan yostiq tagini paypaslab u yerdan eski charm hamyonni chiqardi. Buva qo‘lini choyshab ostiga yashirib, hamyonni ochib, ichini ag‘dardi. Undan yaltiroq tanga — olti pens tushdi.

— Bu mening maxfiy xazinam, — deb pichirladi u, — bu haqda hech kim bilmasligi kerak. Qani sen bilan yana bir marta omadimizni sinab ko‘raylik-chi. Lekin sen menga bunda yordam berishing kerak.

— Buva, pulingizni aynan shunga sarflamoqchililingizga ishonchingiz komilmi? — pichirlab so‘radi Charli.

— Albatta! — dedi Jo buva. — Men bilan bahslashma! Men ham senga o‘xshab oltin chiptani topishni orzu qilaman! Mana, pulni olib, tezroq eng yaqin do‘konga chop, janob Vonkaning birinchi uchragan shokoladini sotib olib, bu yoqqa olib kel, birgalikda ochamiz.

Charli tangani olib, xonadan yugurib chiqdi va besh daqiqadan so‘ng qaytdi.

— Oldingmi? — pichirlab so‘radi Jo buva ko‘zлari sabrsizlikdan chaqnab. Charli bosh irg‘ab, ustiga «Vonkaning qasirlaydigan yong‘oqli syurprizi» deb yozilgan shokolad plitkasini chiqardi.

— Juda soz, — deb pichirladi buva karavotga o‘tirib, qo‘llarini ishqalarkan.

— Endi bu yoqqa kelib, yaqinroq o‘tir, shokoladni ochamiz. Tayyormisan?



- Ha, — dedi Charli, — tayyorman!
- Juda soz! Boshla!
- Yo‘q, — e’tiroz bildirdi Charli, — pulini siz to‘ladin-gizmi, o‘zingiz boshlang.

Buva shokoladni olganda, qo‘llari titrab ketdi.

- Umid qilishga asos yo‘q, — pichirladi buva. — Axir umid qilishga asos yo‘qligini tushunasan-ku, to‘g‘rimi?

— Ha, — dedi Charli, — tushunaman.

Ular bir-birlariga qarab, asabiy kulimsirab qo‘yishdi.

- Aynan o‘sha shokolad ekanligiga umid juda kamligini unutma, — takrorladi Jo buva.

— Tushunyapsanmi?

- Tushunyapman, — tasdiqladi Charli. — Nega boshla-mayapsiz, buva?

— Hamma narsaning o‘z vaqtি bor, bolam, hamma nar-saning. Seningcha, qaysi tarafidan boshlagan afzal?

— Anavi, uzoqrog‘idan. Qog‘ozning bir chetini yirting, faqat hech nima ko‘rinmasin.

— Shundaymi? — deb so‘radi buva.

— Shunday, yana ozgina.

— Endi sen yirt, men judayam hayajonlanyapman.

— Yo‘q, buva, bu ishni o‘zingiz qiling.

— Xo‘p mayli, davom etamiz. — U qog‘ozning hammasini yirtdi. Ikkoylari ichidagi narsaga tikilib qolishdi. U yerda shokoladdan boshqa hech nima yo‘q edi.

Shunda buva bilan nabira chetdan bu qanchalik kulgili ko‘rinishini tasavvur qilib, kulib yuborishdi. Ularning kulgilaridan Jozefina buvi uyg‘onib ketdi.

— Nima bo‘lyapti? — deb so‘radi u.

— Hech nima, uxlayver, — xotirjam qildi uni Jo buva.



10. Baketlar oilasi och qolish xavfi ostida

Keyingi ikki hafta kutilmagan qattiq sovuq bo‘lib, avval qor yog‘di. Ertalab, Charli maktabga ketish oldidan deraza oldida turib, qo‘rg‘oshin singari kulrang osmondan katta qor parchalari yerga ohista va bir tekis tushayotganini tomosha qildi.

Kechga borib uyning atrofini to‘rt futli qor tepaliklari qopladi, janob Baket ko‘chaga olib chiqadigan yo‘lakcha ochishga majbur bo‘ldi.

Qor tingandan keyin ancha kungacha sovuq shimol shamoli to‘xtamay esdi. Shunchalar sovuq edi-ki, Charli nimagaki qo‘lini tekkizmasin, hammasi muzdan yasalgandek tuyular, har gal eshik oldiga chiqqanda, shamol uning yuzlariga xuddi pichoqdek sanchilardi. Uyga hamma tir-qishlardan sovuq havo oqimi kirar, hech qayerga yashirinib bo‘lmasdi. Qariyalar karavotda, isinish ilinjida bir-birlariga yopishib, jimgina yotishardi. Oltin chiptalarni hamma allaqachon unutgan, endi butun oilani faqat ikkita muhim hayotiy muammo: isinish va yegulik topish muammosi qiyndi.

Negadir sovuq havoda odamning qorni ko‘proq ochar-kan. Biz issiqqina jarkop, qaynoqqina olmali pirog va boshqa qizdiruvchi taomlarni orzu qila boshlaymiz, o‘zimiz o‘ylagandan ancha omadliroq bo‘lganimiz uchun esa istagan narsamizning deyarli hammasiga erishish imkoniyati bor. Lekin Charli Baket oilasi bundan mustasno edi, u hech qachon o‘zi istagan narsaga erisholmas, oilaning bunga qurbi ham yetmasdi. Sovuq kuchaygan sari ochlik bolani battar qiyndi. Ikkala (tug‘ilgan kunga sovg‘a qilingan va Jo buvaning puliga sotib olingan) shokolad allaqachon yeb bo‘lingan, Charli uchun yagona taom kuniga uch mahal ichiladigan suyuq karam sho‘rva edi.



Keyingi kungacha ovqat muammosi birdan yanada og‘irlashdi. Bunga sabab janob Baket ishlayotgan fabrika egasining xonavayron bo‘lib, fabrikaning yopilishi edi. Janob Baket boshqa ish topishga qancha urinmasin, lekin hech omadi kelmasdi. Oxir-oqibat ko‘chada qor kurab, bir necha pens ishlab topishga muvaffaq bo‘ldi-yu, lekin bu pulga yetti kishidan iborat oilaga zarur taomning chorak qismini ham sotib olib bo‘lmasdi. Ahvol juda og‘irlashib borayotgandi. Nonushtaga har bir kishiga bir burdagina non, tushlikda esa qaynatilgan kartoshkaning yarmi berilardi.

Baketlar oilasi sekin-asta ochlikdan o‘lib ketish xavfi ostida qolayotgandi. Charli har kuni qor uyumlari orasidan mактабга ketayotganda, janob Villi Vonkaning kattakon shokolad fabrikasi yonidan o‘tardi. Har gal to‘xtaganda, puchuq burnini yuqoriga ko‘tarib, ajoyib shirin hidni hidlardi. Ba’zida darvoza yonida bir necha daqiqa turib, shu ajoyib hidni yeb qo‘ymoqchidek, chuqur-chuqur nafas olardi.

— Bola yaxshiroq ovqatlanishi kerak, — dedi Jo buva ayozli tonglarning birida boshini ko‘rpa tagidan chiqarib. — Bizga bu narsa unchalik muhim emas, chunki biz yoshimizni yashab, oshimizni oshab bo‘ldik. Lekin bolaning o‘sayotgan organizmi... Bu ketishda u qoq suyak bo‘lib qoladi!

— Nima deyishga ham hayronman? — hiqilladi Jozefina buvi. — U hattoki bizning hissamizni ham yeishga rozi bo‘lmayapti. Bugun ertalab onasi uning likopchasiga o‘zining burda nonini sekingina qo‘yib qo‘ysa, u nonga tegmadi ham va onasiga nonni majburlab qaytarib berdi.

— U yaxshi bola, — dedi Jo buva, — va baxtli hayot kechirishga munosib.

Ayoz tobora kuchaymoqda edi. Charli Baket kunsayin ozib borardi. Yuzi oqarib, cho‘zilib ozib ketgan, eti ustixoniga yopishhib, hamma suyaklari yaqqol ko‘rina boshlagan, ahvol



shunday davom etsa, bolaning kasal bo‘lib qolishi hech gapmas edi.

Charli juda bosiqlik, kichkina bolalar ko‘pincha qiyinchilik davrlarida namoyon qiladigan g‘aroyib donishmandlik bilan kuchini ko‘proq tejash uchun turmush tarzini astasekin o‘zgartira boshladi. Ertalab matabga sekin, yugurmasdan borish uchun uydan ertaroq chiqardi. Tanaffusda boshqa bolalar ko‘chada qor o‘ynab, qor uyumlarida kurash tushganda, u sinfda jim o‘tirardi. Endi u butunlay sillasi qurib qolmasligi uchun hamma ishni sekin va ehtiyotkorlik bilan bajarardi.

Bir kuni maktabdan qaytayotganda (sovuj shamol esar, Charlining avvalgidan ham ko‘proq ovqat yegisi kelardi), birdan qorda yaltiroq bir narsani ko‘rib qoldi. Charli uning nimaligini yaxshiroq ko‘rish uchun egildi. Yaltiroq narsa yarmigacha qorga kirib ketgandi, lekin Charli darrov payqadi: bu ellik pensli tanga edi! Bola tez yon-veriga qarab oldi. Nahotki uni kimdir hozirgina tushirib qo‘ygan bo‘lsa? Yo‘q, bunday bo‘lishi mumkin emas, axir tanganing yarmi qorga ko‘milib bo‘lgan-ku. Odamlar yo‘lkadan shoshib yurib borishar, yuzlarini yoqalari ichiga yashirishar, oyoqlari tagida esa qor g‘archillardi.

Ularning hech biri pulini qidirmas, hech kim qorni kovlab o‘tirgan bolakayga e’tibor bermasdi.

Demak, bu ellik pens uniki. Charli tangani avaylab qor tagidan chiqardi. U ho‘l va iflos bo‘lishiga qaramay, juda ajoyib bo‘lib ko‘rinar edi! Naq ELLIK PENS! Charli titrayotgan qo‘llari bilan tangani ushlab, unga tikilib qarab turardi. Hozir bu tanga uning uchun faqat bir narsa uchun kerak edi: u endi yegulik sotib oladi!

Charli beixtiyor burilib, o‘n qadam beridagi eng yaqin do‘konga qarab yo‘l oldi. Gazeta, sigareta, yozuv qog‘ozni va, albatta, konfetlar sotiladigan do‘konga. Charli bir narsani



aniq bilardi. U bitta eng yaxshi shokoladni sotib olib, shu zahoti uvog‘igacha hammasini yeb, keyin uyga borib, pulning qolganini onasiga beradi.

11. Mo‘jiza

Charli do‘konga kirib, ho‘l tangani peshtaxtaga qo‘ydi:

— Bitta «Vonka hayrati», — dedi u, tug‘ilgan kuniga sovg‘a qilingan shokolad ta‘mi juda yoqqanini eslab.

Do‘kon sotuvchisi semiz, miqtisi, lablari qalin, yuzlari to‘la, bo‘yni juda ham yo‘g‘on ko‘rinar edi. Yog‘ qavatlari buqaning bo‘yinturug‘idek yoqasi ustida osilib turardi. U shokolad plitkasini olib, Charliga uzatdi. Bola qog‘ozni shoshib yirtib, katta tishladi. Keyin yana... yana tishladi... Oh! Og‘izda qattiq va shirin narsani sezish qanday lazzat! Og‘izda yegulik borligini his qilish qanchalik huzurli!

— Xuddi shunaqasini xohlaganding, shekilli, o‘g‘lim? — so‘radi sotuvchi muloyimlik bilan.

Charli bosh irg‘adi — og‘zi shokoladga to‘la edi. Sotuvchi qaytimni peshtaxtaga qo‘ydi.

— Shoshilma, — deb maslahat berdi u, — chaynamasdan yutsang, qorning og‘rib qoladi.

Charli shokoladni yutoqib chaynardi. U o‘zini to‘xtatmasdi. Yarim daqiqa o‘tmay shokolad tugadi. Charlining baxtdan nafasi tiqilib qolayozdi. U qaytimni olish uchun qo‘lini cho‘zdi-yu, ikkilanib qoldi. Uning nigohi peshtaxtaga — yaltiroq tangalar yotgan joyga qadalgandi. Tangalarning har biri besh penslik, hammasi bo‘lib to‘qqizta edi. Sakkizta qolsa, hech nima qilmaydi...

— Marhamat qilib, yana bitta... shunaqasidan... — so‘radi u sekin.

— Marhamat, — dedi semiz sotuvchi «Vonka hayrati» shokoladini tokchadan olib, peshtaxtaga qo‘yarkan.



Charli shokoladni yulqib olib, o'rovini yirtdi va qo'q-qisdan... tagida... sariq nimadir yaltirab ketdi. Bolaning yuragi to'xtab qolayozdi.

— Axir bu oltin chipta-ku! — sotuvchi baqirib, baland sakrab qo'ydi. — Sen oltin chiptani topding! Oxirgi oltin chipta! Hoy! Odamlar! Tezroq! Bu yoqqa! Qaranglar! Manavi bola Vonkaning oxirgi oltin chiptasini topdi! Mana u, qo'lida!

Sotuvchi hozir hushidan ketib qoladiganga o'xshardi.

— Mening do'konimda! — qichqirardi u. — U tangani xuddi shu yerda, mening kichkina do'konimda topdi! Hoy! Biror kishi bormi! Tezda muxbirlarga qo'ng'iroq qilinglar! Ehtiyot bo'l, o'g'lim, shokoladni olayotganingda, chiptani yirtib qo'yma. Uning bahosi yo'q.

Bir necha soniyadan so'ng Charlining atrofida yigirmadan ortiq odam to'dalashib turardi. Ko'chadan esa yana boshqa odamlar kirib kelardi.

Ularning hammasi oltin chiptani va uning omadi kulgan sohibini ko'rishni istardi.

— Qayerda u? — baqirardi kimdir. — Ko'rsatinglar, ko'rinxmayapti!

— Mana u, mana! — baqirardi boshqasi. — Bolaning qo'lida! Ko'ryapsizmi, rosa yaltirayapti!

— U uni qanday topdi?! — hayqirdi qandaydir katta bola jahl bilan. — Men har hafta kuniga yigirmatalab plitka sotib olaman!

— Qancha tekin shokoladga ega bo'lishini bir tasavvur qiling-a! — havasi keldi boshqa bolaning. — Butun umrga yetadi.

— Bu unga juda foydali bo'ladi! Qarang, u qoq suyak bo'lib qolibdi-ku! — kulib yubordi bir qiz.

Charli qimir etmadi. U hatto oltin chiptani o'rov tagidan olmadi ham. Shunchaki qo'lida shokolad bilan jim turar,



atrofidagi odamlar esa shovqin solishardi. Charlining boshi aylanar, havo shari singari sekin-asta osmonga ko'tarilayotganga o'xshardi. Oyoqlari yerni his qilmas, yuragi tez-tez urardi.

Charli bexosdan yelkasiga kimningdir qo'li tekkanini sezdi. Boshini ko'tarib, qarshisida baland bo'yli erkakni ko'rdi.

— Menga qara, — pichirladi erkak, — chiptani sendan ellik funtga sotib olaman. Xo'sh, rosimisan? Qo'shimchasiga yana yangi velosiped ham beraman. Kelishdikmi?

— Nima, aqldan ozganmisiz? — qichqirdi yonida turgan ayol. — Men unga ikki yuz funt beraman. Chiptani ikki yuz funtga sotasizmi, yigitcha?

— Bo'ldi, yetar! — baqirib yubordi semiz sotuvchi. U olomonni yorib o'tib, Charlining qo'lidan mahkam ushlandi. — Bolani tinch qo'yinglar! Tarqalinglar! Uni o'tkazib yuboringlar! — Chiqayotganda Charliga pichirladi: — Hech kimga berma, yo'qotib qo'ymasingdan tezroq uyga chop. Uyga yetmaguncha to'xtama. Tushundingmi?

Charli bosh irg'adi.

— Bilasanmi, bolakay, — jilmaydi sotuvchi, — nazarimda, chipta eng munosib egasini topdi. U aynan senga nasib qilganidan nihoyatda xursandman. Omad tilayman, o'g'lim!

— Rahmat, — dedi Charli va oyog'ini qo'liga olib, qordan yugurib ketdi. Janob Villi Vonkaning fabrikasi yonidan chopib o'tayotganda, bir soniyaga to'xtab, qo'l silkidi va: — Ko'rishguncha! Ko'rishguncha! — deya xirgoysi qildi.

Besh daqiqadan keyin esa uyiga yetib bordi.

12. Oltin chiptadagi yozuvlar

Charli uyga «Oyi! Oyi! Oyi!» deya uchib kirdi.

Baket xonim har doimgidek qariyalarga karam sho'rva ichirayotgandi.



— Oyi! — qichqirdi Charli xonaga to‘fondek yopirilib kirarkan. — Qarang, nima topdim! Qarang, oyi! Qarang! Oxirgi oltin chipta! U meniki! Men ko‘chada pul topib, ikkita shokolad sotib oldim, ikkinchisidan oltin chipta chiqdi! Atrofimga odamlar yig‘ilib ketdi, sotuvchi meni bu olomondan qutqarib qoldi. Men yo‘l bo‘yi to‘xtamay yugurib keldim. BU BESHINCHI OLTIN CHIPTA VA U MENIKI, OYI! Baket xonim qimirlamay turar, qariyalar esa qoshiqlarni taraqlatib likopchaga tushirib yuborib, qotib qolishgan edi. Xonaga o‘n soniyacha jimlik cho‘kdi. Hech kim birinchi bo‘lib gapirishga jur’at qilmasdi. Bular sehrli daqiqalar edi.

— Bizlarni ahmoq qilyapsan-a, Charli, shundaymi? — dedi Jo buva nihoyat. — Eh, hazillaring qanchalik yoqimli, bolajon.

— Yo‘q, men hazillashmayapman. — Charli qichqirib, karavot yoniga chopib bordi-da, katta, chiroyli oltin chiptani buvasiga uzatdi.

Jo buva oldinga egilib, chiptani ko‘ziga yaqin olib bordi va diqqat bilan ko‘zdan kechirdi. Qolganlar uning nima deyishini kutishardi. Buvaning yuziga tabassum yoyildi. U boshini ko‘tarib, Charliga qaradi. Yuzlari qizarib, ko‘zлari katta-katta ochildi, bu ko‘zlarda quvонch porlardi, qorachiqlarning qoq o‘rtasida esa baxt uchqunlari miltillardi. Qariya chuqur nafas oldi, birdan ichida nimadir portlagandek bo‘ldi. U qo‘llarini silkib, baqirib yubordi:

— Uraaa! — Va shu zahoti karavotdan sakrab tushdi, sho‘rvali likopcha esa to‘g‘ri Jozefina buviga qarab uchdi. To‘qson olti yarim yoshli (shundan oxirgi yigirma yilini to‘sakdan turmay o‘tkazgan) buva g‘aroyib ravishda sakrab, pijamada o‘ynashga tushib ketdi. — Uraaaa! — baqirardi u. — Yashasin Charli! Gip-gip, ura! Shu payt eshik ochilib, xonaga janob Baket kirdi. Uning qattiq sovuq qotib, charchagani ko‘rinib turardi. U kunbo‘yi ko‘chada qor kuragandi.



— Yo tavba! — ajablandi u. — Bu yerda nimalar bo‘lyapti o‘zi?

Unga nima bo‘layotganini qisqacha tushuntirib berishdi.

— Ishonmayman! — dedi u. — Bunday bo‘lishi mumkin emas.

— Unga chiptani ko‘rsatgin, Charli! — kulib yubordi Jo buva. (U hali ham pijamada raqs tushayotgandi.) — Otangga beshinchi va dunyodagi oxirgi oltin chiptani ko‘rsat!

— Bir ko‘ray, Charli, — iltimos qildi janob Baket stulga o‘tirib, qo‘lini cho‘zarkan.

Charli ushbu bebaho hujjatni uning kaftiga qo‘ydi.

Oltin chipta juda chiroyli — ko‘rinishdan xuddi sof oltinning qog‘oz varag‘i qalinligida bo‘lguncha to‘qmoqlab urilganiga o‘xshardi.

Bir tomoniga o‘ziga xos qandaydir usulda shaxsan janob Vonkaning taklifi yozilgandi.

— Ovoz chiqarib o‘qi, — so‘radi Jo buva yana karavotga chiqarkan. — Nima yozilganini hamma eshitsin.

Janob Baket oltin chiptani ko‘ziga yaqin olib bordi, uning qo‘llari titrar, bo‘lgan voqeadan hayajonda edi. U nafasini rostlab, tomoq qirib oldi:

— Mayli, eshitninglar!

«Oltin chiptaning Omadli Sohibi! Men, Villi Vonka, seni qutlab, qo‘lingni qattiq siqaman. Seni fabrikamga taklif qilaman. Kelgusida seni ajoyib syurprizlar kutmoqda! Sen va oltin chiptaning boshqa omadli egalari kunbo‘yi mening mehmonim bo‘lasizlar. Men, Villi Vonka, shaxsan o‘zim senga fabrikamdagи barcha narsalarning hammasini ko‘rsataman! Keyin, uyga qaytish vaqtি yetganda ketingdan senga va oilangga ko‘p yillarga yetadigan shirinliklarga to‘la katta yuk mashinalari boradi. Lekin shirinliklar tugab qolsa, fabrikaga kelib, oltin chiptani ko‘rsatishing kifoya – senga



istagan barcha shirinliklarni berishdan mamnun bo‘laman. Shunday qilib, butun umrga shirinliklar bilan ta'-minlanasan. Biroq fabrikaga tashrif buyurgan kuning seni kutayotgan eng ajoyib voqeа faqat shugina emas. Sen va boshqa omadli oltin chipta egalari uchun g‘aroyib, mo‘jizaviy surprizlar tayyorlab qo‘ydim, ular seni hayrat, taajjub, hayajonga soladi. Sen hattoki eng katta orzula-ringda ham shunday voqealarga duch kelishingni tasavvur qilmagansan! Ozgina sabr qilsang hammasini o‘zing ko‘rasan!

Va nihoyat, shuni ma’lum qilamizki, fabrikaga tashrifing uchun fevralning birinchi kunini tanladim. Boshqa biron kun emas, aynan shu kuni soat roppa-rosa ertalabki o‘nda fabrika darvozasi oldida bo‘lishing kerak. Kech qolma! Senga ko‘z-qulog bo‘lish, sayohat davomida xavfsizligingni ta’minalash uchun bir yoki ikki nafar oila a’zolaringdan olib kelishingga ruxsat beriladi.

Yana bir gap – oltin chipta albatta yoningda bo‘lishi kerak, bo‘lmasa ichkariga kiritishmaydi.

(Imzo) Villi Vonka».

– Birinchi fevral! – dedi Baket xonim. – Axir bu ertaga-ku! Bugun o‘ttiz birinchi yanvar! Aniq bilaman!

– Buni qara! – xitob qildi janob Baket. – Sen haqsan! Ertaga birinchi fevral!

– Ayni vaqtida ekan! – qichqirib yubordi Jo buva. – Bir daqiqani ham yo‘qotmaslik kerak. Hoziroq otlanishni boshla! Yuvinib-taran, tishingni yuv, botinkangni tozala, ko‘ylagingni dazmolla, shimingni tartibga keltir! Bo‘laqol, bolakay! Hayotingdagi eng ulug‘ kunga tayyorlanishing kerak!

– Sizga bunchalik hayajonlanish mumkin emas, dada, – cholni tinchlantirishga urindi Baket xonim, – Charlini ham shoshirmang. Hammamiz xotirjam bo‘lishimiz kerak.



Birinchidan, Charliga kattalardan kim hamroh bo‘lishini hal qilishimiz lozim.

— Men! — qichqirdi Jo buva yana karavotdan sakrab tushib. — Charli bilan men boraman! Unga men g‘amxo‘rlik qilaman! Buni menga qo‘yib beringlar!

Baket xonim buvaga qarab jilmaydi, keyin eriga qarab, so‘radi:

— Siz-chi, azizim?.. Bu sizning vazifangiz emasmikin?

— Men... men... ishonchim komilmas... — mijg‘ovlandi janob Baket.

— Lekin shunday qilishingiz kerak.

— Azizam, — muloyimlik bilan uning gapini bo‘ldi janob Baket. — Bu o‘rinda «kerak» degan so‘z mos kelmaydi. Tushun, Charli bilan bajonidil borgan bo‘lardim, axir bu judayam qiziq. Lekin, boshqa tomondan... menimcha, Jo buva bunga boshqalardan ko‘proq munosib. Axir ular bu haqda hammadan ko‘proq biladilar. Agar o‘zlarini yaxshi his qilayotgan bo‘lsalar, albatta...

— Uraaaa! — qichqirib yubordi Jo buva va Charlining qo‘lidan ushlab, xona bo‘ylab raqs tusha ketdi.

— Ularning ahvollari yaxshiga o‘xshaydi, — kulib yubordi Baket xonim. — Umuman olganda, siz haqsiz, Charli bilan aynan ular borishlari kerak. O‘zim esa uch qariyani kunbo‘yi yolg‘iz qoldirib ketolmayman.

— Xudoga shukr! — baqirardi Jo buva. — O‘zingga shukr! Xudoyim!

Shu payt eshikni qattiq taqillatishdi. Janob Baket eshik oldiga chiqdi, shu zahoti bir to‘da reportyor va fotomux-birlar uyga yopirilib kirishdi. Ular beshinchi oltin chiptaning omadli egasini o‘rab olib, biri olib, biri qo‘yib, savol bera boshlashdi, hammasi tonggi gazetalarning birinchi sahifasi uchun tezroq material undirishni istardi. Bir necha soat Baketlarning kichkina uyida to‘s-to‘polon hukm surdi, yarim



kechaga borgandagina janob Baket mehmonlarni kuzatib qo'yishga muvaffaq bo'ldi, Charli esa uxlashga yotdi.

13. Buyuk kun

Qor hali erimagan, havo juda sovuq bo'lishiga qaramay shu muhim kunda quyosh yorqin nur sochardi. Janob Villi Vonkaning fabrikasi oldida juda ko'p odam to'plangan, hamma besh nafar omadi kulgan chipta egalarining fabrika darvozalaridan kirishini ko'rishni istardi. Soat chamasi o'n bo'lib qolgandi. Odamlar shovqin solib, itarilishar, politsiya-chilar esa bir-birlarining qo'llarini mahkam ushlab, olomonni ushlab qolishga, darvoza yonidan siqib chiqarishga urinishardi. Ular qurshab olgan darvoza oldida endi butun dunyoga mashhur bo'lgan besh nafar bola va ularni kuzatib kelgan kattalar turardi. Ular orasida Jo buvaning baland, qotma jussasi aniq ko'rinardi. Uning yonida esa cholning qo'lidan mahkam ushlab olgan Charli Baket turardi. Charlidan boshqa hamma bolalar dadasi yoki onasi bilan birga kelishgandi. Yaxshiyam shunday qilishgan, axir mashhur oltin chipta egalarini eplash oson emasdi. Bolalarning fabrikaga kirishga shunchalik sabri yetmayotgandiki, otonalari bo'limganda, ular birpasda to'siqdan oshib o'tishardi.

— Sabr qilsanglar-chi! — baqirishardi otalar ularga. — Tinchlaninglar! Hali vaqt bo'lmadi! Soat hali o'n bo'lmadi!

Charli orqasidagi olomonning shovqin solib, g'alayon ko'tarayotganini eshitib turardi, hammaning mashhur bolalarni yaxshiroq ko'rib olgisi kelardi.

— Qaranglar, qaranglar! Violetta Byurgard! — baqirishardi ular. — Ha-ha! Bu o'sha! Uning suratini gazetada ko'rganman!

— Qaranglar! — baqirishardi boshqalar. — U hozir ham o'sha uch oydan beri og'zidan olmagan saqichini chaynayapti. Jag'ining qimirlashini qaranglar!



- Anavi semiz bola kim?
- Axir bu Avgust Nodon-ku!
- To‘g‘ri, o‘sha!
- Buncha semiz!
- Aql bovar qilmaydi-ya!
- Kurtkasida «Reynjers» emblemasi tushirilgan anavi bola kim?
- U Mayk Tivi, teleishqiboz.
- Nima, u jinnimi? Qaranglar! Hamma yog“iga o‘yinchoq to‘pponchalarni osib olibdi!
- Bizga Veruka Soltni ko‘rsatinglar! — olomon orasidan kimningdir ovozi eshitildi. — Dadajonisi yarim million shokolad sotib olib, fabrikasining hamma ishchi ayollarini oltin chiptani topgunlaricha shokolad qog‘ozlarini ochishga buyurgan o‘sha qizni! Otasi unga hech qachon yo‘q demaydi! Dod-voy qila boshlasa, bas, hamma narsani unga muhayyo qilib berishadi!
- Bu naqadar jirkanch.
- Ularning qaysi biri Veruka?
- Anavi, chapdagisi! Qimmatbaho qorakuzan po‘stnidagi kichkina qiz!
- Ularning qaysi biri Charli Baket?
- Charli Baket! Anavi quruq suyak chol qo‘lidan ushlab turgan ozg‘in juldurvoqi bo‘lsa kerak. Ana! Ko‘ryapsanmi?
- Shunday sovuqda nega paltosiz turibdi?
- Men qayerdan bilaman?! Balki, uning paltoga puli yo‘qdir.
- E Xudo! Rosa sovqotib qolgandir!

Bu suhbatni eshitib turgan Charli buvasining qo‘lini mahkam siqdi. Qariya unga qarab, jilmaydi. Cherkov soati o‘nga bong urdi. Fabrikaning baland temir darvozasi juda sekin, qattiq g‘ijirlab ochila boshladи.



Olomon jim bo‘lib qoldi. Hatto bolalar ham yugurishdan to‘xtashdi. Hamma darvozaga qaradi.

– Mana u! – baqirdi kimdir. – Shaxsan o‘zi!

Ha, bu O‘SHA edi!

14. Janob Villi Vonka

Janob Villi Vonka fabrika darvozasi yonida turardi. Chindan ham bu g‘aroyib odam edi!

U egniga to‘q binafsha rang baxmaldan tikilgan chiroyli frak, ko‘kish-yashil shim, boshiga qora shlyapa, qo‘llariga esa oq-kulrang qo‘lqop kiyib, tilla tutqichli hassa ushlab olgan edi. Iyagini qora echkisoqol bezagan. Ko‘zlari esa... ko‘zlari nihoyatda chaqnoq edi. Ularda yorqin uchqunlar miltillayotganga o‘xshardi. Yuzi ham xursandchilik va quvnoqlikdan yashnardi. Shu bilan birga u juda aqlli ko‘rinardi! Abjir, chaqqon, g‘ayratli! U chaqnab turgan ko‘zlari bilan hamma narsani payqab, hamma narsani ko‘rib, boshini tinmay aylantirardi. Uning chaqqon harakatlari olmaxoni – shahar bog‘idagi dono, qari, aqlli, chaqqon olmaxonni eslatardi. Janob Vonka kutilmaganda kulgili irg‘ishlab, qorda bir oyog‘i bilan aylanib, qo‘llarini keng yozdi, bolalarga jilmayib, jarangdor ovozda xitob qldi: – Xush kelibsiz, mening kichik do‘stilarim! Fabrikamga xush kelibsiz! Marhamat, bittadan, ota-onangiz bilan kiring. Oltin chiptani ko‘rsatib, ismingizni ayting. Qani, kim birinchi?

Nihoyatda semiz bola oldinga chiqdi.

– Mening ismim Avgust Nodon, – dedi u.

– Avgust! – qichqirdi Vonka va semiz bolaning qo‘lidan ushlab, bor kuchi bilan silkitdi. – Azizim! Seni ko‘rganimdan, biz bilan birgaligingdan bag‘oyat xursandman! Qoyil, bu ota-onangmi? Juda soz! Kiringlar, marhamat!



Janob Villi Vonkaning hayajoni yig'ilganlarnikidan kam emasdi.

— Mening ismim Veruka! — dedi qizchalarydan biri va oldinga qadam qo'ydi. — Veruka Solt!

— Azizam Veruka! Tabriklayman. Qanday xursandchilik! Isming juda ajoyib ekan. Men bo'lsam tovondagi qavariqni Veruka deyishadi, deb yuribman. Adashgan bo'lsam kerak, to'g'rimi? Manavi qorakuzan po'stini senga juda yarashibdi! Kelganingdan nihoyatda xursandman! E Xudo! Qanday ajoyib kun-a! Senga bu yer juda yoqadi, deb umid qilaman! Bunga ishonchim komil! Bu otangmi? Qandaysiz, janob Solt, Solt xonim? Sizlar bilan uchrashganimdan mammunman! Ha, chipta joyida! Marhamat, kiringlar.

Keyingi ikki kishi — Violetta Byurgard va Mayk Tivi edi. Ular oldinga chiqib, chiptalarini ko'rsatishdi. Janob Vonka ularning qo'lini uzoq va qattiq siqdi.

Nihoyat oldinga oriqqina bola chiqib, past ovozda pichirladi:

— Charli Baket.

— Charli! — xursand bo'ib hayqirdi janob Vonka. — Va nihoyat! Sen o'sha, chiptani kechagina topgan Charli Baketmisan? Ha, ha! Tonggi gazetalarda o'qidim! Ayni vaqtida topibsan! Qanday baxt! Omading kelibdi! Bu buvangmi? Siz bilan uchrashganimdan xursandman, janob! Juda soz! Hamma joyidami? Besh nafar bolaning hammasi-a? Ha! Yaxshi! Endi ortimdan yuringlar! Sayohat boshlanmoqda! Faqat, iltimos, hammangiz yonma-yon yurishga harakat qiling! Tarqalib ketmanglar. Sizlardan birortangiz yo'lning eng boshida yo'qolib qolishingizni istamasdim. Yo'q, yo'q! Aslo! — Charli o'girilib, baland temir darvozalar sekin yopilayotganini ko'rdi.

Darvoza ortida yig'ilgan odamlar esa hamon baqirishar, bir-birlarini itarishardi. U to'polon qilayotgan olomonga



oxirgi marta nazar tashladi. Keyin darvozalar qarsillab yopildi-yu, darvoza ortidagi hamma narsa g‘oyib bo‘lgandek bo‘ldi.

— Bu yoqqa! — baqirardi janob Vonka hammadan oldinda shoshib yugurgilab borarkan. — Marhamat, manavi baland qizil eshikdan kiringlar! Juda yaxshi! Bu yer issiq va shinam! Sexlarni yaxshilab qizdirishimga to‘g‘ri keladi! Ishchilarim juda issiq iqlimga o‘rganib qolishgan! Ular sovuqqa toqat qilisholmaydi! Agar hozir ko‘chaga chiqishsa, darrov muzlab qolib, halok bo‘lishadi.

— O‘sha ishchilar kimlar? — so‘radi Avgust Nodon.

Bunga javoban janob Vonka faqat kulib qo‘ydi:

— Hamma narsaning o‘z vaqtি bor, do‘stim. Biroz sabr qilsanglar, hammasini bilib olasizlar! Hamma shu yerdami? Yaxshi! Marhamat qilib, eshikni yopinglar. Rahmat!

Shu payt Charli oxiri ko‘rinmaydigan uzun va keng yo‘lakda turishganini ko‘rdi. Yo‘lak shunchalik keng ediki, undan avtomobil bemalol o‘tgan bo‘lardi. Devorlar och pushti rangga bo‘yalgan, chiroqlar xira, ammo yoqimli edi.

— Qanday issiq va yoqimli! — pichirladi Charli.

— Ha, — ma‘qulladi buva. — Hidi biram yaxshiki! — dedi u shirin hiddan rohatlanarkan. Bu hidda dunyoning eng ajoyib hidlari — qovurilgan qahva donlari va kuydirilgan shakar, suyuq shokolad va yalpiz, binafsha, maydalangan yong‘oq, olma guli va limon po‘stlog‘i aralashdek tuyulardi... Kattakon fabrikaning qoq markazining qayeridandir bo‘g‘iq gumburlagan ovozlar eshitilar, u yerda bahaybat mashinalarning g‘ildiraklari go‘yo juda katta tezlikda aylanayotganga o‘xshardi.

— Qadrli bolalar, bu, — janob Vonka shovqinni bosib gapirishga urinardi, — bosh yo‘lak! Iltimos, palto va qalpoqlaringizni anavi ilgichga osib, ortimdan yuringlar. Bu yoqqa,



marhamat! Hamma tayyormi? Ortimdan! Olg‘a! – U yo‘lakdan shunchalik tez yugurib ketdi-ki, faqat to‘q binafsha rang baxmal frakining etaklari ko‘ringanicha qoldi. Hamma uning ketidan oshiqdi. Epchil janob Vonkadan qolib ketmaslik uchun to‘qqiz nafar katta odam va besh nafar bola – hammasi bo‘lib o‘n to‘rt kishi – hamma birdaniga oldinga yugurgilab qolganida, qanday tartibsizlik boshlanganini tasavvur qiling-a.

– Orqada qolib ketmanglar! Bunaqa imillasanglar, bir kunda hech narsaga ulgurmaymiz!

Birozdan so‘ng u o‘ngga – biroz torroq yo‘lakka burildi. Keyin chapga. Keyin yana o‘ngga. Chapga. Yana o‘ngga. Yana bir marta o‘ngga. Keyin chapga. Bu yerdagi yo‘l va yo‘lklar har tomonga qarab ketgan kattakon quyon iniga o‘xshab ketardi.

– Qo‘limdan mahkam ushla, Charli, – pichirladi Jo buva.

– E’tibor beringlar! – qichqirdi janob Vonka. – Hamma yo‘lklar pastga qarab ketgan! Biz yer tagiga tushyapmiz! Fabrikamning hamma eng muhim sexlari yer tagida joylashgan!

– Nima uchun? – so‘radi kimdir.

– Chunki yer ustida ularga joy yetmagan bo‘lardi! Sizlar tez orada ko‘radigan sexlar juda katta! Har biri futbol maydonidan kattaroq. Hech qaysi binoga sig‘maydi. Bu yerda esa, yer ostida istagancha joy topiladi. Mening hududim chegara bilmaydi. Faqat yerni chuqurroq qazish kerak.

Janob Vonka o‘ngga burildi. Keyin chapga. Keyin yana o‘ngga. Yo‘lklar pastga tobora qiyalab borardi. Kutilmaganda u to‘xtadi.

Uning qarshisida yaltiroq temir eshik bor edi. Hamma atrofga to‘plandi. Eshikda katta harflar bilan «SHOKOLAD SEXI» deb yozilgandi.



15. Shokolad seksi

— Bu juda muhim sex! — xitob qildi janob Vonka cho'ntagidan kalitlar shodasini chiqarib, bitta kalitni qulf teshigiga solarkan. — Bu sex fabrikaning yuragi, butun ishlab chiqarishning asosi! U juda chiroyli-a! Men sexning hamma joyi chiroyli bo'lishi kerak, deb hisoblayman. Fabrikaning ko'rimsiz bo'lishiga toqat qilolmayman! Marhamat, kiringlar! Lekin, o'tinaman, hayajonlanmang, xotirjamlik saqlang, hayratdan yana hushingizdan ketib qolmang!

Janob Vonka eshikni ochdi. Besh nafar bola va to'qqiz nafar katta odam itarilishib, siqilishib ichkariga kirdi. Va... oh, bu mo'jiza-ku! Ularning qarshisida ikki tomoni yashil maysazorlar bilan qoplangan sehrli diyor yastanib yotar, pastda esa keng jigarrangdagi daryo oqardi. Bu hali hammasi emas, daryoning o'rtasida baland sharshara bor edi — tik qoyadan suv qalin devor bo'lib tushar, keyin ko'pirib, vaqirlab, minglab mayda tomchilarga aylanib uchardi. Oqim bo'ylab pastda esa (bu yanada hayratlanarli manzara edi) daryoga shiftning qayeridandir kamida o'n ikkita juda katta shisha quvur osilib tushgandi. Ular shunchaki katta quvurlar emas, bahaybat quvurlar edi. Ular daryodan xira jigarrang suvni so'rib olib, qayergadir olib ketardi. Shisha devorlardan suyuqlikning quvurdan qanday oqishi aniq ko'rinardi. Yaxshilab qulq solinsa, sharsharaning shovullashi ortida so'rilayotgan suyuqlikning tinimsiz qulqullashini eshitish mumkin edi. Daryoning ikkala qirg'og'i bo'ylab chiroyli buta va daraxtlar — majnuntollar, olxa, pushti, qizil va binafsharang gulli rododendronlarning baland butalari o'sib yotardi. Maysazorlar esa minglab ayiqtovonlarga to'la edi.

— Mana! — qichqirdi janob Vonka shundoqqina daryo yonidagi tillarang qamishlarni ko'rsatib. — Buning hammasi shokolad! Bu daryoning har bir tomchisi — eng yuqori sifatli



suyuq shokolad! U mamlakatning hamma vannalarini to‘ldi-rishga yetadi! Hamma hovuzlarni ham! Ajoyib, to‘g‘rimi? Manavi quvurlarga bir qarang! Ular daryodan shokoladni so‘rib olib, fabrikaning boshqa, zarur sexlariga yetkazib beradi. Soatiga ming litr, qadrli bolalarim! Ming, minglab litr!

Bolalar va ota-onalar ko‘rganlaridan shunchalik hayratga tushdilarki, bir og‘iz ham gapirolmay qolishdi. Ular bu go‘zal manzaraning haybatidan ajablanib, esankirab qolishgan, ko‘zлari qamashib, shunchaki tikilib qarab turishardi.

— Bu yerda eng muhimi sharshara! — deb davom etdi janob Vonka. — U shokoladni aralashtiradi, ko‘piklantiradi, ko‘pirtirib, yengil va nozik qiladi! Dunyoning boshqa hech bir yerida shokoladni sharshara yordamida aralashtirish-maydi! Lekin bu yagona to‘g‘ri yo‘l! Yagona! Daraxtlarim haqida nima deysizlar? Yoqdimi? Chiroyli butalarim-chi? Juda ajoyib, to‘g‘rimi? Xunuklikka toqatim yo‘q, degandim-ku! Va albatta, ularning hammasini yesa bo‘ladi! Har biri biron-bir shirin narsadan yasalgan! O‘tlar va ayiqtovonlarim-chi? Sizlar bosib turgan o‘t, qadrdonlarim, men yaqindagina ixtiro qilgan yalpizta’m shakardan! Men uni «yalkar» deyman. O‘tdan yeb ko‘ringlar! Marhamat. Tatib ko‘ringlar! Ajoyib! Hamma birdaniga egilib, bittadan o‘t yuldi — bir bog‘ o‘tni yulib olgan Avgust Nodondan boshqa hamma. Violetta Byurgard esa o‘zining o‘tni tatib ko‘rishdan oldin og‘zidan saqichini olib, qulog‘i orqasiga avaylab yopishtirdi.

— Ajoyib! — deb pichirladi Charli. — Ta’mi juda yaxshi, to‘g‘rimi, buva?

— Butun dalani yeb qo‘yishga tayyorman, — Jo buva shunday deb jilmaydi. — Men sigirga o‘xshab to‘rt oyoqlab yurib, shu ajoyib o‘tni yegan bo‘lardim!

— Ayiqtovonlardan tatib ko‘ringlar! — qichqirdi janob Vonka. — Ular yanada shirin! Birdan qulogni qomatga



keltiruvchi chinqiriq eshitildi. Chinqirayotgan Veruka Solt edi.

— Qaranglar! Qaranglar! — qichqirardi u barmog‘ini daryo uzra bigiz qilib ko‘rsatib. — Nima u? U qimirlayapti! Yuryapti! Bu kichkina mavjudot! Kichkina odamcha! Qaranglar! Anavi yerda, pastda, sharshara yonida! Hamma ayiqtovon terishni tashlab, daryoning narigi qirg‘og‘iga tikilib qoldi.

— U rost aytyapti, buva! — hayqirdi Charli. — Bu odamcha! Ko‘ryapsizmi?

— Ko‘ryapman!

Shu payt hamma bir-biriga gal bermay baqirib ketdi:

— Ular ikkita!

— E Xudo! Bo‘lishi mumkin emas!

— Ular ko‘proq! Ular... bir, ikki, uch, to‘rt, besh!

— Ular nima qilishyapti?

— Ular qayerdan kelgan?

— Ular o‘zi kimlar?

Bolalar ham, kattalar ham odamchalarni yaxshiroq ko‘rib olish uchun qirg‘oq tomonga chopishdi.

— Ajoyib!

— Ular mening tizzamdan ham kelmaydi-ku!

— Qaranglar, ularning uzun sochlari juda kulgili!

O‘rtacha kattalikdagi qo‘g‘irchoqlardek keladigan kichkina odamchalar ishlarini tashlab, notanishlarga taajjub bilan qarab turishardi.

Ulardan biri qo‘li bilan bolalarga ishora qilib, qolgan to‘rttasiga nimadir deb pichirlagandi, beshalasi xursand kulib yubordi.

— Axir bular HAQIQIY ODAMLAR EMAS-KU! — dedi Charli.

— Albatta, HAQIQIY, — e’tiroz bildirdi janob Vonka. — Bular umpa-lumpalar.



16. Umpa-lumpalar

- Umpa-lumpalar? — baqirib yubordi hamma.
- To‘g‘ri Lumplandiyadan keltirilgan, — izoh berdi janob Vonka g‘urur bilan.
- Lekin bunday mamlakat yo‘q, — dedi Solt xonim.
- Kechirasiz, xonim, ammo...
- Janob Vonka, — Solt xonim ovozini balandlatdi. — Men jo‘g‘rofiyadan dars beraman...
- Unda sizlarga bu mamlakat haqida bat afsil gapirib beraman. O, bu dahshatli mamlakat dunyodagi eng qo‘r-qinchli va xavfli hayvonlar — yo‘lbarsshoxlar, zirhtam va vahimali yirtqich ajdapotamlar yashaydigan o‘tib bo‘lmas changalzorlardan iborat. Bitta ajdapotam nonushtaga o‘nta umpsa-lumpani yeishi, yana hech nima bo‘lmagandek qo‘sishimcha qidirib ketishi mumkin. U yerga borganimda, umpsa-lumpalar o‘zlariga daraxtlarda uy qurayotganini ko‘rib, avvaliga rosa ajablandim. Lekin ular yo‘lbarsshoxlar, zirhtam, vahimali yirtqich ajdapotamlardan himoyalanish uchun daraxtlarda yashashga majbur edi. Ular yashil kapalak qurtlari bilan oziqlanishardi. Qurtlar juda bemaza bo‘lgani sababli umpsa-lumpalar qurtlarga qo‘shib yeish uchun biron xushxo‘r qiluvchi mahsulot, masalan, qizil qo‘ng‘iz yoki evkalipt barglari, yoki bong-bong daraxti po‘stlog‘i qidirib, ertalabdan daraxtlarda yurishardi. Bu ham juda bemaza narsa, lekin qurtlarchalik jirkanch emas. Bechora mitti umpsa-lumpalar! Umpa-lumpalarning hech bir istisnosiz hammasi yaxshi ko‘radigan yagona taomi — bu kakao donlari. Lekin ularni topishning deyarli hech imkon yo‘q. Yil davomida ikki-uchta kakao topishga muvaffaq bo‘lgan umpsa-lumpa o‘zini nihoyatda omadliman deb hisoblardi. Umpa-lumpalar bu shirinlik haqida rosa orzu qilishardi! Har kecha kakao donlari tushlariga kirardi,



kunduzi esa tinimsiz shu haqda gapisirishardi. Biror umpalumba yonida «kakao» degan so‘z aytilsa, bas, shu zahoti ularning og‘zining suvi kela boshlardi. Kakao daraxtlarida o‘sadigan kakao donlaridan, – deya davom etdi janob Vonka, – shokolad tayyorlashadi. Kakao donlarisiz shokolad tayyorlab bo‘lmaydi. Kakao donlari – shokolad degani. Men esa fabrikada haftasiga milliardlab kakao donlarini ishlata-man. Shuning uchun, qadrli bolalarim, umpa-lumpalar aynan shu taomni yaxshi ko‘rishini bilganimdan so‘ng men ularning daraxtlarga osilgan «qishloqchasi»ga tirmashib chiqib, ularning sardorlariga tegishli uyning derazasidan boshimni tiqdim. Oriqqina bechora bolakay stol yonida yashil qurtlarni jirkanib yeb o‘tirardi. «Quloq solinglar, – dedim (inglizchalab emas, umpa-lumpachalab, albatta), – quloq solinglar, siz va odamlaringiz mening mamlakatimga ko‘chib o‘tib, fabrikamda yashab, o‘sha yerda ishlasanglar, istaganingizcha kakao donlarini olasizlar. Omborlarimda donlar tog“-tog“ bo‘lib uyulib yotibdi. Kakao donlarini kuniga uch marta, to‘y-guningizcha yeishingiz mumkin! Agar istasangiz, hatto ish haqini ham kakao donlari bilan to‘layman!» – «Hazillashmayapsizmi?!» – qichqirib yubordi umpa-lumpachalar sardori stuldan sakrab turib. «Hazillashmayapman, albatta, – dedim men. – Shokolad ham yeishingiz mumkin. Shokolad kakao donlaridan ham shirinroq, chunki unga sut va shakar qo‘shiladi».

Sardor sevinib chinqirdi, yashil qurtlar pyuresi solingan kosa to‘g‘ri osma uyning derazasiga qarab uchdi. «Kelishdik! – deb qichqirdi bola. – Ketdik!» Men umpa-lumpa qabilasining hammasi – erkaklari, ayollarini va bolalarini kemaga ortib, bu yerga olib keldim. Bu menga hecham qiyin bo‘lmadi. Men ularni narsa o‘raladigan katta qutilarga yashirib, nafas olishlariga imkon bo‘lishi uchun quti devorlarini teshib qo‘ydim.



Umpa-lumpalar – juda yaxshi ishchilar. Hozirda ular inglizcha gapirishyapti. Ular raqs tushishni va qo'shiq aytishni yaxshi ko'rishadi, tinmay yangi qo'shiqlarni to'qishadi, umid qilamanki, siz ham tez orada ularni eshitasizlar. Sizlarni ogohlantirib qo'yishim kerak – umpa-lumpalar juda xishchaqchaq odamlar, hazilni yaxshi ko'rishadi.

Ular changalzorda qanday kiyimda yurishgan bo'lsa, hozir ham shunday kiyimda yurishibdi. Ularga shunisi qulay. Erkaklarning egnida, ko'rib turganingizdek, bug'u terisidan tikilgan kiyim, ayollar barglarga o'ralvolishgan, bolalar esa yalang'och chopib yurishibdi. Ayollar har kuni yangi barglardan foydalanishadi...

– Dada! – qichqirdi Veruka Solt (har doim istagan narsasi muhayyo qilingan qiz). – Dada! Umpa-lumpani xohlayman! Menga umpa-lumpani olib bering! Umpa-lumpani xohlayman, hoziroq! Uni uyga olib ketishni istayman! Dada! Men umpa-lumpa hoxlayman.

– Hozir, qizalog'im, shoshma, – bezovtalanib qoldi Soltning otasi. – Janob Vonkaning gapini bo'lish mumkin emasku, axir.

– Umpa-lumpani xohlayman! – chinqirardi Veruka.

– Yaxshi, Veruka, yaxshi, lekin aynan hozir... ilojim yo'q. Ozgina sabr qilsang, kechqurun senda albatta umpa-lumpa bo'ladi.

– Avgust! – baqirib yubordi Nodon xonim. – Avgust, azizim, menimcha, bunday qilish mumkin emas!

Avgust Nodon, taxmin qilgan bo'lsangiz kerak, bu paytda daryo bo'yiga tushishga ulgurib, jigarrang to'lqinlar yonida o'tirib olib, kaftlarini issiq suyuq shokoladga to'ldirib hovuchlab ichayotgandi.



17. Avgust Nodon quvurga tushib qoladi

Janob Vonka o‘girilib, Avgust Nodonning nima qilayotganini ko‘rdi-yu, baqirib yubordi:

— Yo‘q, yo‘q! Iltimos sendan, Avgust! Iltimos! O‘tinaman, bunday qilma! Shokoladimga odam qo‘li tegmasligi kerak!

— Avgust! — deb chaqirdi Nodon xonim. — Senga nima deyishayotganini eshitmayapsanmi? Hoziroq u yerdan ket!

— Bu cho‘pchak! — dedi Avgust janob Vonka bilan Nodon xonimning qichqiriqlariga zarracha e’tibor bermay. — Eh, chelak bo‘lganda edi...

— Avgust! — baqirardi janob Vonka g‘azabdan sakrab, hassasini silkitgancha. — Darhol u yerdan ket! Shokoladimni iflos qilyapsan!

— Avgust! — baqirardi Nodon xonim.

— Avgust! — baqirardi janob Nodon.

Lekin Avgust to‘ymas oshqozonining ovozidan boshqa hech nimani eshitishni istamasdi. Endi u qorni bilan yotib olib boshini egvolib, shokoladni itga o‘xshab yalardi.

— Avgust! — baqirardi Nodon xonim. — Axir jirkanch tumovingni butun mamlakatga yuqtirasan-ku!

— Ehtiyot bo‘l, Avgust! — baqirardi janob Nodon. — Sen juda pastga egilyapsan!

Janob Nodon juda to‘g‘ri aytayotgandi. Kutilmaganda quloqni qomatga keltiradigan chinqiriq, keyin shapillagan ovoz eshitildi-yu, Avgust Nodon daryoga ag‘anab tushdi, boshi esa bir zumda jigarrang oqimga kirib ketdi.

— Uni qutqaringlar! U cho‘kib ketadi! Axir u suzishni umuman bilmaydi! Uni qutqaringlar! — yig‘lardi Nodon xonim va soyabonini silkitib, qirg‘oq bo‘yida yugurardi.

— Nimalar deyapsan, azizam, — dedi janob Nodon. — Men eng yaxshi kostyumimda sho‘ng‘iymanmi!



Avgust Nodonning shokoladdan jigarrang boshi bir zumgagina daryo yuzasida ko'rindi.

— Yordam beringlar! Yordam beringlar! Yordam beringlar! — deb dodlardi u. — Meni qutqaringlar!

— Nimaga qarab turibsiz?! — eriga yopishib ketdi Nodon xonim. — Biron narsa qilsangiz-chi!

— Qilyapman-ku axir, — dedi janob Nodon va, aftidan, shokolad ichiga sho'ng'ish niyatida pijagini yechdi. Lekin u yechinguncha bechora Avgust tobora uzoqqa, daryoga tushirilgan katta quvurlardan biriga qarab oqib ketdi. Quvur juda yaqin edi... Shunda... uuuv... jigarrang girdob bechora Avgustni burab, aylantirib, quvur ichiga tortib olib kirib ketdi.

Hamma nafasini ichiga yutib, uning qayerdan chiqishini kutardi.

— Ana u! — baqirib yubordi kimdir oldinga ishora qilib. Chindan ham quvur shishadan bo'lgani uchun ichida Avgustning torpeda singari boshi bilan oldinga tez suzib ketayotgani aniq ko'rindi.

— Yordam beringlar! O'ldirishyapti! Politsiya! — baqirardi Nodon xonim. — Avgust, qayerga ketyapsan? Hoziroq qayt!

— Uning quvurga kirib tiqilib qolmaganidan taajjub-daman, — dedi janob Nodon.

— Hozir tiqilib qoladi-da! — dedi Charli Baket. — Qaranglar, u sekinlashyapti.

— To'g'ri, — tasdiqladi Jo buva.

— Voy, tiqilib qoladi! — dedi Charli.

— Xuddi shunday, u tiqilib qoldi — gapni ilib oldi Jo buva.

— Ha, tiqilib qoldi! — dedi Charli.

— Hammasiga qorni kattaligi sababchi! — dedi janob Nodon.



- U quvurni butunlay berkitib qo‘ydi! – dedi Jo buva.
- Quvurni sindirib qo‘yishing mumkin, – chiyillardi Nodon xonim hamon soyabonini silkitib. – Avgust, hoziroq u yerdan chiq!

Voqeani kuzatib turganlarning hammasi oqishdan to‘xtab qolgan shokolad Avgustning oyoqlari ostida yig‘ilib, qotayotganini ko‘rdi. Tiqin hosil bo‘ldi! Bosim juda katta edi. Nimadir dosh berolmay qolishi aniq edi. Dosh berolmadi ham. O‘sha nimadir Avgust bo‘ldi. Uh! U miltiqdan otilgan o‘q singari oldinga shiddat bilan uchib ketdi.

- U g‘oyib bo‘ldi! – chinqirdi Nodon xonim. – Bu quvur qayerga qarab ketgan? O‘t o‘chiruvchilarni chaqiring! Tezroq!

– Xotirjamlikni saqlang, – dedi janob Vonka. – Xotirjam bo‘ling, hayajonlanmang, xonim. Hech qanday qo‘rqinchli voqeal sodir bo‘lmadi. O‘g‘lingiz xavfdan xoli. U shunchaki kichik sayohatga, anchayin qiziqarli sayohatga jo‘nadi, shu xolos. Unga hech nima qilmaydi. Mana ko‘rasizlar.

- Qanaqasiga hech nima qilmaydi? – unga yopishib ketdi Nodon xonim. – Axir besh daqiqadan keyin undan shokoladli zefir tayyorlashadi-ku!

– Bunday bo‘lishi mumkin emas! – tinchlantirdi uni janob Vonka. – Bunga aql bovar qilmaydi! Bu aqlga sig‘maydi! Qanday bema’nilik! Undan zefir tayyorlashmaydi, axir!

- Nimaga tayyorlashmas ekan? – qichqirishda davom etdi Nodon xonim.

– Chunki bu quvur zefir sexiga olib bormaydi, – tushuntirdi janob Vonka, – unga yaqin ham bormaydi. Avgustni tortib ketgan quvur to‘g‘ri men juda shirin shokoladdagi yertutli iris tayyorlaydigan sexga olib boradi.

- Demak, undan shokoladdagi yertutli iris tayyorlashar ekan-da? – hayqirdi Nodon xonim. – Bechora Avgustim! Ertaga ertalab uni mamlakatning hamma do‘konlarida taroziga tortib sotishadi!



- Ha, gaping to‘g‘ri, — dedi janob Nodon.
- Men har doim to‘g‘ri gapiRAMAN, — dedi Nodon xONIM.
- Bu hazil emas, — dedi janob Nodon.
- Lekin janob Vonka bunday fikrda emas, shekilli! — yana baqirdi Nodon xONIM soyabonini silkitib. — Unga bir qaragin-a! U xaxolab kulyapti! Mening o‘g‘lim quvurda bo‘lsayu, sizning kulishga qanday haddingiz sig“yapti? Siz — maxluqsiz! Sizningcha, bu hazil, shundaymi? Bolajonimni manavi dahshatli quvurdan iris sexiga jo‘natib yuborib, juda yaxshi hazil qildim deb o‘ylayapsizmi?
- Unga hech nima qilmaydi, — hirengladi janob Vonka.
- Undan shokoladli iris tayyorlashadi, axir! — dodladi Nodon xONIM.
- Hech qachon! — xitob qildi janob Vonka.
- Tayyorlashadi! — dodlardi Nodon xONIM.
- Men bunga yo‘l qo‘ymayman! — baqirdi janob Vonka.
- Nimaga endi? — qichqirdi Nodon xONIM.
- Chunki u bemaza chiqadi. Bir tasavvur qiling-a, — SHOKOLADDAGI AVGUSTLI NODON! Uni sotib ham olishmaydi!
- Sotib olganda-chi! — xafa bo‘ldi janob Nodon.
- Bu haqda o‘ylashni ham istamayman! — qichqirdi Nodon xONIM.
- Men ham, — dedi janob Vonka. — Sizni ishontirib aytamanki, xONIM, o‘g‘lingiz butunlay xavfdan xoli.
- Butunlay xavfdan xoli! Unda qayerda u? Meni darhol uning yoniga olib boring!

Janob Vonka o‘girildi, barmoqlarini «bir, ikki, uch» deb qattiq shiqirlatgan edi qarshisida qayerdandir umpa-lumpa paydo bo‘lib qoldi. Umpa-lumpa egilib, ajoyib oq tishlarini ko‘rsatib jilmaydi. Uning yuzi nafis pushtirang, uzun sochlari esa sariq-jigarrang edi. Umpa-lumpaning boshi janob Vonkaning tizzasidan kelardi.



Umpa-lumpaning kiyimi, qabilaning hamma erkaklariniki kabi, bug‘u terisidan edi.

— Gapimni diqqat bilan eshit, — dedi janob Vonka mitti odamchaga. — Sendan iltimos, Nodon xonim bilan janob Nodonni iris sexiga kuzatib borib, ularga o‘g‘illarini topishlariga yordam ber. U hozirgina quvurdan o‘sha yerga ketib qoldi. Umpa-lumpa Nodon xonimga qaradi-da, qahqahlab kulib yubordi.

— O‘zingni bos! — dedi janob Vonka. — O‘zingni qo‘lga ol! Nodon xonimning fikricha, bu sirayam kulgili emas!

— Buyrug‘ingizni unga yana bir marta takrorlasangiz, — dedi Nodon xonim.

— To‘g‘ri iris sexiga bor, — dedi janob Vonka umpalumpaga, — uzun tayoq olib, shokolad qorishtirgichni kavlab ko‘r. Ishonchim komilki, Avgust o‘sha yerda. Lekin, sendan iltimos, tezroq harakat qil, Avgust qorishtirgichda uzoq qolib ketsa, iris pishirgichga kirib ketishi mumkin. Unda chindan ham kulfat sodir bo‘ladi — ajoyib irischalarimning mazasi buzilib, ularni yeb bo‘lmay qoladi!

Nodon xonim umidsizlanib hiqilladi.

— Hazillashyapman, — dedi janob Vonka va sho‘x qiqirlab kuldi. — Fikrimni noto‘g‘ri ifodaladim. Kechirasiz, sizni hecham xafa qilmoqchimasdim! Jahlingiz chiqmasin! Ko‘rishguncha, Nodon xonim! Ko‘rishguncha, janob Nodon! Tez orada ko‘rishguncha.

Janob Nodon va Nodon xonim umpa-lumpa hamrohligida eshik tomonga shoshib ketayotganda, narigi qirg‘oqdagi besh nafar umpa-lumpa kutilmaganda sakrab, raqs tushib, mitti do‘mbiralarni do‘pirlatib, ashula aytishga tushdi:

— Avgust Nodon! Avgust Nodon! Avgust Nodon! Avgust Nodon!

— Buva, — dedi Charli, — menga qarang! Ular nima qilishyapti?



— Jim! — pichirladi Jo buva. — Menimcha, ular bizga qo'shiq aytib berishmoqchi!

— Avgust Nodon! Avgust Nodon! — kuylashardi umpalumpalar.

Avgust Nodon g'irt nodon,
Quvurni ko'rmas inson.
Semiz, ochko'z va tentak,
Unga yeb, uxlash kerak.
Bunga qancha chidaymiz,
Jim qarab, indamaymiz?
U yeb-ichar faqat,
Ahmoqlik — unga rohat.
Buyuk Skott, bo'lgin qozi,
Jazolashga bo'l rozi!
Biz uni yengil silab,
Quvurga qo'ydik yo'llab.
Bolalar, bo'lmas qiyin:
Bu — shunchaki bir o'yin.
Quvur qo'rqinchli emas,
Avgust ham halok bo'lmas.
Murakkab yo'lni bosib,
O'zgarish qilar nasib.
Kichkinagina sir bul:
O'zgaradi u butkul.
Iris mashinasida
Buraymiz vanilinda.
Keyin biroz ezamiz,
Ishqalaymiz, cho'zamiz.
Krem qo'shilgandan keyin
Tayyor bo'lishi tayin.
Mana, chiqyapti u ham,
Hayratda butun olam.



Ochko‘z edi, tasqara,
 Endi boshqacha, qara!
 Isqirt mushuk singari
 Yurardi u ilgari.
 Endi-chi, irismisol,
 Ko‘p ajoyibdir bu hol.

– Axir sizlarga umpa-lumpalar qo‘shiq aytishni juda yaxshi ko‘rishadi, degandim-ku. Bu ajoyib, to‘g‘rimi? Lekin ularning bittayam gapiga ishonmang! Chunki buning hammasi to‘qima.

– Buva, ular chindan ham hazillashishyaptimi? – so‘radi Charli.

– Albatta hazillashishyapti, – deb ishontirdi buvasi. – Hazillashishayotganga o‘xshaydi. Harqalay, hazillashishyapti shekilli! Yana bilmasam.

18. Shokolad daryosidan pastga

– Qani yo‘lga tushdik! – deb qichqirdi janob Vonka. – Shoshilinglar! Ortimdan! Keyingi sexga! Ha, aytgancha, iltimos, Avgust Nodondan tashvishlanmanglar. U albatta chiqindilar ichidan chiqadi. Unga o‘xshaganlar har doim o‘sha yerga tushadi.

Sayohatimizning keyingi bosqichini qayiqda amalga oshiramiz! Mana, qayiq ham tayyor! Iliq shokolad daryosi ustida tuman ko‘tarildi. Kutilmaganda tuman orasidan ajoyib pushtirang qayiq suzib chiqdi. Tumshug‘i va quyruq qismi tepaga baland ko‘tarilgan (qadimda vikinglarda shunday edi) eshkakli ochiq katta qayiq shunchalik kabi yarqirardiki, xuddi shaffof pushtirang shishadan yasalganga o‘xshab nur sochardi. Ikkala tomonidan eshkaklar tushib turardi, qayiq yaqinroq borganda esa hamma – har



bir eshkak yonida kamida o'n nafar umpa-lumpa o'tirganini ko'rdi.

— Bu mening shaxsiy yaxtam! — maqtandi janob Vonka mammuniyatdan yashnab. — Uni ulkan obakidan o'yib yasadim. Juda chiroyli, to'g'rimi? Uning to'lqinni qanday yorib o'tayotganini qaranglar-a!

Yarqirayotgan obaki qayiq qirg'oqqa kelib to'xtadi. Yuztacha umpa-lumpa eshkak eshishdan to'xtab, mehmonlarga taajjub bilan tikilib qoldi va qo'qqisdan hammasi qahqahlab kulib yubordi.

— Ular nega kulishyapti? — so'radi Violetta Byurgard.

— Ahamiyat bermanglar, — dedi janob Vonka. — Ular har doim shunaqa. Hamma narsani hazilga burishadi. Qayiqqa sakranglar! Tezroq!

Hamma o'tirishi bilan umpa-lumpalar kemachani qirg'oq-dan itarib, eshkak eshishga tushishdi, qayiq esa daryodan pastga qarab suzib ketdi.

— Hoy! Mayk Tivi! — qichqirdi janob Vonka. — Iltimos, bortlarni yalama, bo'lmassa, ular yopishqoq bo'lib qoladi.

— Dada, — dedi Veruka Solt, — men shunday qayig'im bo'lishini xohlayman. Menga janob Vonkanikiga o'xshagan katta pushti obaki olib bering! Umpa-lumpam ham ko'p bo'lishini xohlayman. Ular meni qayiqda sayr qildirishlarini xohlayman! Shokoladli daryoni ham xohlayman! Yana... yana...

— Orqasidan shapati yekishni xohlamaydimi? — deb pichirladi Jo buva Charlining qulog'iga.

Qariya qayiqning quyruq qismida o'tirardi, Charli uning yonida edi. Bola buvasining qo'lidan mahkam ushlab olgandi. Uning boshi aylanayotgandi. Hamma ko'rganlari — katta shokolad daryosi, sharshara, shisha quvurlar, so'riladigan shokolad, shakarli maysazorlar, umpa-lumpalar, obaki qayiq, asosiysi esa, janob Villi Vonkaning o'zi — hammasi shun-



chalik ajoyib va g‘aroyib ediki, dunyoda bundan ajoyib va g‘aroyib hech nima yo‘qdek tuyulardi. Ular endi qayerga suzishyapti? Ular yana nimalar ni ko‘rishlari, nimalar bilan tanishishlari kerak? Oldinda yana qanday mo‘jizalar kut-yapti?

— Bularning hammasi aqlga sig‘maydi, to‘g‘rimi? — jilmaydi Jo Buva.

Charli ham bosh irg‘ab, kulib qo‘ydi.

To‘satdan Charlining yonida o‘tirgan janob Vonka qayiq tagidan katta ko‘za chiqardi-da, qayiq bortidan egilib, ko‘zachani daryoga botirib, shokolad suzib oldi va Charliga uzatdi.

— Ich, — dedi u, — bu senga foydali. Rosa ochiqqanga o‘xshaysan.

Janob Vonka keyin yana bitta ko‘zani shokoladga to‘ldirib, Jo buvaga uzatdi.

— Siz ham iching! Quruq suyakning o‘zisiz-ku! Oxirgi vaqtarda ancha qynalganga o‘xshaysizlar?

— Ha, — xo‘rsindi Jo buva.

Charli ko‘zani lablariga yaqin olib keldi va iliq, shirin shokolad asta-sekin og‘ziga, bo‘m-bo‘sh oshqozoniga quyilib kirganda, butun tanasi iliqlik va rohatdan yayrab ketdi. Charlini cheksiz baxt to‘lqini qamrab oldi.

— Yoqdimi? — deb so‘radi janob Vonka.

— Bo‘lmasam-chi! Juda mazali! — pichirladi Charli.

— Men tatib ko‘rgan shokoladlarning eng yaxshisi, — dedi buva lablarini yalab.

— Chunki uni sharshara ko‘pirtiradi, — izoh berdi janob Vonka.

Qayiq oqim bo‘ylab pastga yelib ketayotgandi. Daryo tobora torayib borardi. Oldinda tonnel — ulkan quvurga o‘xshagan katta dumaloq tonnel ko‘rindi, daryo, u bilan birga qayiq ham to‘g‘ri shu quvurning ichiga kirib ketardi.



- Olg‘a! – qichqirardi janob Vonka sakrab, hassasini silkitib. – Oldinga olg‘a! Umpa-lumpalar zo‘r berib eshkak eshishga tushishdi, qayiq qorong‘i tonnelga o‘qdek otilib kirdi, yo‘lovchilar esa qo‘qqisdan ro‘y bergan bu ishdan jo‘rovozda qichqirib yuborishdi.
- Axir ular qayerga qarab eshkak eshishayotganini ko‘rishmayapti-ku! – qorong‘idan Violetta Byurgardning ayanchli qichqirig‘i yangradi.
- Nima farqi bor?! – qahqah urib kulib yubordi janob Vonka.

Eshkakchilar shoshar nega?
 Qaytolmaymiz orqaga.
 Qayerga oqar daryo,
 Oldinda yo‘q nur-ziyon.
 Xalos bo‘lmoqlik bekor,
 Oldinda mavhumlik bor.
 Javob berolmas hech kim,
 Oldda hayot yo o‘lim.

- U aqldan ozibdi! – baqirdi kimningdir otasi. Qolgan ota-onalar ham vahimaga tushib, baqira boshlashdi:
- Ahmoq!
- U jinni bo‘libdi!
- Esini yegan!
- U mast shekilli!
- Telba!
- Jinni!
- Uning hushi joyida emas!
- Esi past!
- Yo‘q, hecham unday emas! – dedi Jo buva.
- Chiroqni yoqing! – qichqiridi janob Vonka.



Shu zahoti ko‘plab chiroqlar charaqlab yondi, butun tonnel sehrli yog‘dudan yorishdi, Charli chindan ham devorlari dumaloq, oq va top-toza ulkan quvurning ichida ekanliklarini ko‘rdi. Quvurda oqim juda tez edi, umpalumpalar bor kuchlari bilan eshkak eshishar, qayiq xuddi raketadek oldinga intilardi. Janob Vonka qayiqning quyruq qismida turib olib, nuqul sakrar, irg‘ishlar, eshkakchilarni tezlardi.

Pushtirang qayiqda oq tonnel ichida shokolad daryosidan pastga suzish unga ulkan zavq bag‘ishlayotganga o‘xshardi, u qarsak chalar, kular, bu g‘aroyib sayohat ularga yoqayotganiga yana bir bor ishonch hosil qilmoqchidek, yo‘lovchilariga xursand qarab qo‘yardi.

— Buva, qarang! — xitob qildi Charli. — Devorda eshik bor ekan!

Chindan ham, tonnelning dumaloq devorida shokolad daryosi sathidan salgina yuqorida yashil eshik ko‘rindi. Qayiq juda katta tezlikda suzib borardi, biroq hamma eshikdagi yozuvni o‘qishga ulgurdi:

54-sonli OMBOR. QAYMOQLAR – SUTLI QAYMOQLAR, KO‘PIRTIRILGAN QAYMOQLAR, BINAFSHALI QAYMOQLAR, QAHVALI QAYMOQLAR, ANANASLI QAYMOQLAR, VANILLI QAYMOQLAR VA SERTUK QAYMOQLAR.

— Sertuk qaymoqlar? — ajablandi Mayk Tivi. — Bunaqasi ham bo‘ladimi!

— Olg‘a! — qichqirdi janob Vonka. — Ahmoqona savollarga javob berishga vaqtim yo‘q!

Qayiq qora eshik yonidan yelib o‘tib ketdi. Unda shunday deb yozilgandi:

71-sonli OMBOR. HAR XIL KATTALIKDAGI XIVICHLAR.



— Xivichlar? — xitob qildi Veruka Solt. — Ular nimaga kerak?

— Qaymoqni ko‘pirtirish uchun, albatta, — izoh berdi janob Vonka. — Qaymoqni xivichsiz qanday ko‘pirtirish mumkin? Qaymoqni xivich bilan ko‘pirtirmasangiz, haqiqiy ko‘pirtirilgan qaymoq bo‘lmaydi; tuxumni xaltada tashimagan bo‘lsangiz, bular xaltachadagi haqiqiy tuxum bo‘lmaydi. Qani endi olg‘a!

Endi ular sariq eshik yonidan o‘tib ketishdi. Unda shunday deb yozilgandi:

77-sonli OMBOR. DONLAR – KAKAO DONLARI, QAHVA DONLARI, JEM DONLARI, SOBIQ DONLAR.

— Sobiq donlar? — kului Violetta Byurgard. — Bunaqasi bo‘lmaydi-ku!

— O‘zing sobiqsan! — qichqirdi janob Vonka.

— Hozir bahs qiladigan vaziyat emas! Qani endi olg‘a!
Tezroq!

Lekin besh soniyalardan so‘ng, qayiq yorqin qizil eshik yoniga yetganda, u birdan hassasini ko‘tarib, baqirdi:

— To‘xta!

19. Ixtiolar sexi. Tamom bo‘lmas obakilar va sertuk irislar

Janob Vonka «To‘xta!» deb baqirganda, umpa-lumpalar qayiq ham keskin tormozlab to‘xtaydi.

Umpa-lumpalar eshkak eshib, qizil eshik yoniga yaqinlashishdi, eshikda shunday yozuv bor edi:

IXTIOLAR SEXI – MUTLAQO MAXFIY – KIRISH MAN ETILADI.

Janob Vonka cho‘ntagidan kalit chiqardi va bortdan egilib, uni qulf teshigiga tiqdi.



— Bu fabrikamdag'i eng muhim sex! — dedi u. — Bu yerda eng yangi maxfiy ixtiolar tug'ilib, sinovdan o'tadi! Qariya Fiklgruber bu yerga mo'ralab qo'yish uchun oxirgi tishini ham bergen bo'lardi! Prodnoz, Slugvort va boshqa iste'dodsizlar haqida esa gapirmsa ham bo'ladi! Endi diqqat bilan qulq solinglar! Hech nima tatib ko'rilmasin, hech nima aralashtirilmasin, hech nimaga tegilmasin! Kelishdikmi?

— Ha, ha! — baqirib yuborishdi bolalar. — Hech nimaga tegmaymiz.

— Bugungi kungacha, — deb davom etdi janob Vonka, — hech kim, hatto bironta ham umpa-lumpa bu yerga kirmagan.

U eshikni olib, qayiqdan to'g'ri zalga qadam qo'ydi. To'rt bola va ularning ota-onasi unga ergashishdi.

— Hech nimaga tegilmasin! — yana bir bor ogohlantirdi janob Vonka. — Beixtiyor biron narsani ag'darib yubormang.

Charli Baket o'zлари kirib qolgan ulkan zalni diqqat bilan ko'zdan kechirarkan, jodugarning oshxonasiga o'xshaydi deb xayolidan o'tkazildi. Hamma yoqda kattakon plitalarda ulkan metall qozonlar qaynab vaqirlar, choynaklar hushtak chalar, tovalar vishillar, g'alati temir mashinalar taraqlab jaranglar, shiftdan va devorlardan ko'plab quvurlar o'tgan, butun xona par, bug' va qandaydir g'alati muattar hidga to'la edi.

Kutilmaganda janob Vonka yanada quvonib ketdi. Bu uning sevimli sexi ekanligi bilinib turardi. U xuddi Rojdestvo sovg'alari oldida ishni nimadan boslashni bilmay dovdirab qolgan boladek, kastryulkalar va mashinalar orasida hakkalab yurardi. Avvaliga u katta qozonning qopqog'ini sal ko'tarib hidladi, keyin qandaydir yopishqoq sariq pyureli bochkaga yopishdi, ichiga barmog'ini tiqib yaladi, keyin qandaydir mashina yoniga sakrab borib, oltita dastakni oldin bir



tomonga, so'ng boshqa tomonga buradi, keyin oynavand eshikdan ulkan plitaga mo'raladi. U nuqul hiringlar, qo'llari-ni mamnun ishqalardi.

Birdan g'alati – QARS, QARS, QARS, QARS – degan ovozlar eshitilayotgan yaltiroq mashina yoniga chopib bordi, har gal QARS deganda, mashina yonida polda turgan savatga katta yashil shisha shar tushardi. Harqalay, u shishaga juda o'xshardi-da.

– Tamom bo'lmas obakilar! – xitob qildi janob Vonka g'ururlanib. – Mening yangi mahsulotim! Uni kundalik xarajatlariga kam pul beriladigan bolalar uchun o'ylab topdim. Abadiy obakini og'zingga solib, so'raverasan, so'raverasan, so'raverasan, so'raverasan, u bo'lsa hecham kamaymaydi!

– Saqichga o'xshar ekan-da! – sevinib ketdi Violetta Byurgard.

– Yo'q, bu saqich emas! – e'tiroz bildirdi janob Vonka. – Saqichni chaynashadi, bu obakini chaynasang, tishing sinadi. Tamom bo'lmas obakilar HECH QACHON kichraymaydi, HECH QACHON erimaydi. Harqalay, menga shunday tuyuladi. Hozir shunday bir obaki qo'shni sex – sinovlar sexida sinovdan o'tyapti. Uni umpa-lumpa shomyapti. U bu obakini bir yildan beri to'xtamay so'radi, obaki esa hali ham o'shanday... – Endi esa bu yoqqa! – qichqirdi janob Vonka va qarama-qarshidagi devor tomonga yugurdi. – Bu yerda men yangi irislar ixtirosi ustida ishlayapman.

U katta kastryulka yonida to'xtadi. Unda quyuq, shirin, yopishqoq suyuqlik vaqirlab qaynardi. Charli oyoq uchida turib, kastryulka ichiga mo'raladi.

– Bular sertuk irislar, – tushuntirdi janob Vonka. – Kichkina bo'lagini tishlasang, roppa-rosa yarim soatdan keyin boshda qalin, quyuq, mayin sochlari, mo'ylov va soqol o'sa boshlaydi.



— Soqol? — qichqirdi Veruka Solt. — Voy xudoyim!
Soqolning menga nima keragi bor?

— Sizga soqol juda yarashgan bo'lardi, miss,— dedi janob Vonka, — lekin, afsuski, irislar hali to'liq tayyor bo'lмаган. Men juda ham kuchli qorishma tayyorladim, ta'siri ham nihoyatda kuchli. Kecha irislarni umpalumpalardan birida sinab ko'rdim. U kichkinagina bo'lagini tishlagandi, o'sha zahoti qalin qora soqol o'sa boshladi, soqol shunchalik tez o'sdiki, ko'p o'tmay qalin gilam bo'lib butun sinov sexining polini qopladi. Oxir-oqibat soqolni olish uchun o't o'radigan mashinadan foydalanishga to'g'ri keldi. Lekin hechqisi yo'q, yaqinda kerakli nisbatni topaman, o'shanda ko'chada bironta ham kal bola yoki bironta kal qizni ko'rmaysiz.

— Lekin, janob Vonka, kal bolalar va kal qizlar bo'lmaydi! — e'tiroz bildirdi Mayk Tivi.

— Bahslashmang, yosh do'stim, iltimos, bahslashmang, — dedi janob Vonka. — Qimmatbaho vaqtingizni bekor ketkazmang. Endi esa bu yoqqa! Sizlarga g'aroyib bir narsani ko'rsataman. Bu — mo'jiza! Bu — mening iftixorim! Faqatgina iltimos qilaman, ehtiyot bo'ling, biron narsaga tegib ketmang, bosib, to'nkarib, ag'darib yubormanglar!

20. Saqich ishlab chiqaruvchi ulkan mashina

Janob Vonka hammani ixtiolar sexi markazidagi ulkan mashina yoniga boshlab bordi. Bu mashina emas, misoli yaltiroq metalldan yasalgan, baland, deyarli shiftgacha yetadigan tog' edi. Uning tepasidan yuzlab ingichka shisha quvurchalar chiqqan bo'lib, bu quvurchalar burilib, tutashib, har tomonga tarqalib, yana tutashib ketgan, oxiri katta bir tugun bo'lib yig'ilib, vannaxonadek keladigan katta dumaloq qozon ustiga osilib tushgandi.



– Ishga tushirilsin! – qichqirdi janob Vonka mashinaning yon tomonidagi uchta tugmani bosib.

Shu zahoti vahimali taraq-turuq eshitilib, mashinaning qattiq qaltirab, titrab ketdi, undan bug‘ ko‘tarilib, shisha quvurchalardan birdan qandaydir suyuqlik oqib, to‘g‘ri katta qozonga oqa boshladi. Har bir quvurchada oqayotgan suyuqlik o‘ziga xos, boshqasiga o‘xshamagan rangda edi, qozonga kamalakning barcha ranglari (yana boshqa ko‘plab ranglar) quyilardi – buni tomosha qilish juda zavqli edi. Qozon deyarli to‘lib qolganda, janob Vonka boshqa tugmani bosdi – rang-barang oqim birdan to‘xtadi, mashinaning ichida nimadir guvillab ketdi, rang-barang suyuqliklarni bitta qilib aralashtirayotgan qozonda esa kattakon mikser ishga tushdi. Suyuqlik ko‘pira boshladi. Ko‘pik tobora ko‘payib borardi, u avvaliga moviy bo‘lib, keyin oqardi, so‘ng yashil, undan so‘ng sariq, keyin jigarrang va nihoyat yana moviy rangga aylandi.

– Qaranglar! – dedi janob Vonka.

Shiq etib, g‘uvillash tindi, mikser to‘xtab, chilpillagan ovoz eshitildi, moviy ko‘pikli bo‘tqa mashinadan g‘oyib bo‘ldi. Jimlik cho‘kdi. Keyin nimadir taraqladi, keyin yana – jimlik. Keyin qo‘qqisdan mashina qulqoni qomat-ga keltirgudek o‘kirdi va shu zahoti mashinaning ko‘zga tashlanmaydigan teshigidan (u o‘yin avtomatidagi tanga tashlanadigan teshikdan katta emasdi) shunday kichkina, kulrang va ko‘rimsiz narsa tushdiki, hamma qandaydir xatolik yuz berdi deb o‘yladi.

Bu narsa kulrang kartonning kichkina bo‘lagiga ham juda o‘xshab ketardi. Bolalar va ota-onalar mitti narsaga taajjub bilan qarab turishardi.

– Shu xolosmi? – miyig‘ida kului Mayk Tivi jirkanib.

– Shu! – dedi janob Vonka faxr bilan. – Nahotki buning nimaligini taxmin qilmagan bo‘lsangiz?



Jimlik cho‘kdi, kutilmaganda Violetta Byurgard, tinmay saqich chaynaydigan o‘sha ahmoq qiz xursand chinqirib yubordi: – Axir bu saqich-ku! Haqiqiy saqich!

– To‘ppa-to‘g‘ri! – qichqirdi janob Vonka va Violettaning yelkasiga urib qo‘ydi. – Bu dunyodagi eng ajoyib, eng g‘aroyib saqich!

21. Xayr, Violetta!

– Bu saqich, – deb davom etdi janob Vonka, – mening eng yangi, g‘aroyib va ajoyib ixtirom! Bu saqich – tushlik. Bu... bu... bu kichkina kulrang ko‘rimsiz narsa – uch xil taomdan iborat tushlik!

– Qanday bema’nilik! – dedi otalardan biri kinoya bilan.

– Hurmatli janob, – xitob qildi janob Vonka, – Bu saqich do‘konlarda paydo bo‘lishi bilan HAMMA NARSA butkul o‘zgaradi! Oshxonalar qolmaydi! Tushlik tayyorlashga, do‘konga borishga, non va go‘sht sotib olishga hojat bo‘lmaydi. Pichoq, sanchqi, likopchalar yo‘qoladi. Hech kim ortiq idish yuvib, axlat tashimaydi! Bunday bema’nilikka chek qo‘yiladi! Vonkaning sehrli saqichi bo‘lsa bas, nonushta, tushlik va kechki ovqat ham tayyor! Sizlar hozir ko‘rib turgan saqich – bu uchta taom – pomidor sho‘rva, rostbif va chernikali pirogdan iborat tushlik! Lekin boshqa taomnomani ham tanlash mumkin, albatta.

– Nima? Shu narsa pomidor sho‘rva, rostbif va mevali pirog demoqchimisiz? – ajablandi Violetta Byurgard.

– Agar uni chaynasang, albatta aynan shu taomlarni yegandek bo‘lassan. Ajoyib, – deya davom etdi janob Vonka, – ovqat og‘zingga, tomog‘ingga, oshqozoningga tushganini sezasan. Uning ta’mini sezasan! Qorning to‘yadi! Mo‘jiza!

– Lekin bunday bo‘lishi mumkin emas! – ishonmasdi Veruka Solt.



— Agar bu saqich bo'lsa... saqich bo'lsa... — qichqirdi Violetta Byurgard, — u ayni menga kerakli narsa! — U o'zining rekord o'rnatgan saqichini og'zidan chiqarib, qulog'inining orqasiga yopishtirdi-da: — Janob Vonka, menga sehrli saqichingizdan tezroq bering, buning qanday mo'jiza ekanligini bir sinab ko'ray! — dedi.

— Violetta, ahmoqlik qilma, — dedi unga Byurgard xonim.

— Saqich chaynagim kelyapti! — takrorladi Violetta o'jarlik bilan. — Bu ahmoqlikka kirmaydi, menimcha.

— Senga bunday qilishni maslahat bermagan bo'lardim, — dedi janob Vonka xushmuomalalik bilan. — Bilasanmi... saqich hali to'liq tayyor emas... Yetishmayotgan yana bir...

— Jin ursin! — jerkib berdi Violetta. Va janob Vonka uni to'xtatib ulgurmay, kichkina kulrang narsani yulqib olib, og'ziga tiqdi. Shu zahoti uning katta, saqich chaynayverib chiniqqan jag'lari ishga tushdi.

— To'xta! — baqirib yubordi janob Vonka.

— Oh, maza! — qoyil qoldi Violetta. — Pomidor sho'rva! Qaynoq, mazali! Tomog'imga quyilayotganini sezyapman!

— To'xta! — baqirardi janob Vonka. — Saqich hali tayyor emas! Uni tatib ko'rish mumkin emas!

— Judayam mumkin-da! — dedi Violetta xotirjam. — Ajoyib-a! Buncha mazali sho'rva-ya!

— Hoziroq tuflab tashla! — qo'ymasdi janob Vonka.

— U o'zgaryapti! — Violetta bir paytning o'zida ham chaynar, ham gapirar va jilmayardi. — Endi bu rostbif! Yumshoq va shirali! Qovurilgan kartoshka ham juda mazali! Xushbo'y va qarsillagan!

— Juda qiziq, — dedi Byurgard xonim. — Sen butunlay ahmoq emas ekansan!

— Chaynayver, chaynayver, qizalog'im! — quvvatladi uni janob Byurgard. — Bugun Byurgardlar hayotida ulug' kun! Bizning qizalog'imiz dunyodagi birinchi tushlik-saqichni sinab



ko‘ryapti! Hamma Violetta Byurgardning g‘aroyib saqichni chaynashini tomosha qilardi. Charli Baket uning katta jag‘lari tinmay qimirlashiga sehrlangandek qarab turardi. Jo buvaning hayratdan og‘zi ochilib qoldi. Janob Vonka esa kuyinib takrorlardi: – Yo‘q! Yo‘q! Yo‘q! U hali tayyormas! Uni chaynash mumkin emas! Hoziroq bas qil!

- Qaymoq va chernikali pirog! – lazzatlanardi Violetta.
- Qoyil! Ajoyib! Chindan ham dunyodagi eng yaxshi chernikali pirogni yeypman!
- O, Xudo! Qizalog‘im, – baqirib yubordi Byurgard xonim, – burningga nima bo‘ldi?
- Tinchlaning, ona, xalal bermang! – qo‘l siltadi Violetta.
- U ko‘karib ketdi! – qo‘llarini bir-biriga urdi Byurgard xonim. – Burning xuddi chernikaday ko‘karib qoldi!
- Onang to‘g‘ri aftyapti! – tasdiqladi janob Byurgard. – Endi siyoh rang bo‘lyapti!
- Nimalar deyapsizlar! – chaynashdan to‘xtamasdi Violetta.
- Yonoqlaring! – chinqirdi Byurgard xonim. – Yonoqlaring ham ko‘karib ketdi! Iyaging ham! Endi butun yuzing ko‘karyapti!
- Hoziroq bu yaramas narsani tuflab tashla! – deb buyurdi janob Byurgard.
- Ey Xudo! O‘zing rahm qil! – ho‘ngrardi Byurgard xonim. – Qizimning hamma yog‘i ko‘m-ko‘k-ku! Hatto sochlari ham! Violetta, bolaginam, senga nima bo‘ldi?
- Saqich hali tayyormas deb ogohlantirgandim-ku, – xo‘rsindi janob Vonka.
- Oghlanligandimmish! – achchig‘i chiqdi Byurgard xonimning. – Qarang, qizalog‘imizga nima bo‘ldi!

Hamma Violettaga qarab turardi. Bu dahshatli holat edi! Yuzi, qo‘llari, oyoqlari, bo‘yni – hammasi, hatto sochlari ham chernika sharbatli rangida edi.



— Har doim shunaqa, — xo‘rsindi janob Vonka, — desertga kelganda, biron narsa yuz beradi. Hammasi chernikali pirog tufayli. Ammo qachondir ma’qul nisbatni topaman, mana ko‘rasizlar!

— Violetta! — dod sola boshladi Byurgard xonim. — Sen shishyapsan!

— Mazam bo‘lmayapti! — ingrab yubordi Violetta.

— Sen shishyapsan! — chinqirdi Byurgard xonim.

— O‘zimni juda yomon his qilayapman! — dedi Violetta.

— Bundan ajablanmasa ham bo‘ladi! — dedi janob Byurgard.

— Voy Xudo, qizginam! — ho‘ngrab yubordi Byurgard xonim. — Havo shariga o‘xshab qolding!

— Chernikaga! — deb uning gapini tuzatdi janob Vonka.

— Vrach chaqiring! — talab qildi janob Byurgard.

— Unga to‘g‘nog‘ich tiqing! — maslahat berdi otalardan biri.

— Uni qutqaringlar! — baqirdi Byurgard xonim kuyinib.

Lekin kech bo‘lgandi. Violetta shunchalik tez shishib, shaklini o‘zgartirayotgandiki, bir daqiqadan so‘ng ulkan ko‘k pufak — kattakon chernikaga aylandi. Qizchadan katta dumaloq mevadan chiqib turgan bir juft kichkina oyoq va bir juft kichkina qo‘lcha-yu tepada zo‘rg‘a ko‘rinayotgan bosh qolgan edi.

— Har doim shunaqa bo‘lib chiqyapti, — xo‘rsindi janob Vonka. — Bu saqichni yigirma marta yigirmata umpalumpada sinab ko‘rsam ham, hammasi chernikaga aylanib qoldi. Esiz! Nimaga bunday bo‘lyapti, tushunmayapman.

— Lekin men qizim chernika bo‘lib qolishini xohlamayman!

— achchiqlandi Byurgard xonim.

— Hoziroq menga qizimni qaytaring! Janob Vonka barmoqlarini shiqirlatgandi, birpasda qarshisida o‘nta umpalumpa paydo bo‘ldi.



— Miss Byurgardni qayiqqa dumalatib, sharbat sexiga olib boringlar, — deb buyurdi janob Vonka.

— Sharbat sexiga? — dodlab yubordi Byurgard xonim. — U yerda qizimni nima qilishadi?

— Siqishadi, — tushuntirdi janob Vonka. — Undan darhol sharbatni siqib olish kerak. U yog‘iga esa ko‘ramiz. Tashvishlanmang, azizam Byurgard xonim, unga yordam beramiz. Afsus, afsus, chindan achinarlik hol.

O‘nta umpsa-lumpa kattakon chernikani ixtiolar sexidan to‘g‘ri shokolad sexiga ochiladigan eshik tomonga dumalatib borishardi. Janob Byurgard va Byurgard xonim umpsa-lumpalar ketidan shoshib ketishdi. Qolganlar voqeani jimgina kuzatishardi.

— Qulq soling! — pichirladi Charli. — Buva, qulq soling! Umpa-lumpalar yangi qo‘sinq boshlashyapti.

Qayiqdan baland jo‘r ovoz eshitildi:

Sigir chaynaydi somon,
 Kavsh qaytaradi har on,
 Lekin bizda Enni Kerr —
 Saqichni sevaman der.
 Saqich chaynar divanda,
 Kinoda o‘tirganda.
 Do‘konda-yu bozorda,
 Maktabda, hamma joyda.
 Chaynardi saqich, qog‘oz,
 Kiyim, surat, gulqog‘oz.
 Gar hech nima qolmasa,
 Bo‘lar stolni chaynasa.
 Tinmas kecha-kunduzi,
 Kattarib ketgan og‘zi.
 Lablari g‘irt jomadon,
 Jag‘lari — katta maydon.



Juda xunuk manzara,
 Chaynab to‘xtamas sira.
 O‘ringa yotganda ham,
 Chaynashdan tinmas bir dam.
 Uyquda saqich chaynab,
 Tilini oldi tishlab.
 Fojia bo‘ldi sodir,
 Kerr tili qotdi oxir.
 Shu haqda so‘zlab biroz,
 Qizni etamiz, xalos.
 Qutulib bu odatdan,
 Yaxshi bo‘lsin qaytatdan.

22. Mo‘jiza-yo‘lak

— Xo‘s, xo‘s, xo‘s, — dedi janob Vonka, — ikkita quloksiz boladan qutuldik. Endi uch nafar yaxshi bokaylar qolishdi. Menimcha, bu yerdan tezroq, yana birontasi bilan xayrlashishimizga to‘g‘ri kelmasdan, ketishimiz kerak.

— Janob Vonka, Violetta Byurgard qachondir yana o‘z holatiga qaytarmikin yoki toabad chernika bo‘lib qolarmikin?
 — so‘radi Charli.

— Undan birpasda sharbatni siqib chiqarishadi! — tushuntirdi janob Vonka.

— Sharbat siqqichga dumalatib tiqishadi, u yerdan esa u yangi niholdek bo‘lib chiqadi.

— Rangi-chi, ko‘k bo‘lib qolaveradimi? — so‘radi yana Charli.

— U siyoh rang bo‘ladi! — xitob qildi janob Vonka. — Boshdan oyoq siyoh rang! Buning hech qanday ajablanarli jihat yo‘q. Bu jirkanch saqichni kunbo‘yi chaynaganda, har doim shunday bo‘ladi!



— Bu saqichni shunchalik jirkanch deb hisoblasangiz, nega fabrikangiz uni chiqaryapti? — deb so‘radi Mayk Tivi.

— Hech jim bo‘lasanmi o‘zi? — jahli chiqdi janob Vonkaning. — Seni eshitishga toqatim yo‘q. Olg‘a! Shoshilinglar! Shoshilinglar! Ortidan! Yo‘lakka qaytamiz!

Janob Vonka ixtirolar sexining narigi tomondagi devoriga yugurib borib, ko‘plab pechlar va quvurlar ortida yashiringan maxfiy eshikchadan lip etib kirib ketdi. Qolgan uch nafar bola — Veruka Solt, Mayk Tivi va Charli Baket va besh nafar ota-onas uning ketidan oshiqishdi. Charli yana ko‘plab pushtirang yo‘laklarga tarmoqlanib ketgan xuddi shunday uzun pushti yo‘laklardan biriga chiqishganini ko‘rdi.

Janob Vonka goh chapga, goh o‘ngga, goh yana chapga, goh yana o‘ngga burilib, oldinda tez chopib borardi.

— Qo‘limni mahkam ushla, Charli, — dedi Jo buva, — bu yerda yo‘qolib qolishing yetmay turgandi.

— Imirsilashni bas qilinglar! — qichqirardi janob Vonka.
— Bu ketishda, hech qachon hech qayerga yetib borolmaymiz!
— U oxiri yo‘q pushtirang yo‘laklardan oldinga, pastga yugurib ketdi, oldinda uning faqat qora shlyapasi ko‘zga tashlanar va to‘q siyoh rang baxmal frakning etaklari shamoldagi bayroqlar singari hilpirardi.

Ular devordagi qandaydir eshik yonidan tezda o‘tib ketishdi.

— U yerga ulgurmaymiz! — qichqirdi janob Vonka. — Tezroq, tezroq!

Yugurib yana bitta eshik yonidan o‘tishdi, keyin yana, yana. Yo‘lak devorlarida eshiklar taxminan har yigirma qadamda uchrar, hammasida bir nima yozilgandi. Ayrimlarining ortida g‘alati jaranglash eshitilar, qulf teshiklaridan ishtahani qitiqlovchi hid chiqar, eshiklar tagidan esa rangbarang bug‘ ko‘tarilardi. Jo buva va Charli janob Vonkadan ortda qolib ketmaslik uchun goh tez qadam tashlab yurishar,



goh yugurishardi, lekin baribir ayrim eshiklardi yozuvlarni o'qishga ulgurishardi.

«YEYILADIGAN ZEFIR YOSTIQCHALARI», deb yozilgandi bittasida.

— Zefir yostiqchalari — juda ajoyib! — qichqirdi janob Vonka eshik yonidan o'qdek uchib o'tarkan. — Ular do'konda paydo bo'lsa, g'aroyib ishlar boshlanadi! Lekin to'xtashga vaqt yo'q. Olg'a! Tezroq! Vaqt ziq!

«BOLALAR XONASI UCHUN SHIRIN GULQOG'OLALAR», — degan yozuv bor edi keyingi eshikda.

— Nihoyatda shirin gulqog'ozlar! — yugurayotib xitob qildi janob Vonka.

— Ularda har xil mevalar — banan, olma, apelsin, uzum, qulupnay, supernay chizilgan...

— Supernay? — so'radi Mayk Tivi.

— Gapimni bo'lma! — achchiqlandi janob Vonka. — Gulqog'ozlarga chizilgan banan, qulupnay yoki supernayni yalasang, og'zingda ularning ta'mini sezasan.

— Supernayning mazasi qanday? — qo'ymasdi Mayk Tivi.

— Yana bir nima deb ming'illayapsanmi? Boshqa safar balandroq gapir. Olg'a! Shoshilinglar!

«SOVUQ HAVODA YEYILADIGAN ISSIQ MUZ-QAYMOQ», deb xabar berardi boshqa eshikdagi yozuv. — Qishda juda foydali! — qichqirdi janob Vonka. — Qahratonda juda yaxshi isitadi. Yana isitadigan ichimliklar uchun issiq muz tayyorlayman. Bunday muzdan ular yanada isituvchan bo'ladi.

«SHOKOLADLI SUT BERADIGAN SIGIRLAR», — deb xabar berdi navbatdagi eshik.

— Oh, mening yoqimtoy sigirchalarim! Ularni shunday yaxshi ko'raman-ki! — hayqirdi janob Vonka.

— Nega ularni ko'rishimiz mumkin emas? — so'radi Veruka Solt.



— Shunday ajoyib eshiklarning yonidan nega tez-tez o‘tib ketishimiz kerak?

— Hamma narsaning o‘z vaqtি bor, sabr qil.

«KAYFIYATNI KO‘TARUVCHI VIJIR-VIJIR ICHIMLIKALAR», keyingi eshik ortida ana shunday yozuv bor edi.

— O, bu ajoyib! — xitob qildi janob Vonka. — U butun tanani pufakchalarga to‘ldiradi, pufakchalarda esa maxsus ko‘kka ko‘taruvchi gaz bor. U xuddi havo shari singari odamni shiftgacha ko‘tarishi mumkin.

— Keyin pastga qanday qilib tushish mumkin? — deb so‘radi Charli.

— Juda oddiy, — tushuntira ketdi janob Vonka, — havoni keskin o‘qchib chiqarib tashlash kerak — gaz tepaga ko‘tariladi, odam esa pastga tushadi. Lekin bu ichimliklarni ko‘chada tatib ko‘rishdan Xudo asrasin! Axir ularning yordamida qanchalik tepaga ko‘tarilish mumkinligini hech kim bilmaydi. Bir kuni hovlida shunday ichimlikni qari umpa-lumpaga ichib ko‘rishga bergan edim, u juda balandga ko‘tarilib ketdi va ko‘p o‘tmay butunlay ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Afsus, u ortga qaytib kelmadи.

— Nega havoni chiqarib yubormadi? — ajablandi Charli.

— Shunday qilishi kerak edi, albatta, — ma’qulladi janob Vonka. — Men pastda turib, «O‘qchib tashla, o‘qchib tashla, qari ahmoq! Uchib ketasan-ku!» deb baqirdim. Lekin u yo bunday qilomadi, yo xohlamadi. Bilmadim, balki, juda yaxshi tarbiya ko‘rganidan bunday qilishni o‘ziga ep ko‘rmagandir. Hozir u Oyda bo‘lsa kerak.

Keyingi eshikda «JILMAYADIGAN KONFETLAR» deb yozilgandi.

— Shoshmanglar, — deb to‘xtatdi janob Vonka mehnolarni, — men bu sex bilan juda faxrlanaman. Kelinglar, ichkariga kiramiz.



23. Jilmayuvchi konfetlar

Hamma eshik oldida yig‘ilib olgan edi. Eshikning yuqori qismi oynavand bo‘lib, Jo buva Charlini hamma narsani yaxshiroq ko‘ra olishi uchun biroz ko‘tardi. Charli u yerda uzun stolni, uning ustida esa kubik shaklidagi oq konfetlar terib qo‘yilganini ko‘rdi. Konfetlar qand bo‘laklariga juda o‘xshardi.

Biroq har bir shunday kubikning qirralarida kulgili basharalar chizilgandi.

Stol atrofida umpa-lumpalar hali bo‘yalmagan konfetlarga basharalar chizishardi.

— Mana shular jilmayuvchi konfetlardir! — xitob qildi janob Vonka.

— Menimcha, ular hecham jilmayuvchiga o‘xshamaydi, — e’tiroz bildirdi Mayk Tivi.

— Bu oddiy konfetlar-ku, — ma’qulladi Veruka Solt, — judayam oddiy.

— Yo‘q, hecham oddiy emas! — achchiqlandi janob Vonka.

— Veruka, azizam, — gapga aralashdi Solt xonim. — Janob Vonkaga e’tibor berma, u seni aldayapti.

— Menga qarang, xonim, — chidolmadi janob Vonka, — qani bu yerdan tuyog‘ingizni shiqillating-chi!

— Men bilan bunday gaplashishga qanday haddingiz sig‘di! — jahli chiqib ketdi Solt xonimning.

— Jim bo‘lasizmi yo yo‘qmi? — uning gapini bo‘ldi janob Vonka. — Qaranglar!

U cho‘ntagidan kalit chiqarib, eshikni ochdi. Eshik lang ochilishi bilanoq chizilgan basharalarning har biri tabassum-dan yoyildi.

— Ko‘ryapsizmi, — dedi janob Vonka g‘urur bilan. — Ular jilmayishyapti! Bular jilmayuvchi konfetlar!



— Chin so‘zim, haqiqatdan ham shunday! — ajablandi Jo buva.

— Qani ortimdan! — qichqirdi janob Vonka va yo‘lakdan yana yugurib ketdi. — Ortimdan! Bir daqiqa ham ushlanib qolmaslik kerak.

«JEM-JIN VA GROGOL-MOGOL» — keyingi eshikda shunday yozuv bor edi.

— Mana bu chindan ham qiziq, — dedi Verukaning otasi, janob Solt.

— Mo‘jizaviy ichimliklar! — xitob qildi janob Vonka. — Lekin umpa-lumpalar undan juda tez mast bo‘lib qolishadi. Sekin! Eshityapsizlarmi?

Eshik orqasidan kulgi va qo‘shiq ovozi eshitilardi.

— Ular rosa ichib olishgan, — izoh berdi janob Vonka. — Jem-jinni sodali suv bilan ichishgan. Bu ularning sevimli ichimligi. Umuman olganda, ular grogol-mogolni ham shunday yaxshi ko‘rishadi. Ortimdan! Bir daqiqa ham kechik-maslik kerak! — qichqirdi janob Vonka chapga, keyin o‘ngga burilib. ularning qarshisida uzun zina paydo bo‘ldi. Janob Vonka zina panjarasidan chaqqonlik bilan sirg‘alib tushdi, bolalar uning ishini takrorlashdi. Bu yerda qolgan ikki ayol — Solt xonim va Tivi xonim oxirida halloslab qoldi. Kalta oyoqli semiz Solt xonim xuddi parovozdek hansirab nafas olardi.

— Bu yoqqa, marhamat! — qichqirdi janob Vonka va lip etib zinaning tagiga kirib ketdi.

— Shoshmanglar! — ingrab yubordi Solt xonim.

— Mumkinmas! — dedi janob Vonka. — Bo‘lmasa, kech qolamiz.

— Qayerga kech qolamiz? — so‘radi Veruka Solt.

— Ahmoqona savollar berma, — urishib berdi janob Vonka uni, — hademay hammasini bilib olasan.



24. Veruka Solt Yong‘oq sexida

Janob Vonka yo‘lakdan pastga chopib ketdi, qolganlar uning ketidan yugurishdi.

«YONG‘OQ SEXI» deb yozilgandi keyingi eshikda.

— Juda soz, — dedi janob Vonka, — to‘xtab, biroz dam olamiz. Hozircha manavi oynavand eshikdan qaranglar. Faqat kirmanglar. Aslo kirmanglar. Bu Yong‘oq sexi. U yerdagi olmaxonlarimni hurkitib yuborishinglar mumkin.

Hamma oynavand eshik oldida to‘plandi.

— Qarang, buva, qarang! — baqirib yubordi Charli.

— Olmaxonlar! — chiyilladi Veruka.

— Buni qarang! — dedi Mayk Tivi.

Bu manzara chindan ham juda qiziq edi. Yuzlab olmaxon yong‘oqqa to‘la katta stol yonida baland kursilarda o‘tirib, aql bovar qilmas tezlik bilan yong‘oqlarni po‘chog‘idan tozalashardi.

— Bu olmaxonlar yong‘oq chaqishga maxsus o‘rgatilgan,
— tushuntirdi janob Vonka.

— Olmaxonlarni nima qilasiz? — so‘radi Mayk Tivi. —
Buni umpa-lumpalar ham qilishi mumkin-ku.

— Olmaxonlarimdan boshqa hech kim bu ishni bunchalik puxta bajarolmaydi — yong‘oqning mag‘zini bo‘lib yubormay po‘chog‘idan ajratish juda qiyin ish. Fabrikamda faqat butun yong‘oq mag‘izlaridan foydalilaniladi, shuning uchun olmaxonlarni afzal ko‘raman. Qarang, axir ular ajoyib emasmi? Ular yong‘oqni tozalashdan oldin aynigan-aynimaganini bilish uchun uni panjalari bilan yaxshilab urib ko‘rishadi. Agar ovoz jaranglab chiqsa, demak, yong‘oq yaroqsiz, olmaxonlar uni tozalashga vaqt sarflashmaydi. Shunchaki axlat tortadigan quvurga tashlab yuborishadi. Qarang! Qarang! Anavi, shundoq eshik yonidagi olmaxon yaroqsiz yong‘oqni topganga o‘xshaydi.



Hamma olmaxonga qaradi, u esa yong‘oqni bir u qulog‘iga, bir bu qulog‘iga yaqin keltirib, panjalari bilan po‘choqni teztez urib taqillatdi va diqqat bilan qulog solib turib, birdan yong‘oqni poldagi katta teshikka tashlab yubordi.

— Oyi! — baqirib yubordi Veruka. — Men nimani xohlayot-ganimni bilaman! Shu olmaxonlardan bittasi meniki bo‘lishini xohlayman!

— Bo‘lmaq‘ur gapni gapirma, azizam, — dedi Solt xonim, — ularning hammasi janob Vonkaniki.

— Menga nima! — baqirishda davom etdi Veruka. — Xohlayman, tamom! Uyda mening atigi ikkita itim, to‘rtta mushugim, oltita quyonim, ikkita uzundum to‘tim, yashil to‘tim, uchta kanareykam, toshbaqam, tilla baliqchalar solingan akvariumim, oq sichqonlar va qari ahmoq og‘maxonim bor! Olmaxonim bo‘lishini xohlayman!

— Mayli, azizam, — uni tinchlantirishga urindi Solt xonim. — Oying ilojini topishi bilan... bironta olmaxonni sotib olib beradi.

— Birontasini xohlamayman! O‘rgatilgan olmaxonni xohlayman! — tinchimasdi Veruka.

Janob Solt — Verukaning otasi ortiq toqat qilolmadi.

— Vonka, — dedi u viqor bilan cho‘ntagidan pulga to‘la hamyonni olarkan, — shu olmaxonlaringizdan bittasini qanchaga berasiz? Narxini aytинг.

— Ular sotilmaydi, ularni sotib olib ham bo‘lmaydi, — xotirjam javob berdi janob Vonka.

— Kim «sotilmaydi» deyapti? — dodlay boshladi Veruka.

— Men hoziroq o‘zimga olmaxon olaman!

— Bunday qilma, — ogohlantirdi janob Vonka, lekin kech bo‘lgandi.

Veruka oynavand eshikni lang ochib, sexga chopib kirdi. U kirishi bilan yuzta olmaxonning hammasi ishini tashlab, o‘girilib qaradi-da, qizchaga munchoqday qora ko‘zлari bilan



ajablanib tikilib qoldi. Veruka bir soniyagagina to‘xtab qoldi. Keyin uning nigohi shundoq yaqinginada, uzun stolning eng chetida o‘tirgan, panjalarida yong‘oq ushlab turgan yoqimtoy kichkina olmaxonga tushdi.

— Juda soz! — dedi Veruka. — Seni olaman!

U shu so‘zlarni aytib olmaxonni ushlab olish uchun qo‘llarini cho‘zdi, lekin... olmaxonlar bir zumda qizg‘ish chaqmoqdek tepaga otilib, soniya o‘tmay Verukaga yopishib ketdi. Yigirma beshta olmaxon uning o‘ng qo‘lini ushlab polga bosdi, yigirma beshtasi — chapini. Yana yigirma beshta olmaxon o‘ng oyog‘ini, yigirma to‘rttasi — chapini ushlab bosdi. Oxirgi olmaxon esa (aftidan, ularning sardori) Verukaning yelkasiga chiqib, panjalari bilan uning boshini taqillata boshladи.

— Uni qutqaringlar! — chinqira ketdi Solt xonim. — Veruka! Hoziroq qayt! Ular qizimni nima qilishyapti?

— Ular qizingizni yong‘oqqa o‘xshab taqillatishyapti, — izoh berdi janob Vonka, — aftidan, miyasining sifatini tekshirishyapti. Qaranglar!

Veruka zo‘r berib yulqinib chiqishga urinar, lekin olmaxonlar uni shunchalik mahkam ushlab turishardiki, u qimirlay olmasdi. Boshliq olmaxon esa hamon panjalari bilan uning boshini do‘mbira qilib chalardi. Kutilmaganda olmaxonlar Verukani polda sudray boshlashdi.

— E Xudo! — xitob qildi Villi Vonka. — Bu qizchaning chirigan yong‘oqdan zarracha farqi yo‘q ekan! Boshi umuman bo‘m-bo‘sh, shekilli.

Veruka qancha chinqirmsin, tipirchilamasin, lekin hammasi behuda edi — kichkina qattiq panjalar uni mahkam ushlab turardi.

— Uni qayerga sudrashyapti? — baqirib yubordi Solt xonim noiloj. — Odatda, bo‘sh yong‘oqlar tashiladigan joyga, — tushuntirdi janob Vonka, — axlat tortadigan quvurga.



– E Xudo! Ular qizimni axlat tortadigan quvurga tiqish-yapti! – dahshatga tushdi voqeani oynavand eshikdan kuzatib turgan janob Solt.

– Uni qutqaringlar axir! – talab qildi Solt xonim.

– Kech bo‘ldi, – xo‘rsindi janob Vonka, – u tushib ketib bo‘ldi.

– Qayerga? – qo‘llarini silkitti Solt xonim. – Bo‘s h yong‘oqlarni qayerga tashlashadi? Axlat tortadigan bu quvur qayerga chiqadi?

– Qayerga? – takrorladi janob Vonka. – Bu quvur fabrikaning hamma axlatlari – hamma chiqindilar va sartilalar, kartoshka po‘choqlari, sasigan karam, baliqlarning boshi va shunga o‘xshash qoldiqlar tashlanadigan asosiy axlat tortadigan quvurga olib boradi.

– Qiziq, fabrikada baliq, kartoshka va karamni kim yeidi? – deb so‘radi Mayk Tivi.

– Albatta men, – dedi janob Vonka. – Meni kakao donlari bilan kun ko‘radi, deb o‘ylayapsizlarmi?

– Lekin... lekin... lekin... axlat tortadigan bosh quvur qayerga olib chiqadi? – qo‘rqib so‘radi Solt xonim.

– Pechga, albatta, – xotirjam javob berdi janob Vonka.

– To‘g‘ri axlat kuydirgichga.

Solt xonim og‘zini katta ochib, yong‘in sirenasi singari dodlardi. – Tashvishlanmang, – dedi janob Vonka. – Aynan bugun axlatni kuydirmasliklari mumkin...

– Mumkin! – qichqirdi Solt xonim. – Bechora Veruka! Uni kolbasaday qovurishadi...

– Menga qarang, Vonka, – gapga aralashdi janob Solt. – Menimcha, bu gal juda haddan oshirib yubordingiz. Balki, qizimning kamchiliklari bordir, lekin bu uni kartoshkaday qarsillatib qovurish kerak degani emas. Bilib qo‘ying, mening qattiq jahlim chiqyapti, ha-ha.



— Iltimos, jahlingiz chiqmasin, janob, — xotirjam javob berdi janob Vonka, — ertami-kechmi qizingiz albatta qaytib chiqadi. Balki, u axlat tortadigan bosh quvurga tushmagandir, yarim yo‘lda tiqilib qolgandir. Unday bo‘lsa, uni hali u yerdan chiqarib olishingiz mumkin.

Bu gapni eshitib janob Solt bilan Solt xonim Yong‘oq sexiga, to‘g‘ri axlat tortadigan quvurning teshigiga otilishdi.

— Veruka! — baqirdi Solt xonim axlat tortadigan quvur ichiga mo‘ralab. — Veruka, shu yerdamisan?

Javob bo‘lmadi. Solt xonim quvurning qorong‘i og‘ziga diqqat bilan tikilib, yanada pastroq egildi. Uning semiz tanasi teshik ustiga osildi, yo‘g‘on gavdasini chuqur chetida zo‘rg‘a ushlab, boshini quvurga tiqdi. Uni yumshoq joyidan... salgina itarish, birozgina itarib yuborish kifoyadek edi... olmaxonlar xuddi shunday qilishdi. Solt xonim cho‘chqachadek chiyillagancha boshi bilan pastga tushib ketdi.

— E Xudo! — hayqirdi janob Solt semiz xotini axlat tortadigan quvurga kirib ketganini ko‘rib. — Bugun axlat juda ko‘payib ketadiganga o‘xshaydi! Xo‘s, Enji past qalay ekan? — qichqirdi u teshikka egilib, pastga qararkan. Olmaxonlar darrov u tomonga otilishdi. — Yordam beringlar! — baqirib yubordi u, lekin kech bo‘lgandi, viqorli jentlmen xotini va qizining ketidan jo‘nadi.

— E Xudoyim! — dedi hamma bilan birga oynavand eshikdan qarab turgan Charli. — Ularga endi nima bo‘ladi?

— Umid qilamanki, pastda ularni kimdir ushlab oladi, — dedi janob Vonka.

— Axlat kuydirgich-chi? — xotirjam bo‘lolmasdi Charli.

— E, bu... U kunora ishlaydi, — uni xotirjam qildi janob Vonka. — Balki, bugun dam olish kunidir. Kim bilsin, balki omadlari kelib qolar...

— Jim, — pichirladi Jo buva. — Eshitinglar! Yana qo‘sish qaytishayotganga o‘xshaydi.



Yo'lakning oxirida do'mbira ovozi eshitilib, qo'shiq yangradi:

Ochko'z Verukaga nima yetmasdi?
 Zerikib o'tirardi, qimir etmasdi.
 Xayoliga nimaiki kelmasin,
 Olib berardi onasi hammasin.
 Mabodo qorong'i tushsami agar,
 Otasi osmondan yulduz keltirar.
 Boylikdan kerilib yurardi yana,
 Axlat quvurga tushib ketdi, mana.
 Verukaning nogoh shilindi qo'li,
 Ko'p jirkanch edi quvurning yo'li:
 Sasigan sabzi-yu sasigan tuxum,
 Yirtiq lattalar-u, tuproq bilan qum.
 Baliqlarning dumi,sovun parchasi,
 Hayvonlar axlati, jirkanch barchasi.
 Bunday bo'lishni unga kim o'rgatdi?
 Quvur ota-onasin ham ketidan jo'natdi.
 Ularga achinmang, kuyinmang bu kun:
 Negaki, aslida bu to'g'ri yakun.

25. Oynali katta uchar lift

– Bunaqasini hech ko'rmanman! – xitob qildi janob Vonka! Bolalar shundoq ko'z oldimda g'oyib bo'lyapti-ya! Lekin bu sizlarni tashvishga solmasin, ularning hammasi axlat bilan birga chiqadi.

Janob Vonka qolganlarga qaradi, ular atigi besh kishi edi: ikki bola, Mayk Tivi va Charli Baket, va uch nafar katta yoshli odam, janob Tivi va Tivi xonim hamda Jo buva.

- Xo'sh, sayohatimizni davom ettiramizmi? – so'radi u.
- Albatta! – jo'rovozda javob berdi Charli bilan Jo buva.



— Mening oyoqlarim charchadi, — zorlandi Mayk Tivi, — undan keyin, televizor ko‘rgim kelyapti.

— Agar charchagan bo‘lsanglar, liftdan foydalanishimiz mumkin, — dedi janob Vonka. — Mana, o‘ziyam xuddi shu yerda! Kiringlar! — U eshik yoniga birinchi bo‘lib yugurib bordi. Tavaqalar surilib, uch katta yoshli kishi va ikki bola liftga chiqdi. — Xo‘sheets?! Qaysi tugmadan boshlaymiz? Tanlanglar!

Charli ajablanib yon-veriga qaradi. Bunaqa liftni u hali hech qachon ko‘rmagandi. Hamma yoqda tugmalar. Devorlar, hatto shift ham behisob kichkina qora tugmalarga to‘la edi. Har bir devordagi tugma mingtadan kam bo‘lmasa kerak, shiftda ham xuddi shuncha. Charli har bir tugma yonida qayerga borish mumkinligidan ogoh etuvchi kichkinagina lavhacha borligini payqadi.

— Bu oddiy lift emas! — faxr bilan tushuntirdi janob Vonka. — Bu uchar lift! U faqat tepaga-pastga emas, o‘ngga ham, chapga ham, qiyalab ham — har qanday yo‘nalishda harakatlana oladi! U bizni fabrikaning, qayerda joylashganidan qat‘i nazar, istalgan sexiga yetkazishi mumkin. Buning uchun faqat tugmani bosish kifoya... Jiring... va siz ko‘zlagan joyingizdasiz.

— Aql bovar qilmaydi! — hayrat bilan tugmalar qatorini ko‘zdan kechirayotgan Jo buvaning og‘zi ochilib qoldi.

— Liftning hamma yog‘i qalin shaffof oynadan yasalgan, — dedi janob Vonka. — Devorlar, eshiklar, shift, pol — hammasi yaxshiroq ko‘rish uchun shishadan ishlangan!

— Lekin bu yerda ko‘radigan narsaning o‘zi yo‘q-ku, — to‘ng‘illadi Mayk Tivi.

— Tugmani tanlanglar! — deb davom etdi janob Vonka. — Bolalarining har biri bittadan tugma bosishi mumkin. Tanlanglar, faqat tezroq. Har qaysi sexda biron shirin va g‘aroyib narsa tayyorlashadi.



Charli lavhachalarni o‘qiy boshladi.

OBAKI KONI – CHUQURLIGI 10000 FUT, – deb yozilgandi lavhachalarning birida.

QAYMOQLI-SHOKOLADLI YAXMALAK, – deb o‘qidi Charli keyingisini.

Keyin... QULUPNAY SHARBATI BILAN O‘QLANGAN SUVLI TO‘PPONCHALAR.

BOG‘INGIZ UCHUN IRISLI OLMALAR – BARCHA O‘LCHAMDA.

DUSHMANLARINGIZ UCHUN PORTLAYDIGAN OBAKILAR.

QORONG‘IDA NUR SOCHADIGAN OBAKILAR.

QO‘SHNI UCHUN YALPIZLI JELE – BITTA HISSASI BIR OYGA YETADI. TISHNI YASHIL RANGGA BO‘YAYDI.

«YO‘QOLSIN DANTISTLAR» – PLOMBALAYDIGAN KARAMEL.

OBAKISO‘RAR QALAMLAR.

LIMONADLI HOVUZ.

SEHRLI QO‘L KONFETLARI – QO‘LINGDA USHLAB TURGANINGDA TA’MINI OG‘ZINGDA HIS QILASAN.

– Tezroq, tezroq! – shoshirardi janob Vonka. – Shundoq ham ko‘p vaqt yo‘qotdik.

– Nahotki butun bir fabrikada televizor ko‘rsa bo‘ladigan bironta xona bo‘lmasa? – deb so‘radi Mayk Tivi.

– Albatta, bor, – dedi janob Vonka. – Marhamat. – U shunday deb TELESHOKOLAD deb yozilgan tugmani ko‘rsatdi.

– Ura! Mana shunisi menga juda mos! – baqirib yubordi Mayk Tivi va tugmani bosdi. Xuddi shu payt nimadir qattiq vishilladi, eshiklar yopildi va lift xuddi bir nima chaqib olqandek joyidan keskin jildi. Lekin u tepaga ham, pastga ham emas, yonga qarab yurgani uchun hamma (shiftdan



osilib turgan kamarni ushlab turgan janob Vonkadan boshqa) polga yiqildi.

— Turinglar, turinglar! — undadi janob Vonka kulib. Lekin yo‘lovchilar turib ulgurmay, lift yo‘nalishini keskin o‘zgartirib, burchakdan burildi va ular yana polga yiqilishdi.

— Yordam beringlar! — chinqirdi Tivi xonim.

— Mening qo‘limdan ushlang, xonim, — nazokat bilan taklif qildi janob Vonka. — Mana shunday. Endi kamarni ushlab oling. Hamma kamarni ushlasin! Sayohat davom etadi!

Jo buva zo‘rg‘a oyoqqa turib, kamarni ushlab oldi. Hali ancha kichkina, kamarga bo‘yi yetmaydigan Charli buvasining oyoqlarini mahkam quchoqlab oldi. Lift raketa tezligida harakatlanardi. Endi yuqoriga, tobora yuqoriga, tepaga harakatlanardi. Birdan, cho‘qqiga yetgan kabi, o‘qdek pastga otildi. Charli o‘z boshini yutib yuborgandek bo‘ldi.

— Ux! — deb yubordi Jo buva.

— Tros uzilib ketdi! Halok bo‘lamiz! — qichqirib yubordi Tivi xonim.

— Tinchlaning, xonim, — dedi janob Vonka va uning yelkasiga qoqib qo‘ydi.

Charli buvasining oyoqlarini yanada mahkam ushlab oldi.

— Ishlar qalay, bolakay? — so‘radi Jo buva.

— Zo‘r! — baqirdi Charli. — Xuddi tog‘dan chanada uchib tushayotgandekmiz!

Lift shiddat bilan tushib borar, shisha devorlardan ajoyib, g‘aroyib manzaralar lip-lip qilib o‘tib ketayotgani ko‘rinib turardi. Kuchli shokolad oqimidan tashkil topgan baland favvora... to‘g‘ri polga quyilayotgan edi. Ulkan iris qoyasi, uning ustida esa (xavfsizlikni ta’minalash uchun alpinistlar singari bir-birlariga bog‘lanib) umpya-lumpalar qoyadan katta bo‘laklarni ko‘chirishardi...

Mashina qand upasini purkar, qor yog‘ayotganga o‘xshardi...



Mana kema suzib yurgan qiyomli ko‘l...

Mana umpa-lumpalar qishlog‘i. Mitti uychalar va ko‘chalar, ko‘chalarda esa yuzlab umpa-lumpachalar – hammasining bo‘yi to‘rt dyuymdan oshmaydi...

Lift nihoyat qulashdan to‘xtadi, ammo yanada tezroq yelib ketdi. Charli shamolning g“uvillayotganini eshitdi. Lift esa goh o‘ngga, goh chapga uchar, aylanar, buralar, o‘girilar, goh yana qular, goh raketa misoli yuqoriga otilar, to‘lg‘onar, sakrab qo‘yardi...

– Hozir qayt qilib yuboraman! – baqirib yubordi qo‘rquvdan rangi oqarib ketgan Tivi xonim.

– Keragi yo‘q, iltimos, – yalindi janob Vonka.

– O‘zimni boshqarolmayman! Yordam bersangiz-chi! – yolvordi Tivi xonim.

– Unda manavini oling. – Janob Vonka shunday deb o‘zining ajoyib qora shlyapasini yechdi-da, ag‘darib, bechora xonimning og‘ziga olib bordi.

– Liftni to‘xtating! – buyurdi janob Tivi.

– Ilojim yo‘q, – dedi janob Vonka xotirjam. – Uchar lift Telemarkazga yetib bormagunimizcha to‘xtamaydi. Muhimi, hozir qarama-qarshi yo‘nalishdagi liftdan hech kim foydalanmasa bo‘ldi.

– Nima? Yana qanaqa qarama-qarshi lift? – chinqirdi Tivi xonim.

– Xuddi shu kondagi, faqat teskari yo‘nalishda harakatlanadigan lift, – izoh berdi janob Vonka.

– Qanday dahshat! – baqirib yubordi janob Tivi. – To‘qnashuv sodir bo‘lishi mumkin demoqchimisiz?

– Shu paytgacha omadim kelgan, – jilmaydi janob Vonka.

– Endi qayt qilishim aniqqa o‘xshaydi! – baqirdi Tivi xonim.

– Yo‘q, yo‘q! Faqat hozir emas! Manzilga yetay deb qoldik! Shlyapamga rahm qiling!



Shu payt tormoz chiyillab, lift sekinlashdi, keyin umuman to‘xtadi.

— Rosa yaxshi sayohat bo‘ldi, — janob Tivi yengil nafas olib, cho‘ntagidan dastro‘mol chiqardi-da, yuzidagi terni artdi.

— Bu yerga boshqa qadam bosmayman! — dedi Tivi xonim g‘azabdan bo‘g‘ilib. Lift eshiklari ochildi.

— Bir daqiqa! — yo‘lovchilarga murojaat qildi janob Vonka. — Hammangiz qulq solinglar! Ehtiyyot bo‘linglar! Bu sexda juda xavfli apparatlar bor. Hech nimaga tegib bo‘lmaydi!

26. Teleshokolad seksi

Tivi oilasi, Charli va Jo buva liftdan chiqishganda kuchli yorug‘lik ko‘zlarini qamashtirdi, ular beixtiyor ko‘zlarini qisib olishdi.

— Manavini taqib, bu yerdan ketmagunimizcha yech-manglar. Bu nurdan ko‘r bo‘lib qolish mumkin, — dedi janob Vonka hammaga qora ko‘zoynak berib.

Charli ko‘zoynakni taqib, atrofnı bemalol tomosha qila boshladı. U uzun tor xonani ko‘rdi. Uning hamma yog‘i oq rangga bo‘yalgandi. Poli ham oq, atrofda zarracha chang-g‘ubor yo‘q.

Shiftdan katta lampalar osilib, xonani oq-havorang yorug‘likka to‘ldirardi. Xona deyarli bo‘s edi. Faqat bitta burchakda g‘ildirakli ulkan telekamera turardi. Uning yonida juda ko‘p umpa-lumpalar g‘imir-g‘imir qilardi: ular nimadir moylashar, qandaydir tutqichlarni aylantirishar, kattakon obyekтивларни artishardi.

Ularning bari juda g‘alati kiyinib olishgandi: yorqin qizil skafandr, shlem va qora ko‘zoynakli (fazogir libosining o‘zi deysiz!) umpa-lumpalar jimjitlikda ishlashardi. Charli ularni kuzatib, qandaydir tushunarsiz qo‘rquvni his qildi. Bu yerda



hamma narsa xavfli tuyular, umpa-lumpalar bu xavfni tuyishardi.

Ular gaplashishmasdi, qo'shiq aytishmasdi, indamasdan, ehtiyyotkorlik bilan o'zlarining yorqin qizil skafandrlarida ulkan qora kamera yonida harakatlanishardi.

Xonaning narigi burchagida, telekameradan ellik qadam narida qora stol yonida umpa-lumpa (u ham qizil ska-fandrda) kattakon televizor ekraniga diqqat bilan tikilib o'tirardi.

— Marhamat, bu yoqqa! — qichqirdi janob Vonka haya-jondan irg'ishlab.

— Bu sexda mening eng yangi va eng buyuk ixtirom — Televizion Shokolad sinovdan o'tmoqda!

— Televizion Shokolad nima? — so'radi Mayk Tivi.

— E Xudo! Qachon gapni bo'lishni bas qilasan-a? — qizishdi janob Vonka. — Bu shokolad televideniyedan beriladi. O'zim televideniyeni yoqtirmayman. Hamma narsaning me'yori yaxshi deb o'ylayman, lekin, bilishimcha, bolalar me'yor bilan cheklanishni bilmay, kunbo'yi televizor qarshisida qaqqayib o'tirishadi.

— Bu men haqimda! — dedi Mayk Tivi.

— Jim bo'l! — do'q urdi janob Tivi.

— Rahmat, — minnatdorchilik bildirdi janob Vonka. — Endi esa sizlarga ajoyib televizorim qanday ishlashini aytib beraman. Ammo avval ayting-chi, oddiy televizor qanday ishlashini bilasizlarmi? Hammasi juda oddiy. Bir burchakda katta telekamera bo'ladi, suratga olish o'shaning vositasida amalga oshiriladi. Olingen tasvir millionlab parchalarga bo'linadi, ular shu darajada maydaki, hatto ko'rinmaydi ham. Bu parchalar elektr yordamida havoga uzatiladi. Ular to bironta uyning tomida antenna bilan uchrashib qolmaguncha havoda uchadi, aylanadi. Keyin mitti tasvirlar simdan to'g'ri televizorga tushadi. U yerda har biri o'z o'rnini egalla-



maguncha aylanib-buraladi. Bu mayda parchalardan bitta katta surat yig‘ish kerak bo‘lgan boshqotirma-o‘yinga o‘xshab ketadi. Ho‘p! Ekranda tasvir paydo bo‘ladi.

- Bu unchalik to‘g‘ri emas, — to‘ng‘illadi Mayk Tivi.
- Negadir chap qulog‘im eshitmayapti-ya, — dedi janob Vonka. — Biron gapingni eshitolmasam, xafa bo‘lmaysan.
- Hammasi unday emas deyapman! — takrorladi Mayk balandroq ovozda.
- Sen yoqimtoy bolasan-ku, — davom etdi janob Vonka, — lekin haddan tashqari sergapsan-da. Xullas, oddiy televizor qanday ishlashini birinchi marta ko‘rganimda, xayolimga juda ajoyib fikr keldi. Agar havo orqali suratlarni millionlab mayda qismlarga bo‘lib, uzoq masofadan uzatish, keyin teleekranda yana bitta butunga yig‘ish mumkin bo‘lsa, nima uchun haqiqiy shokolad bilan ham xuddi shunday ish qilib: shokoladni ko‘plab bo‘laklarga bo‘lib, bu bo‘laklarni havo orqali uzatish, keyin yana bitta butun plitkaga yig‘ib bo‘lmaydi?

- Buning iloji yo‘q! — yana e’tiroz bildirdi Mayk Tivi.
- Sen shunday deb o‘ylaysanmi? — so‘radi janob Vonka.
- Qara! Hozir men shokoladni xonaning bir burchagidan ikkinchi burchagiga televizor orqali uzataman. Tayyorlaning! Shokoladni kiritning!

Xuddi shu soniyada xonaga olti nafar umpa-lumpa tantanavor yurib kirdi. Ular yelkalarida juda katta shokolad plitkasini ko‘tarib kelishardi. Charli bunchalik katta shokoladni biron marta ko‘rmagandi, shokolad u uxbaydigan to‘sakdan kichkina emassi.

- Plitka juda katta bo‘lishi kerak, — tushuntirdi janob Vonka, — axir televizorda biron narsa berishganda, uning o‘lchami ancha kichrayadi. Oddiy televideniyeda odam ekranda hayotdagidan ancha kichkina ko‘rinadi. To‘g‘rimi? Tayyorlaning! Boshlaymiz! Yo‘q! Yo‘q! To‘xtanglar! Mayk! Dar-



rov nari o't! Telekameraga bunchalik yaqin turish mumkin emas! Uning nurlari xavfli, u bir zumda seni millionlab mayda qismlarga ajratib tashlashi mumkin! Shuning uchun ham umpa-lumpalar himoya skafandrlarini kiyib olishgan. Ha, mana endi yaxshi! Tayyorlaninglar! Yoqamiz!

Umpa-lumpalardan biri rubilnikni yoqdi. Kuchli chaqnash sodir bo'ldi.

— Shokolad g'oyib bo'ldi! — xitob qildi Jo buva qo'llarini bir-biriga urib.

Chindan ham, ulkan plitkadan asar ham qolmadi — u havoga singib ketdi.

— U yo'lida! — tushuntirdi janob Vonka. — Hozir u, millionlab mayda zarralarga bo'linib, bizning tepamizda havodan uchib o'tyapti. Tezroq! Ortimdan! — janob Vonka shu so'zlarni aytib, xonaning narigi burchagiga, katta televizor turgan joyga otildi. — Ekranga diqqat qilinglar! Mana u! Qaranglar!

Shu payt televizor ekrani yorishib, markazida kichkina shokoladcha paydo bo'ldi.

— Ol! — qichqirdi janob Vonka.

— Qanday olaman, — kulib yubordi Mayk Tivi, — axir bu bor-yo'g'i teleekrandagi tasvir-ku!

— Charli Baket! — Janob Vonka Charliga o'girildi. — Sen ol! Qo'lingni uzatib, ol!

Charli qo'lini uzatib, ekranga sekin tegdi va birdan... mo'jiza sodir bo'ldi! U barmoqlari shokoladchani siqib turganini his qildi. Hayratdan plitkani tushirib yubo-rayozdi.

— Endi ye! — deb buyurdi janob Vonka. — Bu mening eng shirin shokoladim. Xuddi o'sha plitka. Shunchaki safari davomida ancha kichrayib qoldi. Shu, xolos.

— Aql bovar qilmaydi! — hayqirdi Jo buva. — Bu... bu... bu... mo'jizaning o'zi-ku!



— Endi esa tasavvur qilinglar, — deb davom etdi janob Vonka, — mening ko'rsatuvimni butun mamlakatga ko'rsa-tishyapti. Sizlar uyingizda televizor qarshisida o'tiribsizlar, shunda birdan... ekranda — reklama va kadr ortida ovoz eshitiladi: «Villi Vonka shokoladlarini — dunyodagi eng zo'r shokoladlarni sotib oling. Agar ishonmasangiz, o'zingiz tatib ko'ring!». Siz qo'lingizni uzatib, bemalol shokolad plitkasini olasiz. Qalay, yoqdimi?

— Ajoyib! — qichqirdi Jo buva. — Bu dunyoni ostin-ustun qilib yuboradi!

24. Mayk Tivini televideniyedan uzatishadi

Charlining qo'lida haqiqiy shokoladni ko'rib, Mayk Tivi Jo buvadan kam ajablanmadidi.

— Ayting-chi, — dedi u janob Vonkaga, — televide-niyengizdan yana biron narsa, mana, masalan, makkajo'xori bodroqlarini ham uzatsa bo'ladimi?

— Iltimos, Mayk! Hech qachon menga bu yaramas narsani eslatma! Uni nimadan tayyorlanishini bilasanmi? Qalam ochgandan keyin qolgan qirindilardan.

— Lekin, agar istasangiz, shokolad singari uni ham televideniyengizdan uzata olarmidingiz? — qo'ymasdi Mayk Tivi.

— Albatta!

— Odamlarni-chi? Tirik odamni bir joydan boshqa joyga uzata olarmidingiz?

— Tirik odamni! — achchiqlandi janob Vonka. — Sen butkul aqldan ozibsan!

— Uzata olasizmi yoki yo'qmi? — qo'ymasdi Mayk.

— E Xudo! Qanday bola bu! To'g'risi, bilmayman... Menimcha, uzata olardim... Hoynahoy... Ha, uzata olardim.



Hoynahoy, lekin tavakkal qilmagan bo'lardim – natijasi sira kutilmagan bo'lishi mumkin. Lekin Mayk Tivi unga qulq solmasdi. Janob Vonka «hoynahoy» degan so'zni aytib ulgurmay, Mayk joyidan sakrab turib, darrov xonaning narigi, telekamera turgan burchagiga yelday uchdi.

– Mana, ko'ringlar! – qichqirardi u yugurayotib. – Men shokoladli televideniyedan uzatiladigan dunyodagi birinchi odamman!

– Yo'q, yo'q, yo'q, yo'q! – qichqirdi janob Vonka.

– Mayk! – dodlab yubordi Tivi xonim. – To'xta! Qayt! Axir millionlab mayda bo'laklarga bo'linib ketasan-ku!

Lekin kech bo'lgandi. Endi hech nima Maykni to'xtatilmasdi. Qaysar bola ulkan telekamera yoniga yugurib borib, yonida uymalashib turgan umpsa-lumpalarini itarib yubordida, shartta rubilnikka tashlandi.

– Tez orada ko'rishguncha! – qichqirdi u rubilnikni yoqayotib. Ko'zni qamashtiruvchi chaqnash. Jimlik. Tivi xonim Maykning yoniga otildi, lekin xona o'rtasigacha yugurib borib, qoqqan qoziqdek turib qoldi... U hozirgina o'g'li kirib ketgan joydan ko'z uzmay turdi... turdi.... Keyin shundoq ham katta og'zini katta ochib, baqirib yubordi:

– U g'oyib bo'ldi! U g'oyib bo'ldi!

– E Xudo! U g'oyib bo'ldi! – tasdiqladi janob Tivi.

Janob Vonka tezda Tivi xonimning yoniga borib, yelkasiga sekin qo'lini qo'ydi.

– Yaxshilikka umid qilishdan boshqa iloj yo'q, – dedi u. – O'g'lingiz antennagacha eson-omon yetib olishini Xudodan so'raymiz.

– Mayk! – ho'ngrab yig'lardi Tivi xonim yuzini qo'llari bilan berkitib. – Qayerdasan?

– U millionlab mayda zarralarga sochilib, hozir tepamizdan uchib o'tyapti, – xo'rsindi janob Tivi.



— Unday demang, azizim, — hiqilladi Tivi xonim.
 — Ekranga diqqat qilinglar! — qichqirdi janob Vonka. —
 U istagan paytda paydo bo‘lishi mumkin!

Janob Tivi va Tivi xonim, Jo buva, Charli va janob Vonka ekrandan ko‘z uzishmasdi, lekin u bo‘sh edi.

— Uni juda uzoq uzatishyapti, — janob Tivi peshanasidagi terni artdi.

— Ilohim, — dedi janob Vonka past ovozda, — ilohim, yo‘lda hech nima yo‘qolib qolmasin-da.

— Bu bilan nima demoqchisiz? — so‘radi Tivi xonim sergaklanib.

— Sizlarni qo‘rquitmoqchi emasman, — dedi janob Vonka, — lekin ba’zida televizorga uzatilayotgan buyumning faqat yarmi yetib boradi. O‘tgan haftada shunday bo‘ldi. Noma’lum sababga ko‘ra, ekranga bir butun shokolad plitkasi emas, yarmi yetib bordi.

— Bizga Maykning faqat yarmi yetib keladi, demoqchimisiz? — dahshatga tushdi Tivi xonim.

— O‘sha yarmi uning tepa qismi bo‘ladi deb umid qilamiz, — dedi eri xo‘mrayib.

— Diqqat! — baqirib yubordi janob Vonka. — Ekranga qaranglar! Nimadir bo‘lyapti! Ekran yorishdi. Keyin unda to‘lqinlar ko‘rindi. Janob Vonka tutqichlardan birini buradi, to‘lqinlar yo‘qoldi. Ekran tobora yorishib borardi.

— Mana u! Mana u! — baqirib yubordi janob Vonka. — Bu o‘sha, albatta!

— Butun ekanmi? — tashvishga tushdi Tivi xonim.

— Ishonchim komilmas, — xo‘rsindi janob Vonka. — Hozircha hech nima deb bo‘lmaydi.

Ekranda Maykning avval chaplashgan, keyin tobora aniqlashayotgan tasviri paydo bo‘ldi. U sho‘x jilmayib turar, televizor oldida to‘dalashib olgan tomoshabinlarga qo‘l sil-kirdi.



- Axir u juda kichkina-ku! – hayqirdi janob Tivi.
- Mayk! – baqirib yubordi Tivi xonim. – Yaxshimisan?

Hamma a'zoying joyidami?

- U o'sib ketarmikin? – so'radi eri.
- Biz bilan gaplash, Mayk, – yalinardi Tivi xonim. – Biron narsa de. Men yaxshiman, deb ayt!

Televizordan sichqonnikidek ingichka, chiyillagan, arang ilg'ash mumkin bo'lgan ovoz eshitildi: – Salom, oy! Salom, dada! Menga qaranglar! Men shokoladli televideniyedan uzatilgan dunyodagi bиринчи odamman!

- Ushlanglar uni! Tezroq! – buyurdi janob Vonka.

Tivi xonim qo'lini uzatib, ekrandan mittigina Maykni ushlab oldi.

- Ura! – baqiridu janob Vonka. – Hech nima bo'lmabdi! Hammasi joyida!

– Sizningcha, bu «hammasi joyida» deganimi? – dedi mitti Tivi xonim o'g'li kaftida yugurib, to'pponchalarni silkitayotganini ko'rib.

- U qurib kichrayib qolganga o'xshaydi-ku, – dedi janob Tivi.

– Bu dahshat! – ho'ngrab yubordi Tivi xonim. – Endi nima qilamiz?

- Axir u maktabga borolmaydi-ku! – dedi janob Tivi. – Uni bosib, ezib tashlashadi! Ezib tashlashadi!

– U hech nima qilolmaydi! – baqirib yig'lardi Tivi xonim.

– Hecham-da, qila olaman, – arang eshitilgan chiyillash quloqqa chalindi. – Televizor ko'ra olaman!

– Hech qachon! – baqirib yubordi janob Tivi. – Uyga qaytishimiz bilan o'sha la'nati qutini darhol derazadan uloqtirib tashlayman! Bas!

Bu so'zlarni eshitib Maykning qattiq jahli chiqdi. U onasining kaftida sakrab, dodladi, baqiridu, chinqirib, bechora Tivi xonimning barmoqlarini tishlay boshladи.



— Televizor ko‘rishni xohlayman! — chinqirardi u. — Televizor ko‘rishni xohlayman! Televizor ko‘rishni xohlayman! Televizor ko‘rishni xohlayman!

— Uni menga ber-chi, — dedi janob Tivi, keyin mitti o‘g‘lini oldi-da, kostyumning ko‘krak cho‘ntagiga solib, tepasidan dastro‘mol bilan yopib qo‘ydi. Cho‘ntakdan chinqirish, chiyillash, haqoratlar eshitildi. Kichkina tutqun darhol tashqariga chiqishga uringani uchun cho‘ntak u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.

— Eh, janob Vonka! — yana ho‘ngrab yubordi Tivi xonim.
— Nahotki u hech qachon katta bo‘lmasa?

— Xm... — deb gap boshladi janob Vonka soqolini o‘ychan silab, shiftga tikilgancha. — Bu oson ish emas, albatta lekin kichkina bolalar oson cho‘zilishadi, deyishadi. Biz uni saqichning pishiq va qayishqoqligini tekshirishda foydalanadigan maxsus dastgohda cho‘zishga urinib ko‘ramiz. Balki, avvalgidek bo‘lib qolar.

— Voy, rahmat sizga, — dedi Tivi xonim.
— Arzimaydi, xonim.
— Nima deb o‘ylaysiz, u qanchalik cho‘zilarkin? — so‘radi janob Tivi.

— Balki, bir necha milyaga, — dedi janob Vonka. — Kim bilsin? Harqalay, u anchagina ozadi. Chunki bir nimani cho‘zganda, u ingichkalashadi.

— Saqichga o‘xhabmi? — so‘radi janob Tivi.
— Xuddi shunday!
— Semizligi qanday bo‘ladi? — tashvishga tushib qoldi Tivi xonim.

— Bilmayman, — dedi janob Vonka. — Keyin, buning nima ahamiyati bor? Axir biz uni darrov semirtirib olamiz. O‘ta vitaminlashtirilgan shokoladdan uch hissa bersak bo‘ldi. Bu shokoladimda A, shuningdek, B vitaminlari juda ko‘p miqdorda mavjud. Unda yana V, G, D, Ye, J, Z, I, K,



L, M, N, O, P, S, U, F, X, S, CH, SH, H, E, YU, YA vitaminlari bor. Faqatkina ikkita vitamin? T vitaminini, chunki u ko'ngilni rosa aynitadi, va R vitami yo'q, chunki u boshda shox o'stiradi. Lekin barcha vitaminlarning eng kamyob va eng sehrlesi – Vonka vitaminidan ozroq miqdorda bor.

- U Maykka qanday ta'sir qiladi? – so'radi janob Tivi.
- Bu ajoyib vitamin ta'sirida oyoqdagi barmoqlar cho'zilib, xuddi qo'l barmoqlaridek uzun bo'ladi...
- Oh, yo'q! – baqirib yubordi Tivi xonim.
- Bo'limg'ur gapni gapirmang! – dedi janob Vonka. – Bu juda qulay. U oyog'i bilan pianino chalishi mumkin!
- Lekin, janob Vonka...
- Iltimos, bahslashmang, – uning gapini bo'ldi janob Vonka. U shu so'zlarni aytib, uch marta barmoqlarini shiqillatdi, umpa-lumpalar birpasda yoniga yugurib kelib, saf tortishdi. – Buyruqni bajaringlar! – buyurdi janob Vonka umpa-lumpaga hozirgina o'zi buyruq yozgan bir varaq qog'ozni berib. – Bolani otasining kostyumi cho'ntagidan topasizlar, – qo'shib qo'ydi u. – Ishga kirishinglar! Xayr, janob Tivi! Xayr, Tivi xonim! Keyin, iltimos, xavotirlanmang, o'g'lingizga (umuman olganda, boshqalarga ham) hech nima qilmaydi – fabrikadan axlat bilan birga olib chiqishadi, bo'ldi...

Bu paytda xonaning narigi burchagidagi kamera yonidagi umpa-lumpalar o'zlarining mitti do'mbiralarini urib, ohangga mos irg'ishlab, o'ynay boshlashdi.

– Ana, yana boshlandi, – xo'rsindi janob Vonka. – Endi ularni to'xtatib bo'lmaydi.

Charli Jo buvasining qo'lidan ushladi, ikkovlari uzun yorug' xona o'rtasida janob Vonka bilan birgalikda, umpa-lumpalarning qo'shig'ini eshitishdi. Bu shunday qo'shiq edi:



Quloq soling, ey otalar-u onalar,
 Gapga kiring, o'jar bo'l manglar!
 Axir bu tahqir-ku, axir bu yolg'on,
 Kitob o'rniga televizor ko'rsa inson!
 Kecha-yu kunduz, kunlab, haftalab,
 Bolalaringiz o'tirar «qutiga» qarab.
 Ekrandan ko'z uzmay yeydilar ovqat,
 Televizor ko'rib, uplashar faqat.
 O'yin o'ynashmaydi, sho'xlik qilishmas,
 Avvalgi bolalarga hecham o'xshashmas.
 Quloq soling, ey otalar-u onalar,
 Gapga kiringlar, o'jar bo'l manglar!
 Televizorni qo'ying, yo'q unda ma'no,
 Kitob javonini ko'ringlar a'lo.
 Vaqt o'tib, guvoh bo'lasiz shunda,
 O'zgarish bo'lganin farzandingizda –
 Labida tabassum, ko'zida hayot,
 Ularni chorlaydi Valter Skott.
 Parishon Dikkens-u, quvnoq Rodari,
 Donish Servantes asarlari singari.
 Bembi o'rmonga boshlaydi sizni,
 Alisa esa ko'rsatar mo'jizalarni.
 Tunda albatta ko'rganlarida tush,
 Tushlariga kirib chiqadi Ko'k qush.
 Xohlab qolishadi ummonda suzmoqni,
 Oyga uchib, davlatlarni kezmoqni.
 Mazlum xalqni yovdan asramoqni,
 Don Kixotdek olivyjanob bo'lmoqni.
 Quloq soling, ey otalar-u onalar,
 Gapga kiringlar, o'jar bo'l manglar!
 Televizorni tashlang, oxir-oqibat,
 Bolangiz buning-chun aytadi rahmat!



28. Faqatgina Charli qoldi

— Endi qayerga boramiz? — so‘radi janob Vonka liftga qarab yugurarkan. — Olg‘a! Ortimdan! Tezroq! Shoshilish kerak! Bizda qancha bola qoldi?

Charli va Jo buva bir-biriga qarab oldi. — Ammo, janob Vonka, — qichqirdi Jo buva uning ketidan, — bizda faqatgina Charli qoldi! Janob Vonka to‘xtab, Charliga taajjub bilan qaradi, Charli esa Jo buvasining qo‘lidan mahkam ushlab turardi. Oraga jimlik cho‘kdi.

— Boshqa hech kim qolmadi demoqchimisiz? — yasama taajjub bilan so‘radi janob Vonka.

— Ha, — pichirladi Charli. — Ha.

Shunda janob Vonka sakrab tushib, xursand bo‘lib baqirib yubordi:

— Bolaginam, axir bu sening g‘olib bo‘lganining bildiradi-ku! — U Charlining yoniga sakrab kelib, bor kuchi bilan qo‘lini siqa boshladи. — Tabriklayman! Chin yurakdan tabriklayman! Juda soz! Ajoyib! Bundan yaxshi bo‘lishi mumkin emas! Negadir o‘zim ham g‘olib aynan sen bo‘lishingni avvaldan sezgandim! Barakalla, Charli! Barakalla! Juda zo‘r! Hammasi mana endi boshlanyapti! Lekin shoshilish kerak! Vaqtimiz juda kam, kechgacha hali qancha ishni bajarib ulgurish zarur! Bir o‘ylab ko‘rgin-a, hali qanchadan-qancha topshiriqlarni berishimiz kerak! Oynali katta uchar liftimiz borligi — omadimiz, u bizga yordam beradi. Tezroq, azizim Charli, tezroq, bolakay! Siz ham, Jo buva! Marhamat, janob! Yo‘q, yo‘q, sizdan keyin! Marhamat, bu yoqqa, — shoshirardi janob Vonka. — Bu gal kerakli tugmani bosaman! Janob Vonka Charliga qarab turar, moviy ko‘zлari quvonchdan porlardi. Charli hozir g‘aroyib voqeа sodir bo‘ladi, deb o‘yladi. Lekin qo‘rqmadi, hatto hech qanday bezovtalikni ham his qilmadi, shunchaki g‘alati hayajonni sezdi. Jo buva ham



hayajonlanib ketdi. Janob Vonka esa qo'lini oynali uchar lift shiftidagi tugmalardan biriga cho'zdi.

Charli va Jo buva lavhadagi yozuvni yaxshiroq ko'rish uchun sabrsizlanib bo'ynini cho'zdi. U yerda esa «YUQORIGA VA HECH QAYERGA» deb yozilgandi. Janob Vonka tugmani bosdi. Oynavand eshiklar yopildi.

— Mahkam ushlanglar! — qichqirdi janob Vonka.

BAM! Uchar lift raketaday tepaga otildi.

Jo buvaning og'zi ochilib qoldi. Charli buvasining oyoqlaridan ushlab olgan, janob Vonka esa shiftdan osilib turgan kamarni ushlab turardi. Ular tepaga, borgan sari tepaga, bugal hech qayerga burilmasdan faqat tepaga uchishdi — tashqarida faqat shamol g'uvillar, lift esa tezligini oshirardi.

— Uh! — yana xitob qildi Jo buva. — Uh! Qoyil!

— Tezroq! — qichqirardi janob Vonka lift devorini taqillatib. — Tezroq! Tezroq! Tezlikni oshirmsak, ishimiz o'xshamaydi! Yorib o'tolmaymiz!

— Qaysi ishimiz o'xshashi kerak? Qayerga yorib o'tmoqchisiz? — so'radi Jo buva.

— Eh! — hayqirdi janob Vonka. — Sabr qiling, hademay bilib olasiz! Eh! Har doim shu tugmani juda-juda bosgim kelardi! Lekin botinmasdim. Shu bugungacha botinmasdim. Tomni bekorga teshgim kelmasdi. Bugun esa... Olg'a! Yuqoriga va hech qayerga!

— Aytmoqchisizki... — xavotirga tushib qoldi Jo buva, — aytmoqchisizki, lift chindan ham...

— Ha, ha, xuddi shuni aytmoqchiman, — uning gapini bo'ldi janob Vonka, — ozgina sabr qiling! Hademay hammasi ayon bo'ladi! Yuqoriga va hech qayerga!

— Lekin... lekin... lekin... u oynali-ku! — baqirib yubordi Jo buva. — Axir u sinib chil-chil bo'lib ketadi-ku!

— Bo'lishi mumkin, albatta, — xotirjam javob berdi janob Vonka, — lekin oyna juda qalin.



Lift esa tobora yuqoriga, yuqoriga va yana yuqoriga, tobora tezroq, tezroq, tezroq yelib borardi... Birdan – QARS-QURS! – dahshatli qarsillash va gumburlash eshitildi-yu, xuddi boshlariga nimadir o'pirilib tushgandek bo'ldi.

– Yordam beringlar! Bo'ldi! Tamom bo'ldik! – baqirib yubordi Jo buva.

Janob Vonka esa: – Hammasi joyida! – dedi. – Hammasi o'xshadi! Biz yorib o'tdik!

Uchar lift fabrika tomini yorib o'tgani, endi esa raketa singari yuqoriga uchayotgani, quyosh esa oynali shiftdan o'tib, ko'zni qamashtirayotgani ayon edi. Bir daqiqadan so'ng sayohatchilar osmonda ancha yuqorida edilar.

– Bu lift quturib ketdi! – baqirdi Jo buva.

– Qo'rqmang, janob, – uni tinchlantirdi janob Vonka qandaydir tugmani bosib. Uchar lift shu zahoti to'xtadi va yuqoridan qahramonlarimizga bo'yalgan oktritkaday ko'ringan shaharcha fabrika ustida parvoz qilib, xuddi vertolyot singari havoda muallaq osilib qoldi. Charli oynali poldan pastga qarab, qor bilan qoplangan kichkina ko'chalar va mitti uylarni ko'rди. Qo'qqisdan uni qo'rquv qamrab oldi, oyoqlari ostida bo'shliq bordek, shaffof shisha polda turgandek emas, osmonda uchayotgandek tuyuldi.

– Hammasi joyidami? – qichqirdi Jo buva. – Bu narsani nima ushlab turibdi?

– Shakar kuchi! – tushuntirdi janob Vonka. – Bir million shakar kuchi! Qarang, – u pastga ishora qildi, – ana qolgan bolalar! Ular qaytishyapti, shekilli.

29. Bolalar uyga qaytishmoqda

– Kelinglar, pastga tushib, kichkina do'stlarimiz qanday yashayotganini ko'ramiz, – taklif qildi janob Vonka. U qandaydir tugmani bosdi, lift pastroq tushib, shundoq fabrika



darvozalari ustida osilib qoldi. Charli pastga qarab, bolalar va ota-onalarning darvozadan chiqib ketishayotganini ko‘rdi:

— Nega ular faqat uch nafar? — deb so‘radi u. — Kimdir yetmayapti-a!

— Mayk Tivi, shekilli, — dedi janob Vonka. — Lekin u hademay paydo bo‘ladi. Yuk mashinalarini ko‘ryapsanmi? — janob Vonka fabrika darvozalari yonida qator turgan usti yopiq katta mashinalarni ko‘rsatdi.

— Ha, — dedi Charli. — Ular nimaga u yerda turibdi?

— Oltin chiptalarda nima deb yozilgani esingda yo‘qmi? Har bir bola umrining oxirigacha yetadigan shirinlikka ega bo‘ladi. Har bir bola uchun tepasigacha konfetlar bilan to‘ldirilgan yuk mashinalar karvoni tayyorlab qo‘yilgan. Ana shunday, — dedi janob Vonka. — Ana bizning do‘stimiz Avgust Nodon. Ko‘ryapsizlarmi? Ota-onasi bilan birinchi mashinaga o‘tiryapti!

— Unga hech nima bo‘lmagan, demoqchimisiz? — ajablandi Charli. — Hatto o‘sha dahshatli quvurda tiqilib qolgandan keyin hammi?

— Umuman hech nima, — dedi janob Vonka.

— Lekin u ancha o‘zgaribdi, — dedi Jo buva uchar liftning shisha poli orqali Avgust Nodonga tikilib. — U juda semiz edi-ku, endi bo‘lsa tarashadek ozg‘in bo‘lib qolibdi!

— Buning sirayam ajablanadigan joyi yo‘q, — kulib yubordi janob Vonka. — Axir quvurda u yaxshigina siqilib qolgandi, esingizdami? Qarang! Ana mashhur saqichsevar Violetta Byurgard. Suvini siqib olishga muvaffaq bo‘lishganga o‘xshaydi. Men bundan juda xursandman! Ko‘rinishi ham ancha yaxshi, avvalgidan yaxshi!

— Lekin yuzi hali ham binafsha rang, — deb xo‘rsindi Jo buva. Siz haqsiz, — deb javob berdi mister Vonka.

— Afsuski, bu masalada unga hech qanday yordam berolmaymiz.



– E Xudoyim! – baqirib yubordi Charli. – Bechora Veruka Solt va uning badbaxt ota-onasiga qaranglar! Ular boshdan-oyoq yuvindiga ko‘milgan!

– Ana, Mayk Tivi ham chiqdi, – dedi Jo buva. – E Xudo, rahm qil! Bolani nima qilishgan? Bo‘yi o‘n fut keladi, keyin gugurt cho‘pidek ozg‘in-a!

– Uni saqich cho‘zadigan dastgohda cho‘zishgan, – tushuntirdi janob Vonka. – Beo‘xshov ishlashibdi.

– Bechora! – Charlining Maykka rahmi keldi.

– Bo‘lman gap, – dedi janob Vonka. – Aksincha, uning omadi kulgan! Uni mamlakatning istalgan basketbol jamoasiga qabul qilishadi. Endi esa, – davom etdi u, – bu ahmoqlar bilan xayrlashadigan payt keldi. Qadrli Charli, senga juda muhim bir narsani aytishim kerak. Janob Vonka qandaydir tugmani bosdi va uchar lift yana osmonga ko‘tarildi.

30. Charli Baketning shokolad fabrikasi

Endi oynali uchar katta lift shahar tepasida, balandda uchib borardi. Unda janob Vonka, Jo buva va kichkintoy Charli turardi.

– Shokolad fabrikamni biram yaxshi ko‘ramanki, – dedi janob Vonka pastga qarab, keyin Charliga o‘girildi va birdan juda jiddiy tortib, so‘radi: – Senga-chi, yoqadimi?

– Ha! – xitob qildi Charli. – Menimcha, bu yer yuzidagi eng ajoyib joy!

– Buni eshitishdan juda xursandman, – dedi janob Vonka yanada jiddiyashib. – Ha, buni eshitish men uchun juda, juda yoqimli. Negaligini hozir tushuntiraman. – U boshini biroz egdi, ko‘zlarida yana sho‘x uchqunlar sachradi. – Bilasanmi, bolakay, men uni senga sovg‘a qilishga qaror qildim. Biroz ulg‘ayishing bilan u seniki bo‘ladi.



Charli janob Vonkaga ajablanib qaradi, Jo buva esa nimadir demoqchi bo‘lib og‘zini ochgan edi, lekin bir so‘z ham aytolmadi.

— Ha, ha, — jilmaydi janob Vonka. — Shu fabrikani chindan ham senga sovg‘a qilyapman. Xo‘s, rozimisan?

— Unga sovg‘a qilasiz? — Jo buva hang-u mang bo‘lib qolgandi. — Hazillashayotgan bo‘lsangiz kerak.

— Aslo, men mutlaqo jiddiy gapiryapman.

— Lekin... lekin... nima uchun aynan Charliga?

— Bilasizmi, — dedi janob Vonka, — men endi yosh emasman, o‘ylaganingizdan ham ancha katta yoshdaman, juda charchaganman. Bolalarim ham, oilam ham yo‘q. Bularning barini qoldirib ketadigan insonim ham yo‘q. Lekin ishimni kimdir davom ettirishi kerak-ku, hech bo‘lmasa, umpa-lumpalar uchun! Tushuning, minglab aqlli va udda-buron odamlar fabrikamga egalik qilish huquqi uchungina hamma narsani berishga tayyor, lekin men fabrikamni bunday odamlar qo‘liga topshirishni xohlamayman, umuman fabrika egasi katta yoshli odam bo‘lishini xohlamayman. Axir katta odam hech qachon ishimning davom ettiruvchisi bo‘lmaydi, hech qachon mendan o‘rganishni istamaydi. U hammasini o‘z bilganicha qiladi. Shuning uchun men yosh bolani tanlashga, fabrikani aqlli va qalbi toza bolaga sovg‘a qilishga qaror qildim. Toki tirik ekanman, unga shirinliklar tayyorlashning eng ajoyib sirlarini ochaman, o‘zim bilgan hamma narsani o‘rgataman.

— Oltin chiptalarni shuning uchun tarqatgan ekansida! — xitob qildi Charli.

— Xuddi shunday! — dedi janob Vonka. — Fabrikaga besh nafar bolani taklif qilib, keyin uni menga eng yoqqan bolaga, ya’ni g‘olibga topshirishga qaror qildim.

— Lekin, janob Vonka, — Jo buva hech o‘ziga kelolmasdi, — chindan ham shu kattakon fabrikaning



hammasini Charliga topshirasizmi? Axir... Ammo janob Vonka uning gapini tugatishiga imkon bermadi:

— Hozir gaplashadigan payt emas! Tezroq butun oilangizni — Charlining ota-onasi va qolganlarni olib kelish kerak! Bugundan ular fabrikada yashaydi va ishlarni mustaqil yurita oladigan darajada ulg‘ayguncha Charliga yordam berishadi! Qayerda yashaysan, Charli?

Charli uchar liftning oynali polidan pastda uzoqda yoyilib yotgan qor bosgan shaharga qaradi.

— U yoqda, — deb ko‘rsatdi u, — shahar chekkasidagi anavi kichkina uy...

— Ko‘rdim! — qichqirdi janob Vonka va birdaniga bir nechta tugmani bosdi, uchar lift shiddat bilan pastga, Baketlar uyiga qarab uchdi.

— Oyim biz bilan ketolmaydi deb qo‘rqaman, — ma'yus xo‘rsindi Charli. Chunki u Jozefina buvi, Jorjina buvi va Jorj buvani aslo tashlab ketmaydi.

— Ularni ham olib ketamiz.

— Buning iloji yo‘q, — yana xo‘rsindi Charli. — Ular juda qarib qolgan, mana, yigirma yildirki, karavotdan tushishmaydi.

— Unda, — dedi janob Vonka, — ularni karavotlari bilan birga olib ketamiz. Liftimizda ularning karavotlariga ham joy topiladi.

— Xohlagan taqdirimizda ham, karavotni uydan olib chiqolmaymiz, — e’tiroz bildirdi Jo buva, — u eshikdan sig‘maydi.

— Umidsizlanmang! — qichqirdi janob Vonka. — Dunyoda ilojsiz narsaning o‘zi yo‘q! Mana qarang!

Uchar lift Baketlarning uychasi tomi ustida to‘xtadi.

— Nima qilmoqchisiz? — so‘radi Charli.

— Qo‘nib, butun oilangizni o‘zim bilan olib ketmoqchiman, — deb javob berdi Vonka.



- Qanday qilib? — ajablandi Jo buva.
- Tom orqali, albatta, — tushuntirdi janob Vonka navbatdagi tugmani bosib.
- Yo‘q! — baqirib yubordi Charli.
- To‘xtang! — baqirib yubordi Jo buva.

BUM!

Uchar lift tomni teshib, to‘g‘ri yotoqxonaga qo‘ndi. O‘rinda yotgan bechora qariyalar ustiga chang va sement, cherepitsa va g‘isht siniqlari, o‘rgimchak va suvaraklar yomg‘iri yog‘ildi. Uchovlari ham qiyomat-qoyim bo‘lyapti deb o‘ylashdi.

Jorjina buvi hushidan ketdi, Jozefina buvining protez tishlari tushib qoldi, Jorj buva esa qo‘rqanidan boshi bilan ko‘rpa tagiga kirib ketdi. Bu shovqindan qo‘shni xonadan janob Baket va Baket xonim yugurib kelishdi.

- Qutqaringlar! — qichqirardi Jozefina buvi.
- Tinchlan, azizam, — dedi Jo buva uchar liftdan chiqayotib. — Bu bizmiz.
- Oyi! — baqirib yubordi Charli Baket xonimning qu-chog‘iga otilib. — Oyi! Oyi! Quloq soling! Endi biz janob Vonkaning fabrikasida yashab, unga yordam beramiz. Janob Vonka butun fabrikani menga sovg‘a qildi va... va... va...

- Nimalar deyapsan? — so‘radi Baket xonim.
- Uyimizga nima bo‘lganini qarang! — baqirib yubordi bechora janob Baket. — Butunlay vayron bo‘ldi-ku!
- Hurmatli janob, — janob Vonka shu so‘zlarni aytib, liftdan sakrab tushdi va bor kuchi bilan janob Baketning qo‘lini silkiy boshladi, — siz bilan tanishganidan xursandman. Uyni deb xafa bo‘lmang. Uning endi sizga keragi bo‘lmaydi.

- Bu telba kim? — chinqirib yubordi Jozefina buvi. — Hammamizni o‘ldirib qo‘yayozdi-ku!



— Bu, — dedi Jo buva, — janob Villi Vonkaning shaxsan o‘zi!

Jo buva va Charli qariyalarga bu ajoyib kunda nimalar bo‘lganini aytib berguncha ancha vaqt o‘tdi. Lekin shundan keyin ham uchovlari fabrikaga uchishdan bosh tortishdi.

— Men yaxshisi shu karavotda o‘lamан! — baqirardi Jozefina buvi.

— Men ham! — ma’qullardi Jorjina buvi.

— Uchishdan bosh tortaman, — dedi Jorj buva.

Shunda, janob Vonka, Jo buva va Charli, baqiriq va e’tirozlarga qaramay, karavotni liftga, keyin Charlining ottonasini ham kabinaga itarib kirgizishdi. Janob Vonka tugmani bosdi. Eshiklar yopildi. Jorjina buvi baqirib yubordi. Lift poldan uzilib, tomdagi tuynukdan chiqib, osmonga ko‘tarildi.

Charli karavotga o‘tirib, kutilmagan voqeadan hech o‘ziga kelolmayotgan qariyalarni tinchlantirishga urindi.

— Qo‘rmanglar, — dedi u. — Bizga hech nima xavf solmaydi. Biz dunyodagi eng ajoyib joyga uchyapmiz!

— Charli to‘g‘ri aytyapti, — tasdiqladi Jo buva.

— U yerda biron yegulik bormi? — so‘radi Jozefina buvi.

— Qornim juda och! Oilada hammaning qorni och!

— Biron yegulik? — kulib yubordi Charli. — Biroz sabr qilinglar, hademay hammasini o‘zinglar ko‘rasizlar!

Komila NOSIROVA tarjimasi.





Enn XOGART

MAFIN VA UNING DO'STLARI

Ertaklar

Mafin xazina izlaydi

Bahorning ajoyib kuni edi, eshakcha Mafin bog'da u yoqdan-bu yoqqa xursand yugurar, nima qilsam ekan, deb o'ylardi. U hamma bayramona egar-jabduqlari, yopinchiqlarini o'ziga o'lchab ko'rdi, nonushtasini yeb, ariqlardagi sabzilar qanday o'sayotganini tekshirib bo'lib, endi esa qandaydir mo'jiza yuz berishini orzu qilardi.



Nihoyat o'sha mo'jiza yuz berdi.

Kutilmaganda shamol qayerdandir g'ijimlangan bir varaq qog'ozni uchirib keldi.

Qog'oz Mafinning shundoq peshanasiga urilib, quloqlari orasida tiqilib qoldi.

Mafin uni olib, avaylab ochdi-da, – avval bir, keyin boshqa tomondan ko'zdan kechira boshladи.

Shunda u birdan hayajonlanganidan anchadan buyon nafas olmay qo'yanini sezib, shunday kuch bilan nafas chiqardiki, go'yo u eshak bolasi emas, parovozdeк.

– Buni qarang!.. Axir bu xazina-ku! Ko'mib qo'yilgan xazina. Mana bu esa u berkitilgan joyning chizmasi.

Mafin o'tirib yana qog'ozga tikildi.

– Ha! Topdim! – hayqirdi u. – Xazina katta eman tagiga ko'milgan. Hoziroq borib, uni kavlab olaman.

Lekin shu payt Mafinning orqasida kimningdir og'ir nafas chiqargani eshitildi. Eshakcha tez o'girilib, pingvin Perigrinni ko'rdi, u ham chizmani diqqat bilan ko'zdan kechirayotgandi.

– Axa, bebahо xazina! – pichirladi Perigrin. – Buni uzoq o'ylashga hojat yo'q. Shubhasiz, bu – Janubiy qutb xaritasi. Xazina o'sha yerga ko'milgan! Chang'i, muzni sindirishga bolta ol-da, yo'lga!

«Janubiy qutb xaritasi? – takrorladi ichida Mafin. – Janubiy qutbniki? Dargumon! Men baribir xazina eman tagiga ko'milgan deb o'layman. Qani, chizmani yana bir ko'raychi».

Perigrin xaritani kattalashtirib ko'rsatuvchi oyna bilan ko'zdan kechirishga tushdi, Mafin esa chalqancha yotib, tumshug'ini cho'zdi: u xaritani yotib tomosha qilish yaxshiroq, deb o'yldi.

– Eman, – pichirladi Mafin.

– Janubiy qutb, – ming'illadi Perigrin.



Birdan xaritaga kimningdir soyasi tushdi. Bu habash bolasi Volli edi.

— Axir bu Amerikadagi Luiziana shtati-ku! — xitob qildi u.
— Men o'sha yerda tug'ilganman. Darrov narsalarimni joylab, xazinani izlashga jo'nayman! Ammo u yerga qaysi yo'l bilan borgan yaxshiroq ekan-a?

Uchovlon yana xaritaga tikilishdi.

- Luiziana! — sevinardi Volli.
- Janubiy qutb, — ming'illardi Perigrin.
- Eman, — pichirlardi Mafin.

Birdan hamma turgan joyida sakrab tushdi, chunki shu paytda orqada mayda toshlar qasirlab ketdi. Tuyaqush Osvald paydo bo'lgandi. U uzun bo'ynini cho'zib, xaritaga qaradi-da, jilmaydi.

— Bu, albatta, Afrika! — dedi u. — Men bir paytlar o'sha yerda yashaganman. Hoziroq yo'lga tushaman. Faqat avval chizmani yaxshilab eslab qolish kerak.

- Bu Luiziana! — hayqirdi Volli.
- Yo'q, Janubiy qutb! — e'tiroz bildirdi Perigrin.
- Eman! Eman! — o'zinikini ma'qullardi Mafin.
- Afrika, — pichirlardi Osvald. — Gap bunday, — dedi u,
— men chizmani o'zim bilan olib ketaman! — U bo'ynini cho'zib, tumshug'i bilan qog'ozni ilib oldi.

Xuddi shu lahzada Volli jigarrang qo'li bilan unga yopishdi, Perigrin xaritaning bir burchagini pardali oyo-g'i bilan bosdi, boshqa chekkasiga esa Mafin tishlari bilan yopishdi. Shunda kutilmaganda qayerdandir quloqlarini dikkaytirib, dumini likillatib kuchukcha Piter yetib keldi.

— Rahmat, Mafin! Rahmat, Osvald! Rahmat, Volli va Perigrin! — qichqirdi u tez yugurganidan hansirab.

Hammalari hayratdan xaritani ham unutib qo'yishdi.

- Nima uchun rahmat deyapsan? — so'radi Mafin.



— Qog‘ozimni topganlaring uchun! — dedi Piter. — U shundoq og‘zimdan uchib ketdi, men yo‘qolib qoldi, deb cho‘chigandim. — Sening qog‘ozing? — to‘ng“illadi Perigrin.

— Ha-da, uning yo‘qolishini hecham istamasdim. Axir usiz men xazinamni topolmayman!

— Qanaqa xazina?! — jo‘r ovozda hayqirdi Mafin, Osvald, Volli va Perigrin.

— Bu yerda nima chizilganini tushunmadingizmi? Mana bu bog‘imizning yo‘lagi. Mana bu butalar. Bu esa gulzor. Bu esa — men eng sevimli suyagimni ko‘mib qo‘ygan joy.

Piter shunday deya tishlarida bir parcha qog‘ozni ehtiyyotkorlik bilan tutgancha yugurib ketdi.

— Suyak! — ingrab yubordi Mafin.

— Gulzor! — xo‘rsindi Osvald.

— Butalar! — to‘ng“illadi Perigrin.

— Biz esa tushunmabmiz! — pichirladi Volli.

To‘rtovlon g‘amga botib uyga jo‘nashdi. Lekin ular uyda shirin pechenye bilan choy tayyorligini ko‘rib, darhol taskin topishdi.

Mafin pirog pishiradi

Mafin toshoyna qarshisida turib oshpazlar qalpog‘ini chakkasiga qo‘ndirib oldi, oppoq fartukni bog‘ladi va jiddiy qiyofada oshxonaga yo‘naldi.

U do‘satlari uchun pirog pishirishni niyat qildi — oddiy emas, haqiqiy bayramona pirog: tuxum, olma, qalam-pirmunchoq va turli bezaklar bilan.

U hamma zarur masalliqlarni stolga yoyib qo‘ydi. Bunday pirog uchun juda ko‘p narsa kerak ekan: pazandalar kitobi ham, kosa ham, sariyog‘ ham, tuxum ham, shakar ham, olmalar ham, dolchin ham, qalampirmunchoq ham va yana birtalay turli-tuman narsalar.



— Endi agar meni tinch qo'yishsa va hech kim menga xalal bermasa, ajoyib pirog pishiraman!

Ammo u shunday deyishi bilan deraza orqasida qattiq g'o'ng'illash eshitildi va xonaga asalari uchib kirdi. Uning ko'rinishi juda viqorli bo'lib, panjalarida asal solingan bankani ko'tarib turardi.

— Meni malikamiz jo'natdi! — dedi asalari ta'zim qilib. — U sening shirin pirog pishirmoqchililingni eshitibdi, shuning uchun hurmat bilan shu ozgina asalni qabul qilishingni so'raydi. Tatib ko'r, bu juda totli asal!

— Albatta, — dedi Mafin. — Malikangga tashakkurimni ayt. Ammo tayyorlash yo'riqnomasida asal qo'shish haqida aytilmagan. U yerda shunday deb yozilgan: «Shakar soling...»

— Bo'l-ma-gan gap-p! — jahl bilan g'o'ng'illadi asalari. — Asalarilar malikasi hazrati oliylari rad javobni qabul qilmaydi. Hamma eng yaxshi piroqlar asal bilan pishiriladi.

U shunchalik xiralik bilan g'o'ng'illardiki, Mafin asalni olishga va xamirga solishga rozi bo'ldi.

— Men hazrati oliylariga tashakkuringni yetkazaman! — dedi asalari va panjalarini silkib, derazadan uchib chiqib ketdi.

Mafin yengil tortdi. — Mayli! — dedi u. — Umid qilamanki, shu bir tomchi asal pirogning buzmaydi.

— Xo'sh, xo'sh, bolakay! Pirog pishiryapsanmi? Yaxshi-i-i!

Bu to'tiqush Poppi edi. U derazadan uchib kirib, stolga o'tirib oldi.

— Xo'sh, xo'sh. Juda yaxshi-i. Lekin senga yangi tuxumlar kerak! Men hozirgina sen uchun mana shu kosachaga tuxum qo'ydim. Ol, shunda hammasi joyida bo'ladi, azizim!

Mafin dahshatga tushdi, lekin u doim Poppi bilan xushmuomala bo'lishga harakat qilardi, chunki Poppi juda qari va jizzaki edi.



— Rahmat, Poppi, — dedi u. — Lekin, iltimos, ovora bo‘lma: pirogga solishga tuxumim bor. Tovuqning tuxumi.

Poppining juda jahli chiqdi: tovuqning tuxumi to‘tinkidan yaxshiroq deb o‘ylashga qanday jur’at qildi-ya u!

— Men hecham hazillashmayapman, yosh Mafin! — qichqirdi u jahl bilan. — Yaxshi piroglarga har doim to‘tining tuxumlarini solishadi. Men aytgandek qil-da, bahslashma! — u tuxumli kosani qoldirib, bir nima deb jahl bilan to‘ng‘il-lagancha uchib ketdi.

«Ha mayli, — o‘yladi Mafin, — bitta kichkina tuxum pirogni buzolmaydi. Xamirga asal bilan birga tusha qolsin. U yog‘ini esa pazandalik kitobida yozilganidek qilaman».

Mafin shakar olish uchun oziq-ovqat javoni yoniga keldi. Ammo shu payt quvnoq kulgi ovozi eshitildi, Mafin o‘girilib ikkita kichkina habash bolasi, Volli bilan Mollini ko‘rdi. Ular xamirli idish oldida kuymalanishardi: undan ozgina, bundan ozgina, undan bir chimdim, bundan bir bo‘lak solib, xamirni aralashtirishar, pazandalik kitobiga qarab ham qo‘yishmasdi.

— Menga qaranglar! — baqirib yubordi Mafin jahl bilan. — Pirogni kim qilyapti, menmi yoki sizlar? Mening o‘ziga xos tayyorlash uslubim bor, sizlar hammasini buzasizlar!

Volli bilan Molli esa kulib yuborishdi.

— Achchiqlanma, Mafin, — bidirlab ketishdi ular. — Biz tug‘ma oshpazlarmiz, bizda hammasi o‘z-o‘zidan zo‘r chiqadi. Bizga pazandalik kitoblarining ham, tarozining ham, o‘lchashning ham keragi yo‘q. Biz shirin chiqishi uchun hammasidan oz-ozdan solib, yaxshilab aralashtiramiz. Mana tayyor bo‘ldi, Mafin! Ajoyib! Endi duxovkaga qo‘y, juda mazali pirog chiqadi. Ko‘rishguncha, Mafin!

Volli bilan Molli xursand bidirlab, yopishqoq jigarrang qo‘llaridagi shirin xamir yuqini yalagancha yugurib ketishdi.



— Endi bu xamirni hech nima qilolmayman! — xo'rsindi Mafin. — Faqat duxovkaga tiqib, harorat darajasini to'g'rilaq qo'yish qoldi.

— Harorat darajasini? — orqadan pingvin Perigrinning chiyildoq ovozi eshitildi. — To'g'ri eshitdimmi, yosh Mafin, «harorat» dedingmi? Sen bu so'zning ma'nosini tushunasamni? Albatta, yo'q! O'zim senga yordam beraman... Xavotirlanma, menga qo'yib ber!

Bechora Mafin to Perigrin plita atrofida kuymalanib, unga tushunarsiz qandaydir — «daraja ko'rsatkichi», «simob», «qizib ketish», «cho'g'langanlik darjasasi» kabi so'zlarni, ming"illagancha haroratni o'lchab, o'chirib-yoqqichlarni tekshirguncha ancha kutishga majbur bo'ldi. Nihoyat u pirogning duxovkaga tiqib, eshigini yopdi-da, o'chirib-yoqqichni abjirlik bilan buradi.

— Mayli, — dedi Mafin, — pirogning o'zim pishirishimga imkon berishmasa ham, uni o'zim bezayman.

U boqqa yugurdi, shunda xayoliga ajoyib fikr keldi: pirogning tepasini sabzi poyasi bilan bezasa-chi? U juda chiroyli, patga o'xshaydi. Ammo Mafin jo'yakdan bir bog" yashil poyalarni uzgach, birdan yangi nafarmon qushqo'nmasni ko'rib qoldi. Uni ham uzdi-da, sevingancha guldastasini ko'tarib uyga yugurdi.

Oshxonaga kirgach, qotib qoldi. Perigrin yo'q edi, ammo tuyaqush Osvald kelgandi. Osvald pirogning duxovkadan chiqarib, ustiga egilib olibdi. Mafin yashirinib qarab turdi. Osvald pirogning dumidagi patlari bilan bezatayotgandi... Mafinning burun kataklari titrab ketdi, o'ng ko'zidan asta yosh oqib tushdi. U orzu qilgan ajoyib pirog shu bo'ldimi?

Osvald boshini ko'tarib, eshakni ko'rди.

— Bu yoqqa kel, Mafin! — xitob qildi u xursand. — Pirog pishirayotganiningni eshitib, yo'l-yo'lakay ko'rib ketay dedim.



Uni stolga olib boraman va hammamiz birgalikda choy ichamiz.

— Bo'pti, Osvald!.. — dedi Mafin ma'yuslanib va o'zining chiroyli guldastasini yerga tushirib yubordi. — Shunday bo'la qolsin. Men hozir kelaman. Oshpazlar qalpog'ini yechib qo'yay...

U qulog'ini qimirlatib, birdan boshida qalpoq yo'qligini sezib qoldi. Qayerga yo'qolgan bo'lishi mumkin? U derazadan qaradi, stolning tagini qidirdi, hatto duxovkaning ichida yo'qmikin deb tekshirib ko'rди. Yo'qolibdi! Mafin alamdan o'tirib oldi.

— Voy! — dedi u. — Esladim! Qalpoq boshimdan idishga tushib ketdi, lekin hammalari pirogimni tayyorlashga azbaroyi berilib ketganlaridan uni sezishmadi, men esa uni olishni unutibman. Bilasanmi, Osvald, — qo'shib qo'ydi u, — uni hecham yegim kelmayapti. Lekin umid qilamanki, sizlarning hammangizga pirog yoqadi. Borib biroz aylanib kelaman...

Mafin o'z dumidan norozi

G'amga botgan Mafin bog'dagi olcha daraxti tagida o'tirardi. Agar kimdir shu paytda uni kuzatganda, uning boshini bir o'ngga, bir chapga burib, dumini ko'rishga urinib, bor kuchi bilan bo'ynini cho'zayotganini ko'rgan bo'lardi.

Dum uzun, ingichka, kaltakday to'g'ri, uchida kichkina tuklari bor edi. Mafin alam bilan do'stlarimning birortasida bunday ko'rimsiz dum yo'q, deb o'yladi.

U o'rnidan turdi-da, tyulen Selli silliq qora terisini yaltiratib suzib, sho'ng'ib yurgan kichkina ko'l tomonga yo'l oldi.

— Eh, Selli! — dedi Mafin. — Sening duming juda chiroyli! Menikiga o'xshamaydi...



— Xafa bo'lma, — dedi Sellı mehribonlik bilan. — Agar dumingni juda o'zgartirging kelayotgan bo'lsa, qo'shimcha dumimni bajonidil berib turaman, lekin, menimcha, seniki unchalik yomon emas. O'zingga juda mos va hatto chiroylikkina.

Selli ko'lga sho'ng'idi-da, ko'p o'tmay zaxira dum bilan paydo bo'ldi. Dum jiqqa ho'l edi, chunki suv ostidagi serqoya g'orda saqlanayotgandi.

Selli uni ehtiyotkorlik bilan Mafinning o'z dumи tepasidan mahkamlab qo'ydi.

— Tayyor bo'ldi! — dedi Sellı. — Bu juda foydali dum: u bilan suzish va sho'ng'ish mumkin.

Mafin unga rahmat aytib ulgurmay tyulen yana suvgaga kirib ketdi.

Mafin bunday noodatiy dum bilan o'zini noqulay sezib, ancha vaqt qirg'oqda turdi. Unga dum uni nuqlul suvgaga itarayotgandek, yana ho'l bo'lib yaltirashni, ko'lda suzishni xohlayotgandek tuyulaverdi. Mafin chuqur nafas olib, hayotida ilk bor suvgaga sho'ng'idi. U hamma narsada Selliga taqlid qilishga urinsa-da, hech nimaga erisholmadi. U tosh singari suv tubiga ag'anadi, bir zumdan so'ng esa pishillab, pishqirib, pufaklar chiqarib tepaga ko'tarildi.

— Sellı, — dedi u zo'rg'a. — Sellı! Yordam ber! Yordam ber! Cho'kyapman!

Selli darrov uning yoniga suzib kelib, qirg'oqqa chiqishiga yordamlashdi.

— Iltimos, dumingni qaytib ol, Sellı! — dedi Mafin biroz o'ziga kelganidan so'ng. — U butun umr suvda bo'lishni xohlaydi, men esa bunday qilolmayman. Menga dumingni berib turganing uchun sendan juda minnatdorman, lekin u menga to'g'ri kelmaydiganga o'xshaydi.

Mafin o'ziga kelib olish uchun qirg'oqda biroz o'tirdi, keyin sekin pingvin Perigrinning yoniga yurib ketdi, u



o'zining kulbasi oldida oftobda toblanib, ilmiy kitobni o'qiyotgan edi.

— Dumingiz juda chiroyli, ixcham ekan-a, janob Perigrin! — dedi Mafin. — Mendayam shunaqasi bo'lishini juda xohlardim! Uni, hoynahoy, toza va saranjom tutish oson bo'lsa kerak.

Perigrin juda xursand va mammun bo'ldi. Mafinga mehr bilan qaradi. Quyosh pingvinning orqasini qizdirib turardi, tushlikda yaxshi ovqatlangan, endi esa kitobdan zavqlanayotgan edi. Kimgadir yaxshilik qilgisi kelib ketdi.

— Juda to'g'ri gapiryapsan, yosh Mafin, — dedi u. — Mening dumim chindan ham nihoyatda yaxshi: chiroyli, ozoda, foydali. Tan olishim kerakki, sening duming meniki bilan solishtirganda unchalik yaxshi emas. Bilasanmi, nima? Men senga o'zimning zaxira dumimni berib turaman. U senga juda mos tushadi.

Perigrin po'lat sandiqdan zaxira, o'zi ko'tarib yurgandan biroz kichkina va salgina xiraroq, lekin, umuman olganda, juda yaxshi dumni chiqardi. — Mana, — dedi u dumni Mafinning tanasiga o'rnatib. — Bu dum senga asqotadi. Bu ancha aqli dum, senga o'ylashga yordam beradi.

Perigrin yana kitobga muk tushib, Mafinga ortiq e'tibor bermay qo'ydi. Ko'p o'tmay Mafin Perigrin dumini ilmli va aqli deb, rost aytganiga amin bo'ldi. Dum Mafinni shunday murakkab narsalar haqida o'ylashga majbur qildiki, bir daqiqadan so'ng eshakning boshi og'rib qoldi. U o'zini charchatmaslik uchun o'ylamaslikka urinardi, lekin dum buni istamasdi. Dum eshakchani fikrlashga va jiddiy bo'lishga majburlardi. Axiyri Mafinning sabri tugadi.

— Iltimos, Perigrin, dumingizni oling, — dedi u qisqa qilib. — Bu, albatta, juda yaxshi dum va men sizdan nihoyatda minnatdorman, lekin undan boshim og'rib qoldi.



— Buni taxmin qilishim kerak edi, — dedi Perigrin jahl bilan dumni Mafindan yechib olib, po'lat sandiqqa tiqarkan, — senga o'xshagan badbaxt eshak hech qachon bunga o'xshagan a'lo darajali dumdan foydalanolmaydi! Uni senga taklif qilganimning o'zi kulgili. Hoziroq bu yerdan ket, men qimmatbaho vaqtimni senga o'xshagan eshakka ortiq sarflolmayman!

Mafin olcha daraxti ostiga qaytdi. To'g'ri, uni endi o'z dumidan mamnun edi deb bo'lmaydi, ammo Sellı bilan Perigrinnikidan yaxshiroqligiga ishonch hosil qildi. Shu payt u daraxt orqasida turgan tuyaquush Osvaldni ko'rib qoldi. Osvald olchalarning o'zi og'ziga tushishini kutib turardi. Ammo buning uchun ancha uzoq kutishiga to'g'ri kelardi, chunki daraxt endi gullayotgan edi. Axiyri tuyaquush shoxlarga tikilishni bas qilib, og'zini yopib, xo'rsindi va shundagina Mafinni payqadi.

— Nima bo'ldi, Mafin? — so'radi Osvald. — Ko'rinishing juda ayanchli!

— Dumim qiynab yubordi! — dedi eshak. — Bu qanaqa dum o'zi! U senikiga o'xshagan momiq parlardan iborat bo'lishini rosa xohlardim!

Osvald o'z dumii bilan nihoyatda faxrlanardi. Bu uning yagona boyligi edi, shuning uchun uni juda avaylardi. Ammo Osvald saxiy edi, qolaversa, Mafinni yaxshi ko'rardi.

— Mafin, agar xohlasang, senga eng yaxshi, bayramona ko'rinishdagi dumimni berib turishim mumkin. U yupqa qog'ozga o'ralgan. Birpas kutib tur, hozir olib kelaman.

Osvald uzun, ingichka oyoqlarida sakrab chopib ketdi va ko'p o'tmay tumshug'ida qimmatbaho momiq dumni ko'tarib qaytdi.

— Mana ko'r, — dedi u ehtiyotkorlik bilan dumni ocharkan. — Juda chiroqli, to'g'rimi? Uni ehtiyot qil, o'tirayotganda albatta ko'targin, bo'lmasa, mijig'lab yuborasan.



Osvald ehtiyotkorlik bilan Mafinga momiq dumni ulab qo‘ydi. Eshak tuyaqushga chin dildan tashakkur aytib, uni ehtiyot qilishga va’da berdi. Keyin Mafin mag‘rur qiyofada sayrga otlandi, orqasida esa dumning chiroyli patlari hilpirardi. Biroq hatto tuyaqushning sumi ham Mafinga mos kelmadidi.

U chidab tanani bo‘lmas darajada qitiqlab tashlarkan! Yumshoq momiq parlar Mafinni aqldan ozdiray derdi. U xotirjam qadam tashlolmasdi: ahmoqona qitiqdan qochish uchun irg‘ishlashga, sakrab yurishga to‘g‘ri kelardi.

— Bu menga to‘g‘ri kelmaydi, Osvald! — baqirardi u sakrab, depsinib. — Uni tezroq yechib tashla! Shunday qitig‘im kelyaptiki, aqldan ozaman!

— G‘alati-ku! — dedi Osvald. — Qitiqlashini sira sezmagan ekanman!..

Shunday bo‘lsa ham dumni yechib olib, avaylab yupqa qog‘ozga o‘radi-da, uyga olib ketdi.

Mafin xafa bo‘lib o‘t ustiga o‘tirdi. Yana omadi kelmadidi! Nahotki bechora dumni hech nima qilib bo‘lmasa? Shu payt birdan so‘qmoqda kimningdir qadam tovushlarini eshitdi. Tovush uning yoniga kelganda tindi. Mafin g‘amgin boshini ko‘tardi. Qarshisida Molli — Vollining opasi turardi.

— Ko‘nglingni cho‘ktirma, Mafin! — dedi u. — Nodon-ginam, birovlarining dumining nimasi yaxshi? O‘zingnikini bezaganing ma‘qul. Ona qizining soch turmagi chiroyli bo‘lishini xohlaganda, unga bant bog‘laydi. Kel, seniyam dumingni shunday bezaymiz. Qara, senga qanday lenta olib keldim. Iltimos, dumingni biroz ko‘tar, Mafin!

Mafin itoatkorlik bilan uzun oq dumini ko‘tardi va Mollining nima qilayotganini ko‘raman deb bo‘ynini qayirib olishiga bir bahya qoldi.

— Bo‘ldi! — qichqirib yubordi qiz bir zum o‘tib. — Tur, Mafin, dumingni silkit. Endi qanday chiroyli bo‘lganini



ko'rasan. Mafin uning aytganini qildi va juda mammun bo'ldi: dumining uchiga qizil shoyi bant bog'langandi. Endi uning sumi dunyodagi eng chiroyli dumga aylangandi!

— Rahmat, Molli, — dedi u. — Sen juda mehribon va yaxshisan, buni juda zap o'ylab topding! Yur, buning qanchalik chiroyliligini hammaga ko'rsatamiz!

Mafin mag'rur qiyofada, Molli esa uning yonida yugurib ketdi. Mafin endi o'z dumidan uyalmasdi. Aksincha, undan g'ururlanardi. Yo'lda uchragan hamma Molli bu bezakni juda zo'r o'ylab topganini tasdiqlardi.

Mafin – izquvar

Mafin sirli yo'qolishni payqab qoldi. Bu uni qattiq tashvishga solib qo'ydi. U oshxonaga, har doimgidek, shirin va sersuv sabzi bilan nonushta qilish niyatida kirdi, lekin uni topolmadi. Toza oq likopcha turardi — ammo bironta sabzi yo'q. Ilgari bunday voqeа sira bo'limgan. Mafin o'tirib o'yga botdi.

«Izquvar kerak! — deb qaror qildi u. — Faqat izquvargina bu jumboqni yecha oladi».

Unga ushbu biroz qo'rqinchli — «izquvar», «jumboq» degan so'zlar juda yoqardi...

«Mos shlyapam bo'lganda, o'zim tappa-tuzuk izquvar bo'lardim, — deb o'yladi u. — Hozircha esa meni hech kim taniy olmasligi uchun qalpoqlarni almashtirib, niqoblanishim kerak bo'ladi».

Shunday qilib, u oq qalpog'ini kiyib, jinoyatchini qidirishga otlandi. Bog'dan yugurib o'tarkan, tyulen Sellini ko'rdi. Tyulen juda tashvishli qiyofada shoshib unga qarab kelar va qichqirardi:

— Eh, Mafin, mening koptogim yo'qolib qoldi! Uni daryo yonida qoldirgandim, g'oyib bo'libdi!



— Shundaymi? — dedi izquvar Mafin. — Bu shubhasiz mening narsam yo‘qolishi bilan bog‘liq. Menga hamma tafsilotlarni aytib ber, Sellı, koptokni topib beraman!

Selli voqeа qanday bo‘lganini tushuntirib berdi. Keyin Mafin undan koptokni qoldirgan yerini ko‘rsatishni so‘radi. Qumni hidlab, tekshirib ko‘rgach, u yerdan muhim narsa topdi.

— Aha! — dedi izquvar. — Bular izlar-ku! Shubhasiz, bu dalil bizga jinoyatchini topishga yordam beradi.

U uyga yugurib bordi-da, boshqa qalpoqni kiydi, oq soqol bog‘lab, yana izlashga kirishdi. Nazarida, u juda qari cholga o‘xshardi va hech kim uni taniy olmasdi. Yo‘lda u kuchukcha Piterni uchratdi.

— Salom, Mafin! — qichqirdi Piter.

— Tsh-sh-sh!.. — dedi Mafin. — Men Mafin emasman. Men izquvarman. Men yo‘qolgan sabzilar va koptokni qidiryapman. Bitta dalilni topib bo‘ldim.

— Mening esa sevimli suyagim yo‘qoldi! — dedi Piter g‘amgin.

— Uni gulzorga ko‘mib qo‘ygandim, endi esa u yerda hech nima yo‘q. Agar sen izquvar bo‘lsang, iltimos, suyagimni topib ber. U menga juda kerak.

— Men bilan yur, Piter, — dedi izquvar Mafin. — Uni qayerga ko‘mganingni ko‘rsat.

Piter Mafinga gulzordagi chuqurchani ko‘rsatdi. Mafin haqiqiy izquvardek yerni hidlab ko‘rdi-da, yana bir nima topdi. Bu yana bitta dalil edi.

— Aha! — dedi Mafin. — Bu pat-ku. Endi men jinoyatchi haqida bir nimani bilaman. Uning oyog‘i bor, shu pat unga tegishli.

Buyuk izquvar kiyimini almashtirish uchun yana uyga yugurdi. Uydan chiqqanda, u juda qari chol emas, poxol shlyapa kiygan, sochi kokil chiroylikkina kichkina qiz edi.



Eshak dalil qidirib yana yugurib ketdi va ko‘p o‘tmay pingvin Perigringa urildi.

- Yo‘lingga qarab yur, yosh Mafin! — to‘ng“illadi pingvin.
- Yo‘ldagilarga urilyapsan!

— Jim-m-m!.. — dedi Mafin. — Men Mafin emasman. Men izquvarman. Men niqoblanib olyapman. Yo‘qolgan sabzilar, koptok va suyakni qidiryapman. Ikkita dalil topdim: jinoyatchining bitta oyog‘i va mana bu pati bo‘lgan.

— Agar sen chindan ham izquvar bo‘lsang, — dedi Perigrin, — yaxshisi, mening soatimni qidirib ko‘r. U menga vaqtini to‘g‘ri taqsimlashim uchun kerak.

— Uni oxirgi marta qayerda ko‘rgandingiz? — so‘radi Mafin.

— Chamanzorda, — javob berdi Perigrin.

Mafin chamanzorga olib boradigan yo‘ldan yelib ketdi va butalar orasida nimadir chiqillayotganini eshitdi.

— Aha! — dedi Mafin. — Bu dalil-ku. Endi men jinoyatchi haqida uchta narsani bilaman. Uning kamida bitta oyog‘i bor, yana manavi pati bo‘lgan, undan so‘ng chiqillaydi ham.

Mafin butalar orasida turgan Osvald yonidan yugurib o‘tib, uyiga qaytdi.

Bu gal bog‘da kichkina qiz emas, xitoylik ko‘zboyloqchi paydo bo‘ldi. Shu payt oshxona derazasidan habash bola Volli mo‘raladi.

— Salom, Mafin! — dedi u. — Tuxumlar solingan xaltam qayerga ketganini bilmaysanmi?

— Jim-m-m! — dedi Mafin. — Men Mafin emasman. Izquvarman. Niqoblanib olyapman. Men yo‘qolgan sabzilar, koptok, suyak va soatni qidiryapman. Jinoyatchiga qarshi uchta dalil topdim.

— O, qadrli Mafin, agar sen izquvar bo‘lsang, yo‘qolgan tuxumlarni top! Ular menga juda kerak: choyga pechenye pishirmoqchiman.



— Ular qanday yo‘qolganini aytib ber, — so‘radi Mafin.
Vollahi aytib berdi.

Mafin tuxumlarni qidirib topishga so‘z berdi. U uy va bog‘ atrofidagi hamma o‘tlarni hidlab chiqdi, hamma eshiklardan kirib ko‘rdi, kimdir o‘tib qolganda esa, javonga berkinib oldi. Lekin hech nima topolmadi.

— Ha mayli, — dedi Mafin, — demak, sehr ishlatishga to‘g‘ri keladi.

U bu ishni unchalik yoqtirmasdi, hatto biroz cho‘chirdi ham, chunki har doim ham o‘xshayvermasdi. Ba’zan kutilmagan qiyinchiliklar tug‘ilib qolardi.

Mafin o‘z omborxonasiga kirib, eshikni mahkam yopdi. Do‘satlari tashqarida o‘tirib, uni sabr bilan kutishdi. Ularning ancha kutishlariga to‘g‘ri keldi. Nihoyat quvurdan quyuq qora tutun burqirab chiga boshladi, havoga nimaningdir hidi tarqaldi. Mafin qaytib chiqqanda, sehrli qalpoqchani kiyib olgan, qo‘lida esa qandaydir maxsus buyumni ko‘tarib turardi.

— Bu sehrli apparat, — dedi u. — Unga qaraganimda, hech kim ko‘rolmaydigan narsalarni ko‘raman. Mana, masalan, u orqali Osvaldga qaraganimda, uning ichida, patlari va terisi orasida nima borligini ko‘raman... Voy, Osvald, nimani ko‘ryapman! Mening sabzilarim, yana Sellining koptogi, yana Piterning suyagi, yana Perigrinning soati, yana tuxumli xalta!.. Eh, Osvald, bularning hammasini sen yutib yuboribsang-ku!

Osvald xijolatli qiyofada turardi, hammaning og‘zi ochilib qoldi. Keyin jo‘r ovozda tilga kirishdi:

- Mening soatim!
- Mening sevimli suyagim!
- Qanday ochko‘z qush!
- Endi nima qilamiz?
- Qanday qilib ichidan olsa bo‘ladi?



Faqat Osvald jim edi.

— Bu yerda yangi sehr ishlatisch kerak, — dedi Mafin va salobatli qiyofada omborxonaga qaytdi.

U yerdan qo'lida qarmoq bilan qaytib chiqdi. Balki bu qarmoq ham emas, sehrli qamchi bo'lgandir, kim bilsin? Balki unisi ham, bunisi hamdir. Mafin sehrli qarmoqni silkitishi bilan qandaydir g'alati ovoz eshitildi va shu zahoti Vollining qarshisida tuxumlar solingan xalta paydo bo'ldi. Yana bir silkigandi — Perigrin soatini qaytib oldi. Bir siltash bilan Piterga sevimli eski suyagi qaytdi. Keyin Sellı koptogini qaytib oldi va nihoyat, Mafin — bir bog' sabzisini.

— Mana, — dedi Mafin, — endi hammasi joyida.

Hamma Mafinni o'rab olib, unga astoydil minnatdorchilik bildira boshladi.

— Men charchadim! — dedi u. — Bu — birdaniga ham izquvar, ham sehrgar bo'lish juda qiyin! — yana shunday deb qo'shib qo'ydi: — Uyga boraman, sabzi yeypman-da, miriqib uxlayman. Ko'rishguncha!.. Darvoqe! Osvaldni butunlay unutibman... Bilasanmi, nima, Osvald? Oshxonaga kirib, biron narsa ye, faqat yesa bo'ladigan narsani! Adashib kastryulka yoki qoshiqni yutib yuborma.

Mafin va uning mashhur qovoqchasi

Hamma bo'lajak meva va sabzavotlar ko'rgazmasi haqida gapirardi. Quyosh nuriga cho'milgan jo'yaklarda va issiqxonalarda ulkan piyozlar va pomidorlar yetishtirilardi. Shirin olmalar, olxo'ri va noklar hech kim uzib olmasligi va ziyon yetkazmasligi uchun kecha-yu kunduz qo'riqlanardi.

— Men esa ko'rgazmaga qovoqcha jo'nataman! — deb qoldi eshak Mafin.

Har doim viqorli ko'rinishni yoqtiradigan pingvin Perigrin unga ko'zoynagi tepasidan qaradi.



– Nima uchun qovoqcha? – so‘radi u. – Menga tushuntirib ber, yosh Mafin, nima uchun qovoqchani ko‘rgazmaga qo‘ymoqchisan?

– Buning uchta sababi bor, – javob berdi Mafin. – Hozir tushuntirib beraman.

Perigrin bir nima deb ulgurmasdan Mafin o‘rnidan turib, bitta tuyog“ini stolga qo‘ydi-da, «Kxe! Kxe!» deb yo‘talib olib, gap boshladi:

– Birinchidan, qovoqcha qayerda o‘sishiga e’tibor bering. U boshqa o‘simliklardan yuksalib, tepalikda o‘sadi. U qasrdagi qiroqla o‘xshaydi. Men uning yoniga o‘tirib olaman, hamma: «Qaranglar, bu eshakcha Mafin va uning qovoqchasi!» deb aytadi. Qovoqcha yetishtirmoqchiligidan ikkinchi sababi shuki, menga uning chiroylakkina sariq gullari yoqadi: ular kichkina naychalarga o‘xshaydi. Uchinchidan, katta qovoqchani ko‘rgazmaga aravada olib borish kerak. Uni qandaydir olmalar yoki olxo‘rilar, yoki noklardek olib borib bo‘lmaydi. Yo‘q! U juda muhim mahsulot, shuning uchun oziq-ovqat sumkasiga yoki qog‘oz xaltaga solib bo‘lmaydi. Uni aravaga ortib, tantanali tarzda olib borish kerak, hamma uning egasiga tan berib qaraydi.

– Takabburlik yaxshilikka olib bormaydi! – dedi Perigrin, Mafin uzun nutqini tugatganda. – Ko‘zoynaksiz bunday qovoqchalarni ko‘rib bo‘lmaydi, – ming‘illadi u va sudralib nari ketdi. Mafin Perigrinning fe’l-atvoriga o‘rganib qolgandi, lekin baribir rejasি uni qiziqtirib qo‘yadi deb o‘ylagandi.

Birdan bir narsa esiga tushdi.

– O Perigrin! – deb chaqirdi u. – Sizga aytishni unutibman! Siz qovoqchaning urug‘larini hech ko‘rganmisiz? Ularni quritish, bo‘yash va munchoq yasash mumkin!..

Ammo Perigrin qayrilib qaramadi. U so‘qmoqdan astasekin ketib borardi.



«Nima deganimni eshitdi-ku!..» – o'yladi Mafin uning ortidan qarab.

Keyin omborxonaga kirdi, belkurak, panskha va bog'dorchilik kurakchasi oldi, hammasini savatga joyladi, qovoqcha urug'larini ham olib, tomorqaga yo'l oldi. U qimmatbaho qovoqchaning urug'larini ekish mumkin bo'lgan joyni uzoq vaqt qidirdi. Nihoyat mos yer bo'lagini topdi, asboblarni yerga qo'ydi-da, yerni qazishga kirishdi. U yerni tuyoqlari bilan kovlardi. Goh old, goh orqa oyoqlari, gohida esa tumshug'i bilan.

U olib kelgan asboblarini ishlatmadi: belkurakni ham, panskhanani ham, kurakchani ham. Bularni haqiqiy polizchi ekanligini ko'rsatish uchungina olib kelgandi.

Mafin mos chuqurni tayyorlagach, qovoqcha urug'ini ekib, suv quydi va yaxshilab bosib, yerni tekisladi. Keyin asboblarni shiypon tagiga olib qo'yib, choy ichish uchun uyga ketdi. U ancha ishlab, endi qorni ochganini his qilgandi.

Mafin uchun mehnat qiladigan kunlar keldi. U jo'yakni qo'riqlashi va unda begona o'tlar o'smasligi uchun qarab turishi kerak edi. Quruq kunlarda yerni sug'orish, issiq kunlarda esa quyosh nurlaridan pana qilish zarur edi. Lekin Mafin hammasidan ham qovoqcha qanday o'sayotganiga qarab charchardi. Ba'zan kechqurun qovoqchani kuchga to'lib himoyalash uchun kunduzi uxbor olishga urinardi.

Nihoyat kichkina nozik o'simlikcha paydo bo'ldi. U tobora o'sib borardi. Ko'p o'tmay unda uzun, osilib turadigan yashil novdalar va Mafin Perigringa tasvirlab bergan chiroyli sariq gullar paydo bo'ldi. Bir kuni mittigina qovoqcha ko'rindi. U kun o'tgan sayin kattalashib borardi. Ertalablari Mafin do'stlaridan birortasini qovoqchani ko'rishga taklif qilardi. Avvaliga do'stlar norozilanib vaysab yurishdi, lekin qovoqcha kattalashib, dumaloqlashib, tobora uzun va yaltiroqlashib borgani sari unga qiziqib qolishdi.



Perigrin hatto bir kuni uzunlik o'lchovchi asbobni olib kelib, qovoqchaning bo'yи va enini o'lchay boshladi, natijasini esa muqovasiga «Turli xil qovoqchalar katalogi» degan so'zlar bitilgan kitobchaga yozib qo'ydi.

«Perigrin qovoqchaga g'ilof tikmoqchidir-da, – o'yladi Luiza laqabli qo'y. – Bo'lmasa bunchalik aniq o'lchamning unga nima keragi bor?»

Meva va sabzavotlar ko'rgazmasi kuni yaqinlashmoqda edi. Qovoqcha esa tobora kattalashib borardi. Mafin va uning do'stlari qattiq hayajonda edi. Eshakcha aravani olib, uni yashil va oq ranglarga bo'yadi. Olib ketayotganda qovoqcha u tomondan bu tomonga ag'darilib, yorilmasligi uchun tagiga bir bog' somon tashladi. Mafin qovoqcha yonida yotib, oftobda toblanishni va o'z qovoqchasini ko'chalardan qanday olib ketishini, yo'lda uchragan hammaning: «Qaranglar, bu eshak Mafin o'zining ajoyib qovoqchasini olib ketyapti!» deyishini tasavvur qilishni odatga aylantirgandi. Ulug' kun keldi.

Havo iliq, ochiq va yoqimli edi. Mafin tongdanoq sakrab turdi-da, barcha do'stlari hamrohligida qovoqchani yaltiratib artish uchun yumshoq latta olib tomorqaga jo'nadi. Oxirgi bo'lib Perigrin o'tkir pichoq ko'tarib bordi.

Do'stlar Mafin va uning qovoqchasi atrofida yarimdoira shaklida turib olishdi. Perigrin oldinga bir necha qadam yurib, Mafinga pichoqni berdi va yana joyiga chekindi. Mafin qovoqcha ustiga egilib, kutilmaganda uning dumaloq, silliq biqiniga qulog'ini tutdi.

Hamma nafasini ichiga yutib kuzatardi: ular Mafin taajjubga tushganini payqashdi. U birdan qaddini rostladi, qovoqchani aylanib o'tdi va boshqa tomondan qulog'ini tutdi. Keyin qovog'ini uyib, do'stlariga qaradi-da, pichirladi:

– Yaqinroq kelinglar. Jim. Qulq solinglar!

Hayvonlar oyoq uchida ovoz chiqarmay yaqin kelishdi va qulqlarini qovoqchaga tutib eshitashdi. Qovoqchada



nimadir shitirlar, ming“illar, chiyillardi. Shunda hayvonlar qovoqchaning atrofidan aylanib o‘tib, u tomonidan quloq sola boshlashdi. Bu yerda shovqin kuchliroq edi.

— Qaranglar! — qichqirib yubordi Mafin.

Hamma shu zahoti u ko‘rsatgan tomonga qaradi. Pastda, qovoqchaning yerga qaragan tomonida kichkina dumaloq teshik bor edi. Perigrin oldinga bir necha qadam tashladi, Mafindan pichoqni oldi va dastasi bilan qovoqchaning yashil po‘stini taqillatdi.

— Chiqinglar! — baqirdi u jahl bilan. — Hoziroq chiqinglar!

Sichqonlarning butun bir oilasi chiqdi! Bu yerda katta sichqonlar ham, kichkinalari ham, buvalari ham, buvilar ham, xola-yu tog‘alari ham, bolalar-u ota-onalari ham bor edi.

— O‘zim ham shunday deb o‘ylagandim! — dedi Perigrin.

— Bular qarindoshlar Dorris va Morris — dala sichqonlari.

Bechora Mafin! U ajoyib qovoqchasidan sichqonlarning birin-ketin sakrab chiqayotganini ko‘rib, ko‘z yoshlarini zo‘rg‘a tiyib turardi.

— Qovoqchamni rasvo qilishdi! — shivirladi u. — Butkul rasvo qilishdi! Endi uni ko‘rgazmaga qanday olib boraman?

U do’stlariga orqa qilib o‘tirdi, titrayotgan quloqlari va dumidan uning o‘zini qanchalik yomon his qilayotganini payqash qiyin emasdi.

— Menda bir g‘oya bor! G‘oya! Iltimos, quloq solinglar! Menda bir g‘oya bor! — hayajon bilan ma’radi qo‘y Luiza. — G‘oyamni aytishimga imkon beringlar, iltimos! O, iltimos!.. — davom etdi u Mafin qarshisida sakrab, u shunchalik tez gapirardiki, so‘zlari zo‘rg‘a anglashilardi.

— Bo‘pti, — dedi Perigrin, — qulog‘imiz senda. Faqat sakrashni bas qilib, sekinroq gapir.

— Xayolimga shunday bir fikr keldi, — dedi Luiza, — Mafin o‘z qovoqchasini «Oddiy sabzavotlarning nooddiy



iste'mol qilinishi» bo'limida ko'rgazmaga qo'ysin. Ishonchim komil, hali hech kim sichqonlar makoni, aytmoqchimanki, sichqonlarga uy bo'lgan qovoqcha haqida eshitmagan...

— Hechqisi yo'q, seni tushundik, Luiza! Bu ajoyib g'oya! — qichqirib yubordi Mafin.

Luiza uning mammun nigohini ko'rganda, shunchalik xursand bo'lib g'ururlanib ketdiki, Perigrindan hecham qo'rqlay qo'ydi. Tuyaqush bir bog' somon tayyorlab qo'yilgan aravani olib kelishga ketdi, Mafin esa qovoqchaning yonlarini ehtiyyotkorlik bilan artib, yaltiratdi. Perigrin hamma sichqonlarni yig'di. Ularga uyni ichkaridan yaxshilab yig'ishtirishni va o'zlarini tartibga keltirishni buyurdi. Keyin ularga mevalar va sabzavotlar ko'rgazmasida o'zlarini qanday tutishlari kerakligi haqida nasihat qildi.

— O'zingizni erkin tuting, — dedi u, — ammo ommanning gapiga quloq solayotganingizni ko'rsatmang. Va albatta, suhbatga aralashib, bahslashishingiz mumkin emas. O'zingizni kardek tuting.

Sichqonlar hammasini tushunganliklarini, Mafinga yordam berishga harakat qilishlarini aytishdi.

Shu payt Osvald aravani olib kelib qoldi, hamma qovoqchani somondan yig'ilgan yumshoq karavotga yotqizishga yordam bera boshladи. Sichqonlar bor kuchlari bilan yordam berishga urinishardi, itarishar, oyoq ostida yugurib yurishar, qovoqchadan yumalab, somon ustiga tushishardi. Lekin ulardan foyda yo'q edi: faqat hammaga xalal berishardi.

Yaxshiyamki, ulardan birortasiga ziyon yetmadi. Perigrin ularga ko'rgazmada nima qilishlari kerakligini va mum haykalchalardek ko'rinishlari uchun qanday alpozda turishlari zarurligini tushuntirdi. Keyin hammalari yo'lga tushishdi.

Mafin yo'lni tozalab oldinda borardi. Uning ketidan Luiza: axir bu ajoyib g'oya unga tegishli edi-da! Luizaning ortidan



Osvald bir bog‘ somon ko‘tarib borardi, keyin Perigrin, uning ortidan esa qolganlar betartib yugurishardi.

Ular ko‘rgazmaga kelishganda, hamma eksponatlar shu yerda edi. Ularning egalari yonida qo‘riqlab turishardi. Mafin va unga hamrohlik qilayotgan hayvonlar mag‘rur qiyofada zalning qoq o‘rtasiga o‘tishdi. Ular qovoqchalar bo‘limidan o‘tayotganda, qolgan hamma qovoqchalarning egalari ma’yuslanib, mukofotdan umidlarini uzishdi. Lekin keyin Mafinning «Oddiy sabzavotlarni nooodiy iste’mol qilish» bo‘limiga o‘tganini ko‘rib, darrov yana jonlanib qolishdi. Mafin ular bilan musobaqalashmoqchi emasligini tushunishdi.

«Oddiy sabzavotlarni nooodiy iste’mol qilish» stendi ko‘rgazmaning eng oxirida joylashgandi. U yerda ko‘plab qiziq narsalar: kartoshka va xashaki sholg‘omdan kesib olingan shakllar, rediska va sabzidan yasalgan guldstalar va rang-barang sabzavotlardan stolni bezatish uchun tayyorlangan turli-tuman bezaklar bor edi. Bir odam yugurib kelib, Mafinga aravani qayerga qo‘yish kerakligini ko‘rsatdi. Perigrin bilan biroz pichirlashgach, taxtachaga shunday deb yozdi: Eksponat A – qovoqchadan SICHQONLAR uchun uy.

Egasi – eshak MAFIN.

Hamma hayvonlar hakamning kelishini kutib g“urur bilan qovoqcha atrofiga joylashib olishdi. Nihoyat ikkita hakam kelib, uy-qovoqcha ko‘rgazmadagi eng g‘ayrioddiy eksponat deb qaror qilishdi. Sichqonlar o‘zlarini juda yaxshi tutishdi, hakamlar qovoqcha ustiga egilib, ularni ko‘rishganda yoki nafas chiqarib ularni ag‘darib yuborishganda ham parvolari falakdek turaverishdi.

– Zarracha shubha bo‘lishi mumkin emas, bu eng yaxshi eksponat! – dedi birinchi hakam.

– Unga birinchi mukofotni beramiz, – dedi ikkinchisi, ma’qullab bosh irg‘arkan.



U Mafinning oldiga kelib, bo‘yniga medal osib qo‘ydi. Birinchi hakam esa qovoqchaga «Birinchi mukofot» diplomini yopishtirdi. Shu payt sichqonlar chiday olishmadi. Ular diplomga yopirilib, yesa bo‘ladimiyo‘qmi, bilish uchun kemira boshlashdi. Lekin Perigrin ularni haydab yubordi. Hamma kulardi, Mafin esa o‘zini hech nimani sezmayotgandek tutardi. Shunday qilib, Mafinning orzusi ushaldi. U qovoqchani uyga qaytarib olib ketdi, yo‘lda uchragan hamma unga qoyil qolib: «Qaranglar, Mafin qanday uddaburon! Qaranglar, u qanday ajoyib qovoqcha yetishtiribdi!» derdi.

Mafinning bo‘ynida medal osig‘liq edi. Bundan tashqari, u yana boshqa mukofot – bir bog‘ shirin sabzi oldi. Bunday izzat-ikromni ilgari sira ko‘rmagandi!

Mafin sichqonlar yoz oxirigacha ichida yashashlari uchun qovoqchani o‘sigan arig‘iga qaytarib qo‘ydi va har kuni ularnikiga mehmonga kelishga va’da qildi. Bundan tashqari, qovoqchadan hamma urug‘larni chiqarib, yuvishni va uzun chiroyli marjonga tizishni maslahat berdi.

Marjon tayyor bo‘lganda, Mafin uni yaxshi g‘oya uchun minnatdorchilik sifatida qo‘y Luizaga sovg‘a qildi.

Mafin qo‘sinq aytadi

«Qanday ajoyib tong!» – deb o‘yladi Mafin omborxonasi eshiklaridan boshini chiqarib. Quyosh porloq nur sochar, baland daraxtning uchida esa qorayaloq kichkina boshini orqaga tashlab, ko‘zlarini yumib, tumshug“ini keng ochgancha sayrardi.

Mafin qorayaloq sayrayotib qanday zavqlanayotganini ko‘rib, o‘zicha: «Shu qushga o‘xshab sayrash yoqimli bo‘lsa kerak! – dedi. Keyin biroz o‘ylanib qo‘shib qo‘ydi: – Men ham eplay olaman, albatta, faqat avval so‘zlarini to‘qish kerak». U chelakchada ozgina bo‘yoqni aralashtirib, devorga



katta varaqni qoqdi va o‘zining o‘ylashga yordam beradigan «aqli qalpog‘i»ni kiyди.

— Men avval she‘r yozaman, — dedi Mafin orzuga berilib. Keyin tuyog‘ini bo‘yoqqa botirib, yozishni boshladi. U bunday deb yozdi:

Mafinning qo‘shig‘i

Chug‘ur! Chug‘ur! Chug‘ur! Chug‘ur!
Tirli! Tirli! Tirli! Tirli!
Eshiting, eshiting, eshiting hammangiz!
Kuylayotgan menman, Mafin!

— Endi kuylashni boshlayman! — dedi Mafin.

U ko‘zlarini yumdi, boshini orqaga tashlab, og‘zini keng ochdi. Shu payt omborxonan yonidan qo‘y Luiza o‘tib ketayotgandi. U oq xalat kiyib, kichkina bint ko‘tarib olgandi, chunki kimnidir davolashni juda xohlayotgandi. Mafin kuylashni boshlaganda, Luiza shunday qo‘rqib ketdiki, qichqirib bintni tushirib yubordi. Bint uning oyoqlari atrofida o‘ralashib ketib, yiqilib tushdi.

Jirafa Greys nima bo‘layotganini bilish uchun yugurib keldi.

— O, Greys! — baqirib yubordi Luiza. — Kimdir shunday qattiq baqirdiki, qo‘rqqanimdan yiqilib tushdim! Tezroq turishimga yordam ber, bu yerdan qochib ketaylik!

Greys uzun bo‘ynini egdi, Luiza uni ushlab oyoqqa turib oldi.

Mafin Greys bilan Luizaning qochib ketganini eshitdi va shu yaqin atrofda suyak ko‘mayotgan kuchukcha Piterni qidirishga jo‘nadi.

«Men uni hayratga solaman!» — deb o‘yladi Mafin va yana o‘zining qo‘shig‘ini kuylay boshladi.



Piter darhol yerni kovlashni bas qilib, qo‘rquinchli ovozda uvillab ketdi. Ko‘zlaridan yosh quyildi.

— O-o-o, — dodlardi Piter, — kimdir itni xafa qilgan bo‘lsa kerak, shuning uchun u yig‘layapti. Bechora, bechora it! — u o‘sha itga hamdardlik yuzasidan uvillashda davom etdi.

«Qiziq! — o‘yladi Mafin. — U qanaqa it haqida gapiryapti?»

Mafin Piter uning xirgoyisini itning uvillashi deb tushunganini xayoliga ham keltirmadi.

U begemot Gubert yoniga bordi. Gubert hovuz yonida jimgina uxlab yotardi.

— U bilan hazillashib, ashula aytib uyg‘otay-chi! — dedi Mafin va kuylashni boshladи:

Chug‘ur! Chug‘ur! Chug‘ur! Chug‘ur!

U «tirli! tirli!..» deyishga ulgurmay, Gubert zilzila paytida tog‘ silkinganidek titrab, hovuzga tushib ketdi. Suv favvora bo‘lib otilib, Mafinning boshidan oyog‘igacha quyildi.

— Voy Xudoyim! — ingradi Gubert. — Dahshatli tush ko‘ribman: yovvoyi fil kelib qulog‘imga o‘kirgandek bo‘ldi! Faqat sovuq suv tinchlanishimga yordam beradi... — U shunday deb suv ostida g‘oyib bo‘ldi.

Tyulen Sellı hovuzning narigi tarafidan suzib keldi.

— Mafin, sen yovvoyi o‘kirikni eshitdingmi? — so‘radi u. — Balki suv tagida tomog‘i og‘riyotgan tyulen o‘tirgandir? Shunda Mafin hammasini tushundi.

«Noto‘g‘ri kuylayapman, shekilli, — o‘yladi u ma‘yuslanib. — Lekin hammasini qorayaloqdek qildim-ku. Men xuddi unga o‘xshab ko‘zlarimni yumib, boshimni orqaga tashlab, og‘zimni katta ochdim. Xuddi shunday qildim! Ammo men daraxt tepasida o‘tirmagandim-ku! Mening xatoim shunda».

Mafin daraxtga chiqib ketdi.

Ko‘p o‘tmay bog‘ boyagidan-da dahshatli ovozlarga to‘ldi. Bu xur-xurlash, ma‘rash, pishqirish, yordam iltijolari edi.



— Yordam beringlar! Yordam beringlar! — dodlardi Mafin. Hamma yugurib kelib, Mafinning daraxt shoxiga old oyoqlari bilan osilib turganini ko'rdi.

Perigrin Mafinni qutqarishga otildi. Unga tishlari bilan jirafa Greysning qulqlaridan tutishni va Gubertning beliga sakrashni buyurdi, bu paytda esa Piter, Osvald, Luiza va martishka Monki mabodo Mafin yiqilib tushsa deb choyshabning to'rt burchagidan ushlab turishdi.

Mafin yerga sog'-omon qaytib tushdi.

— Daraxtda nima qilayotganding? — so'radi Perigrin keskin.

— Men... men... — Mafin xijolat tortib, jim bo'lib qoldi.

U tepaga qaradi va shoxda og'zi ochiq, kichkina boshi orqaga tashlangan, ko'zлari yumuq qorayaloqni ko'rdi. Qorayaloq o'z qo'shilg'ini aytardi.

— Qanday ajoyib sayrayapti! — dedi Mafin — To'g'rimi?

Mafin va sehrli taroq

Bir kuni Fransiyadan Mafinnikiga Jan Pyer ismli kichkina bola mehmon bo'lib keldi. U eshakka sovg'a olib keldi. Bu ko'k taroq bo'lib, uning bir nechta tishi yo'q edi. Eski, aqlli taroq — oq-qorani yaxshi farqlar, katta hayotiy tajribaga ega edi.

Kechqurun uslashga yotishdan avval Mafin toshoyna oldida o'tirib olib, yollarini tarashga kirishdi.

«Biram ovqat yegim kelyaptiki! — o'yladi u. — Yana bir marta ovqatlansam, zo'r bo'lardi!»

«Ping-g!» degan qattiq ovoz eshitildi va taroq tishlaridan biri uzilib tushib, g'oyib bo'ldi. Xuddi shu lahzada Mafinning qarshisida kepak va suli bilan barra sabzilar solingan idish paydo bo'ldi. Mafin ajablandi, lekin g'oyib bo'lishidan cho'chib, yejishga oshiqdi. Yeb bo'lgach, taroqni qo'lting'i ostiga qisib



deraza oldiga bordi. U tashqarida qorong“i cho‘kkanini ko‘rdi va o‘ziga o‘zi: «Bugun tunda yomg“ir yog“ib, jo‘yaklarda semizgina sersuv sabzilar o‘sib chiqsa, yaxshi bo‘lardi!» dedi.

Yana «ping!» degan ovoz eshitildi – taroqdan ikkinchi tish uzilib tushdi va deraza ortida yomg“ir quya boshladı. Mafin taroqqa qaradi.

– Menimcha, bu ishni siz qildingiz! Siz, hoynahoy, sehrli taroq bo‘lsangiz kerak! – dedi u.

Keyin Mafin xona o‘rtasida turib, taroqni tepaga ko‘tardi va: «Hozir o‘rmonda sayr qilsam, yaxshi bo‘lardi!» dedi.

U «ping!» degan tovushni eshitdi, taroqdan bitta tish uzilib tushganini ko‘rdi va tunning salqin shabadasi tanini silab o‘tayotganini sezdi. Atrofda qop-qora daraxtlar shovullardi, u oyoqlari ostida yumshoq, nam yer tuproqni tuydi.

Mafin yomg“ir uning ixtiyori bilan yog“ayotganini unutib qo‘yibdi. Ko‘p o‘tmay u ivib ketdi, shuning uchun taroq hamon yonidaligini sezib, sevindi.

– Issiq ko‘rpaga o‘ralib, karavotda yotsam, yaxshi bo‘lardi, – dedi eshak.

«Ping!» – mana u engagigacha yo‘l-yo‘l yopinchig“iga o‘ralib yotibdi, yonida yostiq ustida esa – tarog“i.

«Bugun boshqa hech narsa tilamayman, – o‘yladi Mafin.
– Tonggacha».

U taroqni ehtiyyotlab yostiq tagiga yashirdi-da, uyquga ketdi.

Ertasi kuni ertalab uyg‘ongach, Mafin sehrli tarog“ini esladi, yostiq tagini paypaslab ko‘rib, uyquli ovozda:

– Bugun havo ochiq bo‘lishini xohlayman!.. – dedi.

Yostiq ostidan «ping!» degan bo‘g“iq javob eshitildi va shu zahoti quyosh nurlarini derazadan yog“dira boshladı.

– Endi esa nonushtaga tayyor bo‘lishni istayman: yuvungan, tarangan va hokazo...

«Ping!»



Mafin yashin tezligida eshikdan to‘g‘ri oshxonaga o‘tdi va taroqni sabziga to‘la idish yoniga qo‘ydi. U hali hech qachon nonushtaga bunchalik erta kelmagandi, shuning uchun hamma ajablandi. Mafin kunbo‘yi tarog‘i bilan ko‘ngil yozib, do‘srlariga har xil hazillar qildi.

— Perigrin birdan bog‘ning eng uzoq chekkasida bo‘lib qolishini xohlayman... — pichirlardi u.

«Ping!» — hozirgina olimona qiyofada statistika haqida mulohaza yuritayotgan Perigrin bir zumda g‘oyib bo‘ldi. Birozdan so‘ng harakatlanishning g‘alati usullari haqida ming“illab, harsillagancha bog‘ so‘qmog‘ida ko‘rindi.

Lekin Mafin tinchlanmasdi:

— Osvaldning idishi bo‘shab qolishini xohlayman.

«Ping!» — bechora Osvaldning tushligi bir luqma yutmasidan avval g‘oyib bo‘ldi.

— Qor yog“ishini xohlayman! — baqirdi Mafin, tushlikdan so‘ng hamma sayr qilgani yig‘ilganda.

«Ping!» — qor katta-katta, ho‘l bo‘lib pag“a-pag“a yog‘a boshladи, hayvonlar uylariga qaytishga oshiqishdi.

Mafinning choy paytida qaymoq bilan qulupnay yegisi kelib qoldi, bu gal uning istagini hamma ma‘qulladi.

U har gal taroqni tepaga ko‘targanda va buyruq berganda, baland ovozda «ping!» degan tovush eshitilar va shu paytning o‘zida bitta tish yo‘qolardi.

Kechqurun Mafin yana toshoyna qarshisiga o‘tirib, yollarini taray boshladи. Taroqda bir-ikkita tish qolgandi, xolos.

— Yolni bunday taroq bilan tarab bo‘lmaydi! — dedi eshak. Va nima deyotganini o‘ylab ko‘rmay qo‘shib qo‘ydi: «Hamma tishlari butun yangi tarog‘im bo‘lishini xohlayman!»

Shu so‘zlar aytilganda, sehrli taroq Mafinning tuyog‘idan uchib chiqib, tungi stol ustiga tushdi.

Bu gal eshak hech qanday «ping!» degan tovushni eshitmadи, yangi taroq ham paydo bo‘lmadi. Sekin-asta,



Mafinning ko‘z oldida sehrli taroq bujmaya boshladi. U kichrayib-kichrayib bordi-da, axiyri butunlay yo‘qoldi.

«Nega bunday dedim? – o‘yladi Mafin. – Uni xafa qilib qo‘ydim, shekilli. Vaholanki, u mening qancha tilaklarimni bajardi!»

Mafin xafa bo‘lib uqlashga yotdi va uyqu oldidan boshqa hech nima tilamadi. Ammo yana qachondir sehrli taroq sovg‘a qilishsa, tilaklarini juda ehtiyyotkorlik bilan bildirishga qat’iy qaror qildi.

Mafin va o‘rgimchak

Bir kuni Mafin o‘zining sabzavot jo‘yaklarini ko‘rish uchun tomorqaga bordi. Kutilmaganda issiqxona romi orqasida katta ko‘zları ma'yus ulkan o‘rgimchakka duch keldi. Mafin dunyoda shunday maxluqlar borligini xayol ham qilmagandi. Negadir birdan qochib ketgisi keldi. Ammo o‘rgimchak shunday g‘amgin boqar, ko‘zlarida esa shunday katta-katta yoshlari toshib chiqqandiki, eshak uni tashlab ketolmadi.

– Sizga nima bo‘ldi? – so‘radi u tortinib.
 – Har doimgi holat! – ming‘illadi o‘rgimchak g‘amgin.
 – Mening ahvolim doim yomon. Men shunchalik katta, tasqara va qo‘rquinchlimanki, ko‘rganlarning hammasi darrov ortiga qaramay qochib ketadi. O‘zim yoppa-yolg‘iz, beaybdan-beayb ozorlanib, nihoyatda bebaxt bo‘lib qolaman.

– O, xafa bo‘lmang! – dedi Mafin. – Siz unchalik ham qo‘rquinchli emassiz... Ya’ni aytmoqchimanki, sizni, albatta, chirolyi deb bo‘lmaydi... lekin... Hm... E-e-e... Harqalay, men sizdan qochib ketmadim-ku, to‘g‘rimi? – U nihoyat kerakli so‘zlarni topdi.

– To‘g‘ri, – dedi o‘rgimchak. – Lekin men haligacha buning sababini tushunolmayapman. Siz baribir endi hech qachon meni ko‘rishga qaytib kelmaysiz.



— Bo'lмаган гап! — хитоб қилди Мифин. — Албатта келаман. Бундан ташқари, сизни уйимга чақириб, hamma do'stларимга ко'rsатаман. Улар ham sizdan qochib ketishmaydi.

— Nahotki shunday qilasiz? — so'radi o'rgimchak. — Men iloji boricha ko'proq tanish orttirishni xohlardim. Men juda kirishimli va dilkashman. Do'stлaringizga yoqaman, mana ko'rasiz, faqat meni yaqinroq tanib olishsa bo'ldi.

— O'n daqiqalardan so'ng omborxonamga keling, men ularning hammasini to'playman! — dedi Mafin va tez uyga chopib ketdi.

Rostini aytganda, u do'stлариган o'rgimchak yoqishiga biroz shubha qilardi, lekin o'rgimchakka buni bildirishni sirayam xohlamasdi. Mafin birinchi bo'lib kuchukcha Piterni ko'rdi. Kuchukcha to'rtta oyog'ini tepaga baland ko'tarib, ho'l o't ustida yetardi.

— Tur, Piter, — buyurdi Mafin, — omborxonaga yugur. O'n daqiqadan keyin bizda juda muhim yig'ilish bo'ladi.

Eshak yana chopib ketdi. U oshxona derazasidan boshini suqdi, u yerda to'ti Poppi o'zining o'choq orqasidagi issiq burchagida isinib o'tirardi.

— Iltimos, Poppi, marhamat qilib omborxonaga yig'ilishga bor — sensiz yig'ilish o'tmaydi.

Poppi qattiq chinchirib, ro'molini olishga cho'zildi. Mafin uning rozi bo'lganini tushunib, chopib ketdi.

Tyulen Selli o'z odatiga ko'ra hovuzda suv sepib o'tirardi. Mafin uni ham taklif qildi. Odamlar yo'lga sepish uchun qum oladigan chuqurda ikkita ajralmas do'st: tuyaqush Osvald va chuvalchang Villi o'ralashib turardi. Yig'ilish haqida eshitib ular darrov jonlanib qolishdi va omborxonaga yo'l olishdi. Qo'y Luiza bog'da dastorgullardan gulmarjon yasayotgan ekan. Eshak yig'ilish haqida gap ochishi bilan oyog'ini qo'lga olib omborxonaga chopib ketdi: Mafinning ko'ngliga qarash unga juda yoqardi. Kenguru Ketti olma



daraxti ostida to‘qilgan stulda narsa to‘qib o‘tirardi. Ketti ishini tashlab, Luizaning ketidan sakrab chopib ketdi.

Mafin Perigrinning kulbasi yoniga chopib kelib, taqillatdi.

– Kiring! – dedi pingvin.

Eshak eshikni qiya ochib, boshini suqdi-da, iltifot bilan gapirdi:

– Iltimos, janob Perigrin, marhamat qilib mening omborxonamga borsangiz – u yerda juda muhim yig‘ilish qilyapmiz.

Perigrin yig‘ilishlarni nihoyatda yaxshi ko‘rardi. U Mafinga yo‘q deyishni xayoliga ham keltirmagandi. Ammo pingvin hech qachon darrov rozi bo‘lmazı. Undan iltimos qilishlarini, yalinishlarini juda yoqtirardi. Hozir ham «Bandman» deb to‘ng‘illadi-da, yana kitobga muk tushdi.

– Eh, janob Perigrin, nahotki bizga yo‘q desangiz? Sizdan qattiq iltimos qilamiz! – yalindi Mafin. Pingvin izzat-ikromni yaxshi ko‘rishini eslab, qo‘shib qo‘ydi: – Sizni kursiga o‘tirg‘izib qo‘yamiz.

Pingvin boshini ko‘tardi.

– Qaysi kursiga? – so‘radi u.

– U yerda faqat bitta kursi bor va unda siz o‘tirasiz.

Perigrin turdi, kitob orasiga xatcho‘p o‘rniga baliq suyagini soldi-da, yig‘ilishga shoshildi. Mafin uning ortidan chopdi.

Chayqalayotgan loviyalar orasidan jirafa Greys mo‘raladı.

– Nima bo‘ldi? – so‘radi u. – Nega hamma qayergadir shoshyapti? Piter ham, Poppi ham, Selli ham, Osvald ham, Villi ham, Ketti ham, Luiza ham, janob Perigrin bilan sen ham. Men ham sizlar bilan bormoqchiman, maylimi?

Mafin ikkilanib qoldi. «Jirafa o‘rgimchak bilan do‘st bo‘lolmasa-chi?» Ammo Greysni xafa qilib bo‘lmazı, shuning uchun rozi bo‘ldi:



— Mayli, yur. Biz omborxonaga juda muhim yig'ilishga shoshilyapmiz. Faqat bo'yningni cho'za ko'rma, o'tgan gal boshing bilan tomni sindirding. Endi yomg'ir yoqqanda u yerdan suv oqyapti.

Omborxona yonida hamma do'stlari Mafinni kutib turishardi. Lekin eshak ularni ichkariga darrov kirgizmadi. U avval Perigrin uchun kursi tayyorladi. Gap shundaki, bittagina bu kursining uchta oyog'i bor edi. To'rtinchisi singandi, uning o'rniga gultuvak qo'yishga to'g'ri keldi. Shundan so'ng Mafin do'stlarini kirishga taklif qildi.

— Qulayroq o'tirib olinglar! — dedi u.

Qattiq shovqin ko'tarildi. Hamma shovqin solar, baqirar, bir-biriga urilardi, nihoyat amallab joylashib olishdi. Mafin eshik oldida turardi.

— Gapimni diqqat bilan eshittinglar, — baland ovozda, aniq gapira boshladи u. — Sizlar hozir mening yangi do'stim bilan tanishasizlar. Bu ulkan o'rgimchak... Sizlarga nima bo'lди? Joyingizga o'tiring! — qichqirdi u, chunki o'rtoqlari dahshatga tushib, eshik tomon otilishdi. — Baribir hech kimni chiqarmayman! — dedi eshak g'azab bilan.

Hayvonlar bir amallab tinchlanishgach, Mafin davom etdi:

— Mening yangi do'stim juda, juda baxtsiz. Uning bu yorug' olamda na qarindoshlari bor, na tanishlari! Mehr ko'rsatib, yupatadigan hech kimi yo'q. Hamma unga hatto yaqinlashishga qo'rqaadi. Bu unga qanchalik og'ir va qattiq botishini bir o'ylab ko'ringlar!

Mafin o'rgimchak haqida shunday ta'sirli gapirardiki, beixtiyor bechoraga hammaning rahmi kelib ketdi. Ko'pchilik yig'lab yubordi, Luiza bilan Ketti baland ovozda ho'ngrashga tushdi, hatto Perigrin ham hiqillay boshladи. Shu payt eshikning jur'atsizgina taqillashi eshitildi va qo'rqinchli o'rgimchak omborxonaga kirdi. Bechora hayvonlar qo'rqa-



masligi mumkinmidi? Lekin ularning hammalari iltifot bilan jilmayishib, birin-ketin gapirib ketishdi:

- Kiring, qo‘rqmang!
- Kelganingizdan juda xursandmiz!
- Xush kelibsiz!

Shu payt mo‘jiza yuz berdi. Qo‘rqinchli o‘rgimchak g‘oyib bo‘ldi, uning o‘rnida esa chiroyli mitti pari paydo bo‘ldi.

– Rahmat senga, Mafin, – dedi u. – Senga va do‘stringga katta rahmat. Ko‘p yillar avval yovuz sehrgar meni tasqara o‘rgimchakka aylantirib qo‘ygandi. Men to kimdir rahm qilmaguncha shunday maxluq bo‘lib qolishim kerak edi. Sizlar bo‘lmaganingizda, men yana ancha vaqt azob chekardim. Endi esa yaxshi qolinglar! Men Parilarning sehrli mamlakatiga uchib ketyapman.

U qanot qoqib, ochiq derazadan uchib chiqib ketdi. Hayvonlar butkul lol bo‘lib qolishdi! Ular bir so‘z ayta olishmasdi. Kichkina pari butunlay g‘oyib bo‘ldi, lekin Mafinning nazarida, pari ularni eslab turadi, chunki shundan so‘ng bog‘chalarida mo‘jizalar yuz bera boshladi: gullar boshqa bog‘lardagidan avvalroq gulladi, olmalar qizilroq va shirinroq bo‘lib pishdi, qushlarning patlari va kapalaklarning qanot-chalari esa turli-tuman ranglarda yarqirab ko‘rinardi. Biron o‘rgimchak boqqa adashib kirib qolsa bormi, hamma ochiq chehra bilan uni qarshi olishga yugurardi. Axir tasqara qiyofa ortida kim yashiringanini bilib bo‘larmidi!

Mafin kitob yozadi

Bir kuni eshak Mafinning xayoliga ajoyib fikr kelib qoldi. U dugonalari Annet va Ennga o‘zi va do‘satlari haqida kitob hadya etishga qaror qildi. Shunda, hayvonlar biron yoqqa ketishsa, Annet va Enn bu kitobni o‘qib, ularni eslashlari mumkin bo‘ladi.



Mafin hamma do'stlarining yoniga borib shu haqda aytdi:

— Kelinglar, Annet va Enn uchun o'zimiz haqimizda kitob yozamiz. Biron joyga ketganimizda, ular biz haqimizda o'qishadi. Har kim bitta bobdan yozsin.

U Piter, Perigrin, Sellı, Osvald va chuvalchang Villiga shu gaplarni gapirdi.

«Hammamiz bir bobdan yozamiz va kitob zo'r chiqadi!» — deb orzu qilardi eshak.

— Men ikki soatda qaytaman. Qara, bob tayyor bo'lsin!
— dedi u hayvonlarning har biriga va omborxonaga chopib ketdi.

U yerdan o'zining eng katta boyligi — eski yozuv mashinkasini chiqardi. Eshak uni ehtiyotlab artib, stol ustiga qo'ydi. Keyin uning qopqog'ini olib, mashinkaga toza varaq soldi. Mafinning sehrli qalpog'i bor edi. Bu qalpoq unga o'ylashga yordam berardi. Eshak o'sha qalpoqni kiyib, kitobni yozishga kirishdi. Juda-juda ko'p vaqt o'tdi, Mafin esa atigi bir necha qator yoza oldi, xolos. Mashinka rosa itoatsiz edi — u bilan sergak bo'lishga to'g'ri kelarkan! Sal chalg"isang bormi, harflar o'rniga raqamlarni tera boshlardi.

Ikki soat o'tdi, Mafin esa atigi yarim bet terdi.

«Hechqisi yo'q! — o'yladi u. — Kitob uzun bo'lishi hecham shart emas. Qisqlari ham juda qiziqarli bo'ladi!»

Eshak zo'rg'a o'rnidan turdi. Axir u bunchalik uzoq o'tirishga o'rganmagandi-da, oyoqlari uvishib qolibdi. U do'stlarining yoniga ularning boblari tayyor yoki yo'qligini bilish uchun bordi.

Kuchukcha Piter uning yoniga hakkalab chopib keldi.

— Yozdim! Yozdim! — u zavqlanganidan angillardি. — Mana men yozgan bob, Mafin! Mana shu xaltada!

Eshak Piterdan qog'oz xaltani olib ko'tardi. Xaltadan bir talay mayda qog'oz bo'laklari tushdi. Ular o't ustiga har tomonga sochilb ketdi.



— Hech nimani tushunmayapman! — xitob qildi Mafin. — Bu sening bobingmi? Axir bu shunchaki sochma qog‘oz-lar-ku!

— Eh, afsus! — ming‘illadi Piter. — Bilasanmi, men pishloqdan qolgan qog‘ozga yozgandim, dala sichqonlari Morris bilan Dorris esa uni topib, kemirishga tushishdi. Uni asrab qolaman deb otildim. Afsus! Kech bo‘lgandi. Lekin sen xafa bo‘lma, butun bob, hamma so‘zlari shu yerda. Faqat qog‘oz parchalarini yig‘ib chiqish kerak. Ko‘rishguncha, Mafin! Men chopdim! Piter qizil tilini chiqarib, dumini likillatgancha yugurib ketdi.

— Kitob bunday yozilmaydi! — to‘ng‘illadi Mafin. — Ko‘raylik-chi, boshqalar nima qilishgan ekan.

U Osvald bilan Villini izlab ketdi.

Eshak tuyaqushni kutubxonadan topdi. Uning atrofida katta-katta kitoblar taxlanib yotardi. Osvald qattiq hayajonda edi, halloslab o‘tirardi.

— Mafin, men Villini yo‘qotib qo‘ydim! — hayqirdi u. — Uni topishimga yordam ber. Biz yangi o‘yin o‘ylab topdik. Villi kitoblardan biriga yashirinadi, men esa qaysi biriga yashiringanini topishim kerak. Lekin u nuqlul kitobning tikilgan joyidagi teshikdan o‘rmalab ketadi. Yana bir zumda! Ko‘zingni ochib-yumguningcha u boshqa kitobda bo‘ladi! Uni qanday tutish mumkin-a!

— Sizlar bilan o‘ynashga mening vaqtim yo‘q! — qichqirdi Mafin. — Sen yaxshisi kitob uchun yozgan bobing qayerdaligini ayt, Osvald.

— Qum solingan chuqurchada, Mafin, — javob berdi tuyaqush, uzun tumshug‘i bilan kitob sahifalarini bir-bir ocharkan. — Biz uni qumda yozdik. Men to‘qidim, Villi esa yozdi.

Mafin shitob bilan qumli chuqurcha tomon chopib ketdi. Biroq shoshmasa ham bo‘larkan. Osvald bilan Villining



bobidan allaqachon asar qolmagandi: hayvonlar va qushlar qumni toptab tashlagan, shamol esa to'zitib ketgandi. Shuning uchun tuyaqush bilan chuvalchang nima haqda yozishganini endi hech kim hech qachon bilolmaydi...

— Yana omadsizlik! — to'ng“illadi bechora Mafin va Sellini qidirishga oshiqdi.

Tyulen albatta ko'lda edi. U tosh ustida cho‘zilib, oftobda maza qilib yotardi. Uning silliq yonboshlari suvda yaltirardi.

— Sellı, Sellı! — chaqirdi Mafin. — Men yozgan bobingni olishga keldim.

— Marhamat, Mafin, hammasi tayyor, — javob berdi Sellı.
— Hozir olib beraman.

Tyulen shunday ustalik bilan sho‘ng‘idiki, suv sachrat-madi ham. Keyin og‘zida ho‘l, shishib ketgan gubkaga o‘xhash nimanidir tutgancha shundoqqina Mafinning tuyoqlari oldida paydo bo‘ldi. Sellı gubkani avaylab qirg‘oqqa qo‘ydi.

— Men iloji boricha chiroyliroq yozishga harakat qildim,
— dedi tyulen. — Xatolari yo‘q, har bitta so‘zni lug‘atdan tekshirib chiqdim.

— Eh, Sellı! — qichqirib yubordi Mafin. — Nega sening bobing gubkaga o‘xshaydi? Undan suv quyilyapti!

— Bu arzimagan narsa-ku! — dedi Sellı ochiq chehra bilan. — Shunchaki uni sen kelguncha suv tagida yashirib turgandim. Uni oftobga yoyib qo‘y, darrov qurib qoladi. Kel, biroz suzamiz, Mafin! — Sellı shunday deb yana suvgga sho‘ng‘idi.

«Sochma qog‘ozlar, qum, ho‘l gubka — bularni kitob qilib bo‘lmaydi!» — o‘yladi Mafin xafa bo‘lib.

Biroq pingvining kulbasiga yaqinlashayotib, u biroz tetiklashdi.

«Perigrin juda ilmli, juda aqlli! U albatta biron qiziq narsa yozgan bo‘lsa kerak», — deb o‘ziga taskin berdi eshak.

U eshikni taqillatdi.



Javob bo‘lmadi. Eshak eshikni qiya oolib, kulbaga mo‘raladi. Pingvin uyda edi, lekin uxlayotgandi. U yig‘ma kursiga cho‘zilib, yuziga dastro‘mol tashlab olgancha xurrak otardi.

«O‘z bobini tugatgan, shekilli, – o‘yladi Mafin. – Uni o‘zim ola qolaman, u uxlayversin!»

Eshak sekingina kirib, poldan bir varaq qog‘ozni oldi. Perigrin uni uyquga ketayotganda tushirib yuborgan bo‘lsa kerak. Mafin oyoq uchida chiqib, eshikni asta yopdi. U pingvin nima deb yozganini bilishga oshiqardi. Ammo qog‘ozga qaradi-yu, hafsalasi pir bo‘ldi.

Q‘og‘ozda kattakon siyoh dog‘i bor edi, xolos!

– Qanday baxtsizlik! – dedi Mafin. – Demak, kitobda mening bobimdan boshqa boshqa hech nima bo‘lmaydi!

Omborxonaga qaytgach, eshak o‘zi yozgan bobni oldi-da, o‘tirib o‘qishga tushdi. U quyidagilarni tergan ekan:

bans apod a bayp adksi jay yidspxdaysi

4875039/ /% mk puuf puuf № = § + - «? KL

Shu kuniyoq Annet va Enn bog‘da aylanib yurib, Mafinni uchratib qolishdi. U shunchalik xafa ediki, qizlar xavotirga tushishdi. Eshak kitob haqida gapirib berdi.

– Axir shu ham kitob bo‘ldimi? – deb tugatdi u. – Bir siqim qum, ozgina sochma qog‘oz, siyoh dog‘i va qandaydir bema’ni narsa.

– Xafa bo‘lma, Mafin, – dedi Annet va Enn. – Sen juda yaxshi o‘ylagansan, lekin bizlar kitobsiz ham sizlarni juda yaxshi eslaymiz. Kelinglar, yaxshisi, sizlarning suratingizni buyurtiramiz. Agar uzoq vaqtga ketsanglar, biz unga qarab turamiz.

Suratkashni taklif qilishdi. U quyoshli kunni tanlab keldi va Mafin hamda uning do‘shtalarini suratga oldi. Mana o‘sha surat. Suratkash uni Annet, Enn va siz uchun ishladi.



Mafin Avstraliyaga ketadi

Bir kuni ertalab Mafin deraza oldida o'tirgandi. Oldida sabzi solingan idish bor edi. Eshak nonushta qilar va goh-gohida ko'chaga qarab qo'yardi.

Shu payt kutilmaganda pochtachini ko'rib qoldi. Pochtachi to'g'ri ularning uyiga kelayotgandi. Mafinning do'stlari ham uni ko'rishdi.

Hayvonlarning hech biri xat kutmayotgandi. Lekin ular baribir dahlizga yugurib chiqishdi va ko'cha eshikka qiziqsinib tikilib qolishdi. Pochtachining qadam tovushlari eshitildi.

U eshikni qattiq taqillatib, maxsus teshikdan xatlarni tiqa boshladи. Xatlar yoqimli shitirlab, gilamchaga tapillab tushardi. Do'stlar ularga yopirilishdi. Hammalari xatni olishni xohlashardi. Ammo birdan «qoida» eslariga tushdi va qoqqan qoziqdek qotib qolishdi. Bilasizmi, Mafin va uning do'stlari xatlarga to'dalashib yopirilishni odat qilishgandi. Bir-birlaridan xatlarni tortib olib, deyarli mayda-mayda qilib tashlashardi. Shuning uchun qat'iy qoida o'rnatilgandi: xatlarni har kuni faqat navbatchi qabul qiladi, qolgan hayvonlarning ularga tegishga haqi yo'q.

Shu kuni navbatchi Mafin edi. Eshak do'stlarini chetlash-tirib olg'a yurdi, xatlarni yig'di-da, mehribon dugonasi Annetning yoniga olib ketdi – u doim hayvonlarga xatlarni ajratishga yordam berardi. Do'stlar eshakning ortidan borishdi.

Hamma Annetni o'rab olib, xatlarni qanday sara-payotganini qiziqsinib tomosha qila boshladи. Axir xatlarda ba'zan juda qiziq gaplar yozilgan bo'ladi. Masalan, hamma do'stlarni biron joyga mehmonga taklif qilgan bo'lishlari mumkin... Annet kutilmaganda katta to'rtburchak konvertni eshakka tutqazdi: – Mafin! Bu senga!



Mafin qulqlariga ishonolmasdi. U xatni olib, xonadan chiqdi. Do'stlari unga qiziqsinib qarashardi.

Eshak xatni tishlarida avaylab tutgancha omborxonaga yo'l oldi.

U yerda konvertni ochib, xatni yozib, toshoynaga tiradi-da, tomosha qilishga tushdi. U juda uzoq o'qidi! Va nihoyat o'qib bo'ldi:

Qadrli eshak Mafin!

Bizning yurtga kelishingni juda xohlaymiz. Ingliz bolalari qanday kulgili ekanliging va sening tomoshalarini qanchalik yaxshi ko'rishlarini aytib berishgan edi. Biz ham miriqib kulishni istaymiz, kel, iltimos.

*Senga salom yo'llaymiz.
Avstraliya bolalari.*

Eshak o'zida yo'q xursand edi. U do'stlarining yoniga yugurib borib, xatni har biriga o'qib berdi.

– Hoziroq yo'lga tushaman! – dedi u va narsalarini yig'ishtirishga kirishdi.

Mafin sandiqchaga yangi yozgi yopqich, soyabonli katta shlyapa, soyabon va, albatta, ko'p-ko'p sabzi soldi.

Keyin dengiz bo'yiga yugurib borib, qayiq qidirib topdi. Tyulen Sellı va pingvin Perigrin u bilan borishga qaror qilishdi: ikkovi ham juda mohir dengizchi edi. To'tiqush Poppi ham do'stlaridan qolishni istamadi. Ma'lum bo'lishicha, u o'z vaqtida qandaydir matros bilan dunyo bo'ylab suzib sayohat qilgan ekan. Begemot Gubert qayiqqa chiqib olib, Mafin bilan borishini e'lon qildi. «Men suzishni yaxshi bilaman», – dedi u.

Faqat sayohatchilar uni ko'rib qattiq qo'rqib ketishdi: ular qayiq hozir cho'kib ketadi, deb o'ylashdi.



Oxirgi daqiqada kenguru Ketti chidolmadi. Axir uning o'zi Avstraliyadan-ku, u yerda ko'plab qarindoshlari bor. Ketti ham Mafin bilan ketishga qaror qildi.

Nihoyat oltovlon joylashgach, qayiq yo'lga tushdi. Qolgan hayvonlar qirg'oqda turib, ularning ketidan qo'l silkib qolishdi. Avvaliga dengiz tinch edi. Biroq bir soatcha o'tgach, birdan shamol esa boshladи. To'lqin ko'tarildi. Shamol tobora kuchliroq esardi. To'lqinlar tobora kattalashib borardi. Mafin bilan Kettiga bu hecham yoqmadi. Bechoralarning rangi oqarib, o'zlarini juda yomon his qila boshlashdi. Ammo Perigrin bilan Selliga qayiqning chay-qalishi pisand emasdi! Poppining qattiq jahli chiqdi, Gubert esa:

— Qanday bemazagarchilik! — dedi. — Mening irkit bo'lsa ham yoqimli daryochamda hech qachon bunday bo'lmaydi!

Shu payt do'stlar ulkan kemani ko'rib qolishdi. U qayiq yonidan suzib borardi. Yo'lovchilar bortda to'planib kulishar va ochiq chehra bilan Mafin hamda uning do'stlariga qo'l silkishardi.

Eshak bilan Ketti bor kuchlari bilan jilmayishga va ularning salomiga javob qaytarishga urinishdi-yu, eplasholmadi. Ularning ahvoli juda yomon edi.

Kemaning palubasiga kapitan chiqdi. U binokldan qayiqqa qarab, qichqirdi:

- Hoy, qayiqdagilar! Qayerga ketyapsizlar?
- Avstraliyaga! — javob berishdi do'stlar.
- Bunday tog'orada yetib borolmaysizlar! — qichqirdi kapitan. — Menda ikkita bo'sh joy bor. Kim biz bilan boradi?

Do'stlar maslahatlasha boshlashdi. Rostini aytganda, faqat Mafinka Avstraliyadan taklif tushdi. Lekin Ketti qarindoshlarini ko'rishni juda xohlayotgandi. Nihoyat bir qarorga



kelishdi: eshak bilan kenguru kemaga o'tishadi, Perigrin, Selli, Poppi va Gubert qayiqda uyga qaytishadi.

Matroslar arqonli narvonni tushirishdi. Yo'lovchilar Mafin bilan Kettining palubaga chiqishiga yordam berishdi. Kenguruning yuklari sumkasida edi, Mafinning sandiqchasini esa arqonda tortib olishdi.

Keyin hamma qayiq bilan xayrashdi, ro'molchalarini silkishdi va kema olis yo'lga tushdi.

Kemaga chiqib olgach, Mafin bilan Kettining chehrasi darrov ochildi. Bu yerda qiziq narsalar juda ko'p edi! Oqshomlari ular raqs tushishar, har xil o'yinlar o'ynashardi. Ketti hamma tennis partiyalarida yutdi. Ajablanmasa ham bo'ladi – axir u juda baland sakrardi-da! Bolalar palubasida Mafinni juda yaxshi ko'rib qolishdi. U bolalarni ko'tarib yurar, ularni kuldirardi. Havo deyarli hamma vaqt iliq, quyoshli bo'ldi.

Dengiz ko'm-ko'k va tinch edi. To'g'ri, ba'zida shamol turib, kemani chayqata boshlardi. Shunday paytlarda Mafin bilan Kettining darrov tobi qochardi. Ular ko'rpga o'ralib olib, achchiq sho'rvadan ho'plab jim o'tirishardi.

Kapitan palubaga atay Mafin uchun jo'g'rofiy xaritani osib qo'ydi. Eshak undan kemaning yo'nalishini kuzatishi va Avstraliyaga yana qancha suzish kerakligini bilishi mumkin edi. Mafin har tong va har oqshom xarita yoniga kelib, kemaning yo'lini bayroqchalar bilan belgilab qo'yardi.

Kema kun sayin Avstraliyaga yaqinlashib borardi. Ammo bir kuni kechqurun dengiz uzra quyuq oq tuman tushdi. Tuman hamma yoqni qamrab oldi, kemaning yurishi qiyinlashdi. Avval u juda sekin yurdi. Mafin qattiq xavotirga tushib, kapitanning yoniga keldi.

– Agar tezroq suzmasak, – dedi u, – Avstraliyaga kech qolaman. Men esa kechikishni yomon ko'raman.



— Iltimos, kechir, Mafin, — dedi kapitan. — Men o'zim ham kechikishni yomon ko'raman. Lekin bunday tumanda bundan tez suzolmayman. Bortning nariga tomoniga qaragin: burningdan u yog'ini ko'rolmaysan.

Eshak boshini chiqardi: hamma yoqni quyuq, zax, oq tuman qoplab olgandi. Albatta, tezroq suzish haqida gap bo'lishi mumkin emasdi. Lekin Mafinning kapitanga juda yordam bergisi kelardi. Eshakning ko'zлари o'tkir edi, u bor kuchi bilan atroflarini qurshab olgan pardaga tikildi. Nihoyat bir joyda tuman biroz siyraklashdi. Atigi bir lahzaga! Lekin eshakka shu ham kifoya qildi.

U shundoq qarshisida kichkina orolchani, u yerda esa — ko'plab pingvinglarni ko'rdi. Ular qator-qator bo'lib dengizga qarab turishardi.

— Bular Perigrinning qarindoshlari! — hayqirdi Mafin, kapitanga murojaat qilib. — Ishonchim komil, ular bizga yordam berishadi!

Orolcha tuman ichra yana g'oyib bo'ldi, lekin Mafin karnayni olib, baqirishga tushdi:

— Hoy, sohildagilar! Men eshak Mafinman, pingvin Perigrinning do'sti! Sizlarning orolingiz yonidan suzib ketyapmiz! Og'ir ahvolda qoldim! Yordam beringlar!

Yuzlab pingvin ovozlari darhol Mafinga javob qaytarishdi. Qushlar darrov dengizga sho'ng'ib, kema yoniga suzib kelishdi. Uni o'rab olib, tuman orasidan boshlab ketishdi. Oldinda razvedkachilar yo'lni ko'rsatib, suzib borishardi.

Ular o'z vazifalarini shu qadar yaxshi bajarishardiki, ko'p o'tmay kapitan buyruq berdi: «Olg'a!» Birozdan so'ng pingvinlar kemani tuman ichidan olib chiqishdi. Yana quyosh charaqlay boshladи. Havo juda yaxshi edi. Mafin pingvinlarga minnatdorchilik bildirdi. Qushlar xayrlashib yana o'zlarining kichkina orolchalariga qaytib ketishdi.



- Janob Perigringa salom ayting! – qichqirishdi ular.
- Albatta! – javob berdi Mafin.

Shunday qilib xizmatga tayyor pingvinlar eshakning Avstraliyaga o‘z vaqtida yetib kelishiga yordam berishdi. Bolalar uning tashrifidan nihoyatda xursand bo‘lishdi. Ular Mafin ishtirokidagi spektaklni berilib tomosha qilib, uning hazil va sho‘xliklaridan kulishdi – xuddi ingliz bolalari singari.

Kirri laqabli kivi-kivining tashrifi

Bu voqeа o‘tgan yilning kuzida sodir bo‘ldi. Mafinning uyida tozalash ishlari ketayotgandi. Hamma narsa ostinustun qilib tashlangandi.

Eshakning do‘stlari cho‘tka, supurgicha va lattalar bilan u yoqdan-bu yoqqa yugurishardi. Hamma uychaning shishaday yaraqlab turishini xohlardi.

Dala sichqonlari Morris va Dorris uzun dumlari bilan axlatni supurib chiqarib, mebel tagida zir yugurishardi.

Qo‘y Luiza o‘g‘rincha o‘z aksidan zavqlanib, oynalarni artardi. Eng tepadagi tokcha va javonlarni jirafa Greysga topshirishdi. U changni tozalardi.

Kuchukcha Piter panjalariga yostiqchalarni bog‘lab olib, parketni artib polda sirg‘anardi. Mafinning o‘zi topshiriqlar berar, Perigrin esa hammasiga e’tiroz bildirardi.

Oshxonada kenguru Ketti ter to‘kardi. U pirog pishirayotgandi. Tuyaqush Osvald ham shu yerda turardi. Ketti sal chalg‘isa, u ochko‘zlik bilan issiq piroglarga tashlanardi. Uni hech yo‘lga solib bo‘lmasdi!

Bu yugur-yugurning hammasi quyidagicha boshlandi. Mafin Avstraliyadan katta quti olib keldi, uning tubida eshakning Yangi Zelandiyadan uzoq yo‘l bosib kelgan yangi do‘ssti yotardi. U avval Yangi Zelandiyadan Avstraliyaga



naq bir hafta yo'l bosdi. O'sha yerda Mafin bilan tanishib, u yog'iga eshak bilan ketishni ma'qul ko'rди. Avstraliyadan Angliyaga ular naq besh hafta suzishdi. Bechora bu uzoq sayohatdan shunchalik charchab, holdan toygandiki, uch kundan beri dong qotib uxlardi.

«Lekin bugun u albatta uyg'onadi!» – deb o'yładi Mafin.

Xonalar yig'ishtirilib, hamma narsa yaltiray boshlagach, Mafin do'stlarini quti oldiga chaqirdi:

– Perigrin, marhamat qilib, qutidagi yozuvni o'qing, iltimos.

Pingvin ko'zoynagini taqib, qutining yon devoriga qaradi – u yerda yozuvli yorliq yopishtirilgandi. Pingvin yo'talib olib, salmoq bilan ovoz chiqarib o'qidi:

– «Kivi-kivi – Yangi Zelandiyadan kelgan do'st. Bu qush, lekin uning qanotlari yo'q. Tumshug'i uzun va pishiqli. Qattiq tepadi. Qurtlar bilan oziqlanadi».

Perigrin oxirgi iborani o'qishi bilan do'stlar dahshatdan lol bo'lib qolishdi. Keyin jo'r ovozda baqirib yuborishdi:

– Qurtlar bilan oziqlanadi? Bunaqasi bo'lman!

– Buni qaranglar-a!

– O'zining Zelandiyasiga qaytib ketaversin!

– Villi qayerda?

– Villini berkitinglar!!!

– Sekin! – o'shqirdi Perigrin. Do'stlar haddan tashqari shovqin ko'tarib yuborishgandi. – Jim bo'lib, meni eshitinglar! Osvald, hoziroq chuvalchang Villini olib, divan yostiqlari orqasiga berkit. Mafin va Luiza, shu yerda qolib, manavi kivi-kivini qo'riqlanglar: tag'in vaqtidan avval chiqib qolmasin. Tayyorlanib olish kerak. Ketti va Piter, men bilan yuringlar. Nima qilishni aytaman.

Osvald Villini tutib, divan yostiqlari orqasiga yashirdi, o'zi esa yoniga o'tirib oldi.



Mafin va Luiza kivi-kivining uyg‘onishini kutib quti oldiga poyloqchilikka turishdi. Ketti bilan Piter esa mag‘rurlanib Perigringa ergashishdi.

Ular bog‘ orqali o‘tib, so‘qmoqdan pingvinning kulbasiga yetib borishdi.

U yerda Perigrin stulga o‘tirib oldi, Ketti bilan Piter esa yon tomoniga turishdi. Pingvin katta, semiz kitoblarini tita boshladi.

— Topdim! — birdan qichqirdi u va bir parcha qog‘ozga nimanidir yozdi. — Ketti, darrov baqqolning do‘koniga Yugur! Xatni do‘stimiz janob Smaylksga berasan-da, xaltani olasan. Uni sumkangga yashirib, orqangga qayt. Tez! Oyog‘ingni qo‘lingga olib Yugur!

Ketti sakrab ketdi. U katta-katta sakrab shunday tez Yugurardiki, qarshisidan esayotgan shamol uzun qulqlarini boshiga yopishtirib qo‘yardi.

— Sen esa, Piter, — buyruq berishda davom etdi Perigrin, — tezroq bog‘chaga Yugur! Gullari yo‘q gulzorni topib, u yerda iloji boricha ko‘proq chuqurcha kovla. Keyin darrov ortingga qayt, eshitdingmi? U yog‘iga nima qilishni tu-shuntiraman.

Piter yelday uchib topshiriqni bajarishga ketdi. U o‘zicha rosa omadim keldi, deb o‘yladi: axir kuchukchalarga bog‘-chani titishga kamdan-kam ruxsat berishadi! U chamanzor o‘rtasidagi dumaloq gulzorni tanladi. «Bu yerda chindan ham nimadir ekilgan, — o‘yladi kuchukcha, gullarga jirkanib qarab, — ha mayli, ahamiyati yo‘q!». U zavq bilan ishga kirishdi. Birtalay chuqurcha kovlab, boshdan oyoq tuproqqa belandi! Kuchukcha kulbaga chopib qaytib kelganda, Ketti ham do‘kondan endi qaytib turgandi. U janob Smaylaksdan qandaydir uzun xalta olib kelibdi. Perigrin uni tantanali tarzda ochdi. Ichida ingichka va tayoqday qattiq makaronlar bor ekan.



— Uf! Bu nimaga kerak? — yugurganidan hansirab qichqirdi Piter. — Bular bechora Villiga yordam berarkanmi?..

— Shoshma, kuchukcha, — uning gapini bo'ldi Perigrin.

Kulba burchagidagi o'choq ustida katta qora qozon hushtak chalib, pishqirardi. Pingvin uning qopqog'ini ko'tarib, qattiq oq tayoqchalarni qaynayotgan suvga soldi.

Bir necha daqiqa o'tdi. Perigrin yana qopqoqni ko'tarib, makaronlarni sho'rva ichadigan katta qoshiqda suzib oldi. Ular yushmab, qoshiqdan osilib qolgandi.

— Qani, kuchukcha, — dedi Perigrin, — makaronlar endi nimaga o'xshaydi?

— Qurtlarga, — ming'illadi Piter — Uzun, yumshoq chuvalchanglarga.

— Xuddi shunday, — tasdiqladi Perigrin. — Menga xuddi shu kerak edi.

— Balki ko'rinishidan ular qurtlarga o'xshar, — gapga aralashdi Ketti, — balki ushlaganda ham qurtlarga o'xshar, ammo qanday qilib hidini ham qurtlarnikiga o'xshatish mumkin?

— Shu ham muammo bo'ldimi, azizam Ketti! — deb javob berdi pingvin. — Piter ularni gulzordagi chuqurchaga ko'mib qo'yadi. Kuchukcha, makaronlarni olgin-da, chamanzorga yugur, menimcha, ular sovib ham qoldi! Ularni yaxshilab ko'mgin!

Perigrin va Ketti kulbadan chiqib, bog' orqali Mafinning uyiga yo'l olishdi. U yerda ularga hayajonga tushgan Piter yetib oldi. Uning panjalari juda iflos bo'lib ketgandi!

— Perigrin, hammasini ko'mib qo'ydim! — qichqirardi u g'ururlanib. — Yaxshilab ko'mdim! Chuqur qilib!

Uchovlon kivi-kivining qutisi yoniga kelishdi. U yerda Mafin va Luiza xavotirda turishardi: xuddi shu payt qopqoq biroz ko'tarildi. Qutidan ingichka, qattiq tumshuq ko'rindi.



- Hammasi joyida, Mafin va Luiza! — pichirladi Perigrin.
- Uyg'onaversin. Hammasi tayyor.

Pingvin bilan Mafin katta to'rtburchak qopqoqni ko'tarishdi. Qutida juda g'alati mavjudot yotardi. Uning boshi dumaloq, tumshug'i uzun, bo'yni uzun, patlari mo'ynaga o'xshardi, ko'zлari sinchkov va xuddi shoxdek qattiq ikkita panjalari bor edi.

Mavjudot o'rnidan turdi va quti atrofiga yig'ilib olgan hayvonlarga tashvish bilan qaradi.

Mafin birinchi bo'lib gapirdi:

— Xush kelibsan, kivi-kivi! Umid qilamanki, yaxshi uxbab turding? Senga bizning joylarimiz yoqadi, ishonchim komil! Tanish: bular mening do'stlarim!

Eshak qushga o'rtoqlarini tanishtira boshladi. Ular galma-galdan oldinga o'tib, qiziqsinib quti ichiga qarab qo'yishardi. Mafin ularning ismini aytdi.

Faqat Osvald joyidan jilmadi. Bir lahzaga yostiqdan turib qo'ydi, xolos — axir uning ortiga chuvalchang Villi berkinib olgandi-da.

Tanishuv tugadi. G'alati tukli qush qutidan chiqdi va dedi:

— Mening ismim Kirri. Bu yer menga juda yoqdi! Lekin... mening biroz qornim ochdi, — deb tortinib qo'shib qo'ydi u.

— Unday bo'lsa, — darrov javob berdi Perigrin, — sizga chamanzorimizni ko'rsatishga ijozat bering. U yerda tamaddi qilishingiz mumkin.

Pingvin dumaloq gulzorga qarab yurdi. Uning ortidan Kirri, biroz orqada — qolgan do'stlar yurib borishardi. Osvaldan tashqari hamma: u Villini qo'riqlashga qoldi.

— Menimcha, — dedi Perigrin gulzorga yaqinlashib, — menimcha, bu yerda mazali taom ko'milgan. Marhamat, tatib ko'ring!



Kivi-kivi, aftidan, juda ochqab ketgandi. U darrov yerni tita boshladи. Qush o'zining o'tkir, qo'rqinchli tumshug'i bilan ko'plab uzun, ingichka qurtlarni, ya'ni makaronlarni titib chiqardi.

Kirri ularga ochko'zlik bilan tashlandi. Qornini to'ydirib bo'lgach, hamma uyga qaytdi. Kivi-kivi yangi do'stlariga minnatdorchilik bildirdi:

— Katta rahmat! Men juda yaxshi ovqatlandim! Ilgari sira bunday mazali taom yemagandim!

— Juda, juda xursandman, — iltifot bilan javob berdi Perigrin. — Aytishim joizki, bu ajoyib taom «makaron» deb ataladi. Kuniga uch mahal bir likopchadan tanovul qilishingiz mumkin.

— Ur-r-r-a-a-a-a! — hayqirib yubordi Osvald va divandan sakrab turdi.

— Unday bo'lsa, tanishing: mening eng yaxshi do'stim — chuvalchang Villi!

— Juda xursandman! — dedi Kirri chuvalchangga — Sizni biror kun makaron bilan mehmon qilishga ijozat etasizmi?

Villi jon deb rozi bo'ldi.

Mafin va poliz qo'riqchisi

Poliz qo'riqchisi Semyuel — eshak Mafinning yaqin do'sti. Semyuel dala o'rtasida, Mafin yashaydigan omborxona yonida turib, qushlarni haydaydi. Uning dumaloq boshi oq, boshida esa — somon shlyapa, kiyimi juldur.

Qushlar urug'larni va yangi unib chiqqan ekinlarni cho'qish uchun uchib kelganda, Semyuel qo'llarini silkib, baqiradi: «Ke-ti-inglar bu yerdan! Ke-ti-inglar!..»

Mafin Semyuelni yo'qlashni yoqtiradi. Yoniga o'tirib, uning ferma va fermerlar, hosil va pichan o'rimi haqidagi



hikoyalarini zavq bilan eshitadi. Semyuel anchadan beri dalalarni qushlardan qo‘riqlaydi, ko‘plab fermalarda bo‘lgan.

— Men ham biron fermada bo‘lib, u yerda nima ishlar qilinishini ko‘rishni xohlardim, — dedi bir kuni Mafin. — Fermerga yordam berishim mumkin edi, axir men katta va kuchliman. Fermadagi hayvonlar, ayniqsa, aravaga qo‘shiladigan chiroyli katta otlar bilan tanishib olsam ham, yaxshi bo‘lardi.

Semyuel ma’qullab bosh irg‘adi.

— Men bu yerdan sal narida joylashgan juda katta fermani bilaman, — dedi u. — Ishonchim komil, fermer seni ko‘rib xursand bo‘ladi, chunki fermada har doim ish topiladi. Men bajonidil sen bilan borib, yo‘lni ko‘rsataman. Balki, meniyam yordamim asqotib qolar.

Mafin bu taklifdan juda quvonib ketdi. U uyga yugurib borib, nonushtaga bir nechta sabzili buterbrod oldi. Ularni mayda oq xolli dastro‘molga solib bog‘ladi, tugunchani tayoqqa ildi-da, yelkasiga tashladi.

Shundan so‘ng u o‘zini chinakamiga ferma bolasiday his qildi.

Keyin Semyuelning tayyorligini bilish uchun yugurdi. Qo‘riqchining ko‘rinishi juda ma‘yus edi.

— Sen bilan borolmayman deb qo‘rqaman, Mafin! — dedi u eshakka. — Bir o‘zing borishingga to‘g‘ri keladi. Bu yoqqa qara!

U qo‘li bilan daraxtlarga ishora qildi, Mafin hamma shoxlar kichkina semiz qushlarga to‘lib ketganini ko‘rdi. Semyuel bu qushlar atigi bir necha daqiqa avval uchib kelganini, shuning uchun u hech qanaqasiga keta olmasligini aytdi: axir ular yaqindagina unib chiqqan yosh nihollarni yeb ketishadi. U shu yerda qolishi va qushlarni haydashi kerak.



Mafin o'tirdi. U juda xafa bo'ldi. Albatta, fermaga yolg'iz borish o'rtoq bilan borishchalik qiziqarli emas. Birdan uning xayoliga yaxshi fikr keldi. U omborxonaga qaytib borib, u yerdan siyoh, pat va qog'oz olib keldi. Semyuel bilan ikkovlashib xat yozishga kirishishdi. Bu ancha ko'p vaqt oldi. Ular qog'ozga bir nechta dog' tushirib, anchagina xato qilishdi:

QADRLI PERIGRIN!

BIZ SIZNI YAQIN ATROFDA YASHAYSIZ DEB ESHITGANMIZ, AGAR BIZNIKIGA MEHMONGA KELSANGIZ, JUDA XURSAND BO'LARDIK. ILTIMOS, SIZNI DARROV TANISHIMIZ UCHUN DUMALOQ SHILYAPANI KIYIB, SOYABONINGIZNI OLIB KELING.

DALA QUSHLARI

Shundan so'ng Mafin xatni olib, pingvin Perigrin yashaydigan kulba eshigidagi pochta qutisiga tashladi.

Keyin pat bilan siyohni joyiga olib borib qo'ydi-da, sabr bilan kuta boshladi. Nihoyat tanish shitirlashni eshitib zavqlandi: suich-suich... Bu Semyuelning qadam tovushlari edi. Mafin omborxona eshigidan qaradi. Ha, bu chindan ham Semyuel edi.

- Hammasi joyida, Mafin, — dedi u quvnoq kulimsirab.
- Perigrin kelib bo'ldi! Demak, biz hozir fermaga ketsak bo'ladi!

Ular so'qmoqdan yurib ketishdi, Semyuel hozirgina qo'riqchilik qilib turgan dala yoniga kelgach, to'siqdan mo'ralashdi.

Dala o'rtasida pingvin Perigrin turardi. Kichkina semiz qushlar uning atrofida parillab uchishardi. Ulardan birortasi juda yaqin uchib kelishi bilan Perigrin, xuddi Semyuel singari, dumaloq shlyapasi va soyabonini silkitardi. Ammo «Keti-inglar bu yerdan! Keti-inglar!..» deb qichqirish o'rniga



Perigrin: «Salom! Salom!» deb xitob qilardi, biroq qushlar so‘zlarni tushunmagani uchun bu iboralarni bir xil deb o‘yashar, shuning uchun cho‘chib uchib ketishardi.

Mafin va Semyuel fermaga yetib borib, u yerda vaqtni ko‘ngilli o‘tkazishdi. Fermer ularni ko‘rib juda xursand bo‘ldi! Semyuel darhol o‘zining odatdagagi ishi bilan mashg‘ul bo‘ldi: u dala o‘rtasiga turib, qushlarni cho‘chita boshladи, Mafin esa yosh ekinlar qatorlari oralab orqasida u yoqdan-bu yoqqa xaskashni tortib, shu bilan yerni yumshatib yugurishga kirishdi.

Eshak har gal Semyuelning yonidan yugurib o‘tarkan, dumini silkib, «Salom! Salom!» deb qichqirar, ikkovlari maza qilib kulishardi.

Komila NOSIROVA tarjimasi.



MUNDARIJA

3

Roald Dal

CHARLI VA SHOKOLAD FABRIKASI

107

Enn Xogart

MAFIN VA UNING DO‘STLARI



ROALD DAL



CHARLI VA SHOKOLAD FABRIKASI

ENN XOGART

MAFIN VA UNING DO'STLARI



Tarjimon Komila NOSIROVA

Muharrir Umida Sodiq qizi

Rassom Jahongir Badalov

Badiiy muharrir Sardor Sadikov

Texnik muharrir Yelena Tolochko

Musahhih Umida Rajabova

Matn teruvchi Gulchehra Azizova

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2015-yil 1-mayda ruxsat etildi. Bichimi $70 \times 90^1/_{16}$. Ofset qog'ozni. School garniturası. Shartli bosma tabog'i 11,70 + 0,58 zarvaraq. Nashr tabog'i 7,4 + 1,1 zarvaraq. Adadi 5000 nusxa. Shartnomा № 14-2015. Buyurtma №

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-10-45. Faks (371) 244-58-55.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100206, Toshkent, Yunusobod dahasi, Yangi shahar, 1.

Ch-22 Charli va shokolad fabrikasi: ingliz ertak-qissasi/tarjimon K. Nasirova. T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2015. – 160 b.
ISBN 978-9943-05-725-8

Roald Dalning mazkur ertak-qissasi kambag'al oila farzandi bo'lgan kichkintoy Charli Baketning mashhur va g'ayrioddiy qandolatchi janob Vonkaning shokolad fabrikasida boshidan kechirgan sarguzashtlari haqida.

ENN XOGARTNING «Mafin va uning do'stlari» asari esa oqko'ngil xo'tikcha Mafin va uning do'stlari haqidagi qiziqarli va ajoyib hikoyachalardan tashkil topgan.

**UO'K: 821. 111:398.21
KBK 82.3(3)**